

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

«Himoyaga ruxsat etildi»  
Pedagogika fakulteti dekani,  
dotsent \_\_\_\_\_ K.Boymirzayev  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 y.

**5110800-Tasviriy san`at va muxandislik grafikasi**  
**yo`nalishi bitiruvchisi**  
**Faxriddinova Gulobar Kamoliddin qizining**

**“ZAMONAVIY O‘ZBEK XONADONIDA MILLIY SAN‘ATNING**  
**ESTETIK, MA‘NAVIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI”**  
mavzuidagi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

«Himoyaga tavsiya etildi»  
Tasviriy san`at va muxandislik  
grafikasi kafedrası mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. O'.Abdullayev  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 y.

BMI rahbari: professor  
\_\_\_\_\_ A.A.Akparov

**Mavzu: Zamonaviy o'zbek xonadonida milliy san'atning estetik,  
ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyati.**

**Reja**

**Kirish**

**1-bob. Amaliy san'at**

- 1.1 Amaliy san'at, uning tarixi va kishilik jamiyatidagi tutgan o'rni
- 1.2 Amaliy san'atning turlari va o'ziga xosligi

**2-bob. O'zbekiston viloyatlarida amaliy san'atning o'ziga xosligi va  
yo'nalishlari**

- 2.1 Samarqand viloyati amaliy san'ati
- 2.2 Farg'ona vodiysini amaliy san'ati
- 2.3 Xorazm viloyatida amaliy san'at

**XULOSA**

**Ilovalar**

**Foydalanilgan adabiyotlar**

## KIRISH

### **a) Bitiruv malakaviy ishi mavzusini dolzarbligi ob'yekti predmeti, ilmiy yangiligi nazariy va amaliy ahamiyati maqsad va vazifalari.**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratdi va ular uchun keng imkoniyatlar yaratila boshlandi. Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Tarixni bilmay turib, kelajakni qurib bo'lmaydi". Demak, har bir oilada bola tarbiyasida bizning milliy urf-odat, an'ana va marosimlarimiz, balki milliy san'atimiz ham juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu masalada alohida to'xtalib, "Ilm-ziyo, salohiyat bu xalqning, Vatanning ulkan boyligi, kelajak poydevori, uni rivojlantirishda, yetuk mutaxassislarni tarbiyalashda davlat imkoniyati bo'lgan hamma ishni qiladi, hech narsani ayamaydi" -degan edilar. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir oilada bola tarbiyasida milliy san'atning o'rni ham o'ziga xos. Bu esa dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yana shuni aytib o'tish joizki, bizni zamonaviy oilalarimizda milliy san'atni ko'plab turlari xonadonlarga kirib borishi lozim. Chunki biz kim ekanligimizni, kimlarning avlodlari ekanligimizni unutmasligimiz lozim. Bunda bizga milliy san'at juda katta turtki bo'ladi. Biz yosh avlodni tarbiyalash jarayonida milliy san'atning roli beqiyosligini, bu borada juda ko'plab ishlar olib borilayotganligini ko'plab sohalarda bilishimiz mumkin. Misol uchun: yosh avlodni oilada ota-onalar mahallada, keng jamoatchilik joylarida kiyinish madaniyatiga, ya'ni o'zbekona milliy ruhda kiyinishga o'rgatishlari lozim. Bundan ko'rinib turibdiki, **mavzuimiz amaliy ahamiyatga ega** hisoblanadi. Yana biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib. Shu bilan birga taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda oliyjanob intilishlar bilan yashayotganimizni xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan osod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz buy o'da erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olganini bunday imkoniyatlarni barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Har qanday xalq yoki millatning ma'naviyati uning tarixi o'ziga xos urf-odat an'analari hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki ma'naviy meros madaniy boyliklar ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Yana shuni ta'kidlash joizki **mavzuni tanlashdan maqsad** O'zbekistonning xalq –amaliy bezak san'ati milliy madaniyatining nodir qatlami hisoblaganligidir.

Xalq san'ati va amaliy san'ati ko'p asrlik an'analarining saqlanib qolishi hamda rivojlanishida yurtodoshlarimiz bu san'atining o'ziga xos bulog'dan bahramand bo'lishmoqda.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan san'atning ushbu yo'nalishlariga e'tibor kuchaytirildi.

Jumladan milliy madaniyatning rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atining axamiyati oshirish qo'lda ishlaniladigan yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko'rsatish maqsadida 1997-yil 31 martda O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti qaroriga binoan amaliy san'at asarlarini yaratgan shaxslar o'z mahsulotlarini narxlarini iste'mol bozoridagi talab va takliflardan kelib chiqqan holda mustaqil belgilashlari bunday buyumlar respublikadan tashqarida sotilishi chog'ida ulardan olinadigan boj haqi bekor qilinishi va boshqa vazifalar belgilab qo'yildi.

“O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi” invoni ta'sis etilgani ham milliy san'atning ko'klarga ko'tarilganini yaqol dalili deb aytsak ham hech adashmaymiz.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2005 yil 28 martdagi “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada qo'llasb-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni chiqdi. Unga muvofiq xonadon sharoitida badiiy hunarmandchilik va amaliy san'at buyumlarini ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band shaxslar 5 yil muddatga davlat solig'i to'lashdan ozod qilindi.

Yana 2008 yil 1 aprelda qabul qilingan “Xalq badiiy hunarmandligi va amaliy san'atni rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi farmoniga binoan xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy bezak buyumlarini xonadon sharoitida ishlab chiqarish bo'yicha yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band bo'lgan shaxslar qat'iy belgilangan soliq to'lashdan 2010 yilning 1 apreligacha ozod etildi. Bu qarorlar farmonlar natijasi o'laroq hozirgi kunga kelib amaliy san'at juda yuksak cho'qqilarga erishdi. Mamlakatimizni dunyoga mashhur etib butun dunyo ahlini nodir asarlarimiz bilan lol qoldirmoqda.

Jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq jarayonlarni murakkab tomoni shundaki, bugungi kunda boshimizdan kechiryotgan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'lida uchraydigan juda ko'p muammolarni ham **nazariy** ham **amaliy** jihatdan faqat o'z kuchimiz va salohiyatimizga tayanib hal etishga to'g'ri kelmoqda. Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalgam oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarni amaliy natijasi o'laroq adabiyot va san'at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan butunlay halos bo'lganini qayd etish joiz.

Erkin ijod uchun milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni xalqimiz tarixining unung bugungi sermazmun hayotining to'laqonlik va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Bilim va dunyoqarashning oshirish qadimiy an'analarimiz, shu bilan birga, fuqarolarimiz ongida demokratik qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyash yo'lida milliy san'atni ro'li beqiyos ekanligi ko'rinib turibdi.

Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagining ulug'lamoqchi uni avlodlar xotirasida boqiy saqlanmoqchi bo'lsak milliy san'atni har bir o'zbek xonadonida a'lohida ahamiyat kasb etadigan ro'li bor ekanligini yosh avlodlarni ruhida singdirishimiz lozim.

Yurtimizda ma'naviy tiklanish va yangilanish jarayonlari boshlanishi bilan boshqa san'at turlari kabi amaliy bezak san'atiga ham yangi davr boshlandi. Ushbu soha shu qadar nozik va murakkabki unda har bir detal ham nozik did va mahorat bilan ishlanadi.

Bu haqda uzoq gapirish mumkin lekin men faqatgina misol keltirish bilan kifoyalanmoqchiman . Istiqloqlga erishganimizdan song tarixiy inshoatlarimiz tarixiy yodgorliklarimizni qaytadan asl holiga keltirish zimmasiga yuklatilgan ulkan vazifa edi va bu vazifa juda mohirlik bilan bajarildi.

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq- deb yozadi birinchi prezidentimiz I. A. Karimov – ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebexo ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan nixoyatda muhim vazifa bo’lib qoldi. Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o’zlikni anglashni o’sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.”<sup>1</sup>

Birinchi prezidentimiz tomonidan qo’yilgan vazifalarni amalga oshirish har bir fuqoroni burchiga aylandi. Ayniqsa, bu ishlarni amalga oshirish borasida san’atshunos olimlarimizning sa’yi-harakatlari bilan juda ko’plab tarixiy, madaniy va ma’naviy –axloqiy qadriyatlarining keng qatqlqlarini qayta idrok etiladi. yangi tarixiy sharoitdagi taraqqiyot taxliligiga bag’ishlangan fundamental tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, O’zbekiston badiiy akademiyasi san’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan fundamental tadqiqotlar natijasiga asosan O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligiga bag’ishlangan “O’zbekiston san’ati” (1991 – 2001 yillar) kitobi (“Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririyyati, 2001) nashr qilindi. Bundan tashqari T. Maxmudov, A. Umarov, E. Rtveladze, H. Abdullayev, A. Hakimov, A. Egamberdiyev, Sh. Shoyuqubov, R. xasanov, A. Sulaymonov, B. Boymetov, S Abdurasulov, N. Tolipov, B. Oripov, A. Akparov, B. Jabborov kabi ko’plab olimlarimiz tomonidan san’at tarixi, nazariyasi va uni o’qitishga oid yangi tahrirdagi juda ko’plab darslik, qo’llanma va risolalar ham chop qilinadi.

Biroq, bularning aksariyatida yevropa san’atini O’rta Osiyoga, xusasan O’zbekistonga kirib kelishi bilan bog’liq ayrim masalalar hali ham o’z yechimini

---

<sup>1</sup> И. Каримов. “Ўзбекистон XIX аср бўасғасида: хавфсизликка тахдид, барқрорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари.” Т.; “Ўзбекистон”. 1997. 137-6.

topgani yo'q. Misol uchun, hurmatli ustoz N. U. Abdullayev tomonidan chop qilingan "San'at tarixi" kitobida "Tasviriy san'atning rangtasviri turi, ayniqsa, uning moybo'yoq texnikasida asarlar yaratgan mahalliy rassomlar haqida ma'lumotlar kam. Bu san'atning dastlabki namunalarining birinchi mualliflari xorijlik rassomlar bo'ldi. Ular ham yurtimizda samarali ijod qilishdi. Mustaqillikdan oldingi yillarda amaliy san'atga xususan naqqoshlikka bo'lgan e'tibor kamayganini ko'rishimiz mumkin. Lekin mustaqillikdan so'ng bu e'tibor yana qaytdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Barcha amaliy san'at durdonalari qayta ta'mirlanib nafis, chiroyli holatga keltirildi. Mana shulardan kelib chiqqan holatda naqqoshlikda eskizning ahamiyatiningina emas, balki naqqoshlik san'ati haqida yanada to'liqroq hamda chuqurroq ma'lumot berishga harakat qildim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" maqolasida quyidagi dalilni keltiradi: "Chor Rossiyasining Skobelev degan generali shunday deb yozgan edi: Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi". bu szlarda chor rossiyasi siyosatining asl moxiyati ham, shuningdek, "shavkatli general", Skobelevning haqiqiy basharasi ham aniq-ravshan ta'riflab berilgan.

Istiqlol tufayli xalqimiz ma'naviy xo'rliklar, zo'ravonliklardan qutuldi. Jaxonga mexmondo'stligi, mexnatsevarligi, halolligi, olijanoblighi bilan tanilgan o'zbek xalqi bugun o'z baxt-saodatini bunyod etmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning mustaqilligini asrash va uni kelajakda buyuk davlatga aylantirishga jamiyatimizdagi ustuvor yo'nalishga aylandi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini "**Zamonaviy o'zbek xonadonida milliy san'atning estetik, ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatini**" – deb belgilab oldik.

Tadqiqot ishimizning **i l m i y y a n g i l i g i** biz tanlagan mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqod ishlarini, darslik, o'quv qo'llanmalarni, rassom asarlarini, amaliy san'at durdonalarini o'rgangan holda nafaqat naqqoshlikda eskiz, balki

kompozitsion yechim, rang uyg'unligi, ijro mahoratini ham birga o'rganish bilan o'z aksini topadi

**A m a l i y a h a m i y a t i** esa mavzu materiali asosida nafaqat amaliy san'atni o'rganib qolmasdan amaliy san'at haqida to'liq ma'lumot, amaliy sa'atining paydo bo'lishi va rivojlanishi, amaliy san'at maktablari, qo'li gul naqqoshlarni ijodini ochib berishga harakat qildim.. Qolaversa, tadqiqotimiz natijalari asosida tayyorlaydigan taklif va muloxazalarimiz asosida darslik, qo'llanmalarga ham ayrim o'zgartirishlar kiritiladi degan umiddamiz.

Malakaviy ishimizning **m e t o d o l o g i k a s o s i n i** ona vatanimiz ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti belgilovchi davlat hujjatlari, XIX asrdagi tarixiy voqealar va ular haqidagi daliliy ashyolar, rassom kundaligi, ishlagan asarlari, darslik, qo'llanma, gazeta, jurnal va internet ma'lumotlari tashkil qiladi.

Tadqiqod mavzusini to'liq yoritib berish maqsadida biz o'z oldimizga quyidagi **m a q s a d v a v a z i f a l a r n i** ni qo'ydik:

- Amaliy san'at tarixini ilmiy taxlil qilish;
- Mustaqillik yillarida amaliy san'atni rivojlanishini o'rganish;
- Amaliy san'atni ta'lim muassalarida o'qitilishini taxlil qilish;
- Ijodiy ish va uning natijalari asosida taklif mulohazalar tayyorlash hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Bundan shu narsa ko`rinadiki, ta`lim tarbiya va kadrlar tayyorlash, har narsadan ustunroq, zarur, eng dolzarb vazifadir.

Shu jumladan yurtimiz uzoq tarixiga borib taqaladigan Amaliy san`at buyumlari va ularga hamohang tarzda ishlangan naqqoshlik san`ati nodir asarlarini to`la o`rganish va kelajak avlodlarimizga etkazish. San`atni bu turini kengroq ochib berishdan maqsadim, aynan amaliy san`at badiiy buyumlari va ularga ishlangan naqshlar haqida ma`lumotlar kamligi, yaxshi ilmiy o`rganilmaganligi va o`rganuvchilar uchun o`quv materiallari kamligi, ayniqsa bu yo`nalish bo`yicha o`rta va oliy o`quv yurtlarini tamomlayotgan yoshlarimizni ish bilan tanishtirish kabi muammolarni bartaraf etishni dolzarbligini.



O'zbekiston Respublikamiz Mustaqillikga erishganidan so'ng ta'lim-tarbiya sohasida, meditsinada, sanoatda qishloq xo'jalik va boshqa barcha sohalarda islohatlar o'tkazildi. Natijada ilgari agrar mamlakat bo'lgan o'zbekiston sanoati taraqqiy etgan rivojlangan davlatlar qatoriga kirdi. Islohatlarni amalga oshirishda yurtboshimiz Islom Karimovning ro'li beqiyos darajada kattadir. Tarixan qisqa vaqt ichida asrlarga ta'tigulik ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirildi. Yigirma yilga yaqin vaqt ichida dunyo hamjamiyati davlatlari ichida o'ziga munosib o'rin egalladi.

**b) Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohasini rivojlantirish yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ 31-60 sonli qarorining mavzuga bog'liqligi**

Mamlakatimizda hozirgi kunda o'zbek xonadonida yosh avlod tarbiyasida uning estetik ma'naviy axamiyatining yanada kuchaytirish maqsadida Prezidentimizning Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirish va soxani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi ishlar samaradorligi oshirish va soxani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ 31-60-sonli qaroridan kelib chiqadigan dolzarb vazifalar va uning ijroini ta'minlash va targ'ibot ishchi guruxi tarkibiga o'zgartirish kiritish to'grisida keltirib o'tilgan .

Hozirgi globallashuv jarayonida har bir mamlakatda bo'lgani singari O'zbekistonda ham yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ularni ma'naviyatini boy ma'rifatli qilib tarbiyalash kabi katta masala bor. Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirish va soxani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi ishlar samaradorligi oshirish va soxani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qaroridan yaqqol ko'rinib turibdi.

Bu qarorga ko'ra mustaqillik yillarida mamlakatimiz xayotining ma'naviy –marifiy asoslarini mustahkamlash ,milliy istiqlol g'oyasini asosiy tushuncha tamoyillari hayotda joriy etish yurtdoshlarimiz ayniqsa yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va ma'suliyat xissini oshirish yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirishgan targ'ibot tizimi

shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi uning joylardagi tizimlari hamda milliy go'ya va mafkura ilmiy amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganligini qayd ekanligi aytib o'tish lozim.

Yana bu qaror asosida juda ko'plab ta'lim muassasalarida yosh avlod ongida milliy o'zlikning anglab yetish lozim.

Zamonaviy yoshlar hozirgi globallashuv jarayonida o'zlarining qay tarzda har xil yod g'oyalarga qarshi turish uchun ularning ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratilgan. Qarorda bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonida kuchayib tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi taxdid va xatarlar tobora ko'patib bormoqda. Bunday murakkab vaziyat soxada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baxolab uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etayotganligi uchun ham bu qaror qabul qilindi. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirilishi lozim ekanligi ta'kidlangan. Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosat va g'oyaviy –mafkuraviy jarayonlarning mazmun mohiyatini xar tomonlama chuqur yoritib borish ,terrorizm ,dibiy ekstirimizm, aqidaparastlik ,separatism ,odam savdosi, ommaviy madaniyat, narko biznes va boshqa taxdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish;

Milliy g'oyaning yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar ,ijtimoiy toifa vakillari o'rtasidagi keng targ'ib etish bunyodkorlik ruxini yalpi ijtimoiy xarakterga aylantirish ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish ;

Yoshlarga sog'lom dunyoqarash jumladan kitobxonlik ko'nikmalarining shakllantirish ,internet, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirish va soxani rivojlantirishni yangi bosqichiga ko'tarish to'g'risida"gi PQ31-60-sonli qarori ijrosini taminlash maqsadida maktabning aniq maqsadga yo'naltirilgan chora -tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

Maktab interneti joylashgan hududda yashovchi aholi va voyaga yetmagan yoshlar o'rtasida milliy g'oyamizning mazmun mohiyatining ,uning axamiyati hamda ma'naviy ma'rifiy ishlar to'g'risidagi ishlarini olib borish va ma'naviy ma'rifiy ishlarni targ'ibot tashviqot tadbirlari tashkil qilish .

Milliy ma'naviyatimizning ma'no va mohiyatining ,ildizlari noyob va betakror namunalari bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqidagi aniq maqsadga qaratilgan izchil targ'ibot ishlarini olib borish;

O'tilayotgan barcha darslarda albatta milliy istiqlol g'oyamizning mazmun mohiyatining o'quvchilarga tushuntirib borish orqali ularda vatanga muxabbat tuyg'usini kuchliroq shakllantirish hamda olib borilayotgan ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha samaradorligini oshirish.

Yoshlar ongida vatanga muxabbat va sadoqat insonparlik fazilatlarini tarbiyalashmilliy urf –odat an'ana qadriyatlarini xayotimizdagi o'rni va axamiyatini ochib borishga yo'naltirilgan ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish vazifalari yuklatilgan .

Bu qarorda olib borilishi lozim bo'lgan ishlar asosan bizning milliylikimizda ham borib tarqalmoqda .

Biz har bir zavonaviy oilalarda farzandlarimizning estetik dunyoqarashi ,ma'naviyati va ma'rifatini oshirishimizni uchun biz o'zbek xonadonini ichiga milliy san'at namunalari olib kirishimiz joiz .Chunki milliy san'at durdonalari insonlarning biz kim ekanligimiznikimni avlodlari ekanligimizni bizning tariximizda naqadar buyuk siymolar bor ekanini bizga doimo eslatib turadi .Ular go'yoki bizga tarixni shivirlab turgandek bo'ladi .Bizning amaliy san'at durdonalari asarlariga ro'z tashlar ekanmiz har bir inson baxri dili yayraydi.Yoshlarga yosh avlodni esa bu estetikasini yuksaltiradi .Buesa yoshlarimizningvatabparvarlik ruxida tarbiya qiladi.Yana bu qarorni amalga oshirish mobaynidayosh avlodni ongida komil insonlarni tarbiyashimiz lozim ekanligini ko'rishimiz ko'rishimiz mumkin .

Ma'naviyat ma'rifiy so'z borganda biz uchun birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarlarida Ma'naviyat va Ma'rifatga

berilgan ta'riflariga aytib o'tishimiz joiz deb o'ylayman. Chunki bu asarda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov juda chiroyli va ma'noli so'zlar bilan tariflab o'tganlar.

“Ma'naviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdononi uyg'otadigan beqiyos kuch, deb ta'riflaganlar .

So'zlar zamirida juda chuqur ma'no mazmun bor ekanligi hozir zamonaviy yoshlarni ongida bo'lmog'I lozim. Chunki inson bunday vaziyatlarga ega bo'lsa hech qachon undan yomonlik yoki yomon illatlar paydo bo'lmaydi. Shuning uchun ham birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning ishonchli davomchisi amaldagi prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ham bu borada juda ko'plab ishlar olib borilmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida **2017-yil 7-fevralda “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmoni** olishimiz mumkin. Farmonda **2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi** tasdiqlandi.

#### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASI TO'G'RISIDAGI FARMONNING MAQSADI:**

**Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish harakatlar strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:**

- 1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;**
- 2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;**
- 3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;**
- 4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;**

**5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.**

**Harakatlar strategiyasining amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasining mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun ustuvorligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralarining daxlsizligini, jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash yo'lidagi shaxdam harakatlariga yangi kuch bag'ishlaydi.**

## **1-bob. Amaliy san`at**

### **1.1. Amaliy san`at va uning kishilik jamiyatida tutgan o`rni.**

Amaliy - badiiy bezak san`ati - san`atning teatr, kino, musiqa, tasviriy san`at turlari qatori mustaqil ahamiyat kasb etadi. U o`z nomiga ko`ra amaliyotda, ya`ni turmushda qo`llaniladigan bezak san`ati ma`nosini anglatadi. Amaliy- badiiy bezak san`ati turli xil buyumlar, ko`chalar, maydonlar, istirohat bog`lari, ishlab chiqarish korxonalari, o`quv-tarbiyaviy muassasalar, sport va madaniy inshootlarni bezatish bilan bog`liqdir. Shuningdek, u kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagini ham o`z ichiga oladi. Amaliy-bezak san`ati kishilar turmushida shunchalik keng qo`llaniladiki, usiz turmushni tasavvur etish qiyin.

Amaliy-badiiy bezak san`ati idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, mebel, interyer, eksteryer bezagi, gazmollar bezagi va boshqa turli bezaklarda qo`llanadi. Amaliy-bezak san`ati nihoyatda qadimiy bo`lib, u ishilarining mexnat faoliyatlari va extiyohlari bilan bog`liq holda paydo bo`lgan, san`atning bu turining dastlabki namunalari tosh asrida paydo bo`lgan deb taxmin qilinadi. Uyg`onish davrigacha u uy hunari shaklida, keyin xalq hunarmandchiligi tariqasida shakllandi. Shaharlarda amaliy-bezak buyumlari maxsus korxonalarda ishlab chiqiladigan bo`ldi. Asta-sekin xalq hunarmandchiligi buyumlari orasida yuksak badiiy saviyada ishlanganlari ham paydo bo`ldi. Natijada, ular amaliy san`at namunalari ga aylandilar. Turmushda foydalanish uchun tayyorlanadigan buyumlarning barchasi amaliy san`atga kiradi deb bo`lmaydi. Turmush uchun mo`ljallangan kiyim-kechak, idish-tovoq, amaliy san`at buyumiga aylanishi uchun ularga ma`lum talablar qo`yildi. Ya`ni, ular yuksak badiiy saviyada bajarilishi lozim. Bunda ularning tuzilishi, shakli, bezak kompozitsiyasi ranglari, materiali nazarda tutiladi. Bu talablarga javob bermagan taqdirda, ular hunarmandchilik buyumi qatoridan o`rin oladi. Shuningdek, o`quv mashinalari yordamida tayyorlanadigan buyumlar ham amaliy san`at namunalari bo`la olmaydi. Chunki, ular yuqoridagi talablarga to`la javob berolmaydi.

Jahondagi har bir xalqning o`ziga xos amaliy-bezak san`ati bor. Masalan, Xitoyda chinnisozlik, Rossiyada matreshka o`yinchoqlar yasash. Turkmanistonda

gilamchilik, Boltiq bo'yi mamlakatlarida dasturxon va sochiqlar tikish, O'zbekistonda esa kulolchilik, misgarlik, chinnisozlik, kashtachilik taraqqiy etdi. Shunisi diqqatga sazovorki, amaliy-bezak san'atida har bir buyumni tayyorlashda har bir xalq o'z materiali, o'z texnologiyasi, ish uslublari, bezak gullari va ranglarini qo'llaydi.

Amaliy-bezak san'atining asosiy maqsadi kishilar yashaydigan muhitni va o'zini o'rab olgan buyumlarni chiroyli qilishdan iborat. San'atning bu turida go'zallik va qo'llanish (foydalilik) birligi degan ibora bor. U buyumlarni faqat turmushda qo'llanilgandagina go'zal bo'lishi mumkinligini bildiradi. Hatto, ayrim buyumlar bezaksiz bo'lganda ham go'zal va badiiy bo'lishi mumkin. Bunda bu buyumning shakli va materiali katta ahamiyat kasb etadi. O'zingiz tasavvur etib ko'ring, biron bir usta nihoyatda ajoyib bir shakldagi, tuzilishdagi, rangdagi, bezakdagi buyumni yaratgan. U har jihatdan kishilar e'tiborini o'ziga tortdi. Lekin, undan amaliyotda foydalanib bo'lmasa, u narsani go'zalligiga ham bo'lmaydi, Masalan, piyolani chelakdek kattalikda nihoyatda bezakdor qilib ishlansa undan xech kim foydalana olmaydi. Ya'ni, u chiroyli bo'lishi mumkin emas. Amaliy-bezak san'atida shakl muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda buyum hajm jihatdan maqsadga muvofiq ishlansa-yu, uni shakli topilmasa u ham chiroyli yoki badiiy hisoblanmaydi. Masalan, palov uchun mo'ljallangan sopol laganni tog'ora yoki chelak shaklida ishlash mumkin emas. Chunki, u laganni vazifasiga mos tushmaydi. Palovni tog'oradan qo'l bilan olib yeyish ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuninguchun ham amaliy-bezak san'ati buyumini yaratishda buyum shaklini, uning vazifasidan kelib chiqqan holda tayyorlanishi lozim.

Amaliy-bezak san'ati buyumlarini tayyorlashda uni materialini to'g'ri tanlash katta ahamiyatga kasb etadi. Masalan, lagan va piyolani yog'ochdan, xontaxta va kursilarni toshdan, kiyim-kechaklarni loy yoki ganchda tayyorlash maqsadga muvofiq emas. Chunki, bu materiallar shu buyumlarning vazifasiga mos kelmaydi. Aytaylik, idish-tovoqlar tayyorlashda usta, unga oziq-ovqat yoki ichimlik solinishini hisobga olishi lozim. Usta lagan tayyorlaydigan bo'lsa, uni metaldan yoki toshdan tayyorlamaydi. Chunki, lagan metaldan tayyorlansa birinchidan og'ir

bo'ladi, ikkinchidan unga suzilgan ovqat tez sovub qoladi. Uni yuvish va tozalash xam ma'lum qiyinchiliklarga ega. Amaliy san'atda ustalar yasaladigan buyumning vazifasiga qarab mavjud barcha materiallardan foydalanadilar. Ular tuproq, tosh, suyak, yog'och, gazmol, ganch, metal va boshqalar. Pushti vaqtlarda sintetik materiallar ham keng qo'llanilmoqda.

Amaliy-bezak san'atini rangsiz tasavvur etish qiyin. Ayrim ustalar buyum materialiga (masalan, yog'ochga) ishlov berib, ularning ta'sir kuchini oshirsalar, boshqa ustalar bo'yoqlar yordamida buyumlarga rang berib ularning ko'rkini ochadilar. Amaliy-bezak san'ati buyumlariga rang berishda ustalar yuqorida qayd qilinganidek, ularning vazifasidan ishlatilgan materiallaridan kelib chiqadilar. Shuningdek, buyumlar qaysi maqsadda kimlar uchun, qaysi vaqtda, qayerda ishlatilishiga qarab rang tanlaydilar. Masalan, kiyimlar uchun rang tanlanganda, ular qaysi jinsdagilar, qaysi yoshdagilar, qaysi vaqtda kiyilishi (bayram, to'y kunlari, motam kunlari, xizmat vaqtda v.b.) ga e'tibor beriladi. Masalan bayram va to'ylarda kiyiladigan kiyimlarda quvnoq va jarangdor ranglar ishlatilsa, kundalik kiyimlarda vazminlik, xotirjamlik hislarini uyg'otuvchi ranglar qo'llaniladi. Kasalxona interyerini bezashda qo'llanilgan ranglardan o'quv yurtlari yoki o'quv muassasalarini bezashda foydalanib bo'lmaydi. Chunki, ranglar odamlarga turlicha ta'sir ko'rsatadilar. Shu maqsadda kasalxonalarining bezagida ko'proq kasallar tinchlantiruvchi, yengil, tiniq ranglar ishlatilsa, o'quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalarida kishilarni xayajonlantiruvchi, tetiklashtiruvchi, jonlantiruvchi ranglar qo'llaniladi. Bayram kunlari (kiyimlar tayyorlashda ularga iliq ranglarni berilishining sababi kiyimlarni ko'rgan odamlarda ko'taringkilik, quvonch hosil qilish nazarda tutiladi. Kundalik kiyimlarda bunday ranglar ishlatilsa, ular odamlarni tez charchatadi va bezovtalantiradi. Xullas, ranglar shunday kuchga egaki, xattoki qamoqxona devorlari yorqin, yengil iliq ranglar bilan bo'yalgan taqdirda u kishilarda qamoqxona emas, madaniyat muassasasining binosiga kirilgandek taasurot qoldiradi.



Amaliy - bezak san'ati buyumlarida yana bir muhim jihat ularning o'lchovlari hisoblanadi. Bu degan so'z amaliy-bezak san'ati buyumini yaratuvchi har bir usta yaratilajak buyumning vazifasini e'tiborga olib, uning o'lchovini to'g'ri olishligini bildiradi. Xususan, choynakni xumdek kattalikda, so'zanani dastro'moldek yoki ayollar taqinchoqlari solinadigan qutichani sandiqdek o'lchovda yasash mumkin emas. Aks holda, ular foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Shunday qilib, amaliy san'at buyumlari ularning vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi, o'lchovlariga rioya qilishni talab etadi. Shundagina, bu buyumlar kishilarni xayajonlantiradi, to'lqinlantiradi va ularga zavq bag'ishlaydi.

Hozirda amaliy-bezak san'ati ikki yo'nalishda rivojlanmoqda:

1. Badiiy hunarmandchilik. Bu yo'nalishga ayrim korxonalar, zavodlar, fabrikalar kiradi, Buxorodagi zardo'zlik buyumlari, Xivadagi gilamdo'zlik, Rishtondagi sopolsozlik korxonalarida shular jumlasidandir.
2. Xalq amaliy-bezak san'ati. Bu yo'nalishda asosan mustaqil ravishda ish olib borayotgan ustalar mahsulot ishlab chiqaradilar.

Birinchi yo'nalish bo'yicha badiiy buyumlar ishlab chiqarish korxonalarida ko'p nusxada tayyorlansa, alohida ustalar faoliyatida buyumlar soni nihoyatda chegaralangan bo'ladi. Bu esa ularning badiiyligini yuqori bo'lishligiga olib keladi. Bunday korxonalar mebelsozlik, pichoqchilik, kashtachilik soxalarida ham bor.

Xalq amaliy san'ati har bir xalqda mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san'atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo'llanadigan materiali, shakli, tuzilishi, rangi, bezagi, o'lchovlari jihatidan bir-birlaridan farq qiladi.

Xalq amaliy san'atining yana bir muhim harakterli belgilaridan biri bu ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo'llanib kelingan badiiy an'analar hisoblanadi. Bu xususiyat ko'proq xalqning u yashayotgan muhit, tabiati, iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Chunki, amaliy san'at ustasi o'z asarini yaratayotganda u go'zallikni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o'zbek xalq ustalari o'z ishlarida toychoq, qo'zichoq tovus tasvirlarini, shimoliy

o'lkalarning ustalari bug'u, kiyik tasvirlarini ishlaydilar. Asar materialiga esa o'zbek ustalari ganch, loy, mis kabilarni, shimoliy xalqlar yog'och va xayvon suyaklarini ko'proq ishlatadilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga iqlim ham ta'sir ko'rsatadi. Shimoliy o'lkalar iqlimi sovuq bo'lgani uchun u yerdagi ustalar ko'proq sovuq, ranglarni, issiq, iqlimli O'zbekiston ustalari ko'proq iliq ranglarni qo'llaydilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy-bezak san'atida o'z an'analari shakllanadi.

Insonning madaniyatiga bo'lgan ilk qadami ibtidoiy davrdan boshlanganligini qayd etishimiz kerak. Turmush, tirikchilik hamda uy-ro'zg'or iaqozosi talablari bilan vujudga kelgan buyumlar, kundalik zarurat uchun kerakli bo'lgan asbob anjomlar yashash hamda ularni har xil ko'rinish va shakllarda ijod ettirish har bir davrning majburiyatiga aylanib qolgan. Bu buyumlar turmushda foydalanishga qulay, sodda hamda katta kichik talab qilmasligiga qaramay yillar o'tishi bilan ularni zamon talablariga moslashtirishi, yangicha nusxa hamda ko'rinishlarida ijod etishi o'z davrini mohir ustalaridan ijodiy izlanish va safarbarlik talab etib kelgan.

Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham o'z madaniy merosini o'zi vujudga keltirgan. Xalqimizni amaliy san'ati boy an'analarga va uzoq tarixga borib taqaladi.

Arxiologik qazilmalar natijasida topilgan badiiy ijod namunalari xalq amaliy san'atining tarixi tosh asriga borib taqalishini ko'rsatadi.

Asrlar o'tadi, bir ijtimoiy tizim o'rnida ikkinchisi paydo bo'ladi. Ammo xalq moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishda davom etaveradi. Xalq amaliy san'ati doimo kishilar turmush farovonligini oshirishga va ularga estetik zavq baxsh etishga xizmat qilib keladi. O'zbek xalq amaliy san'ati ustalari yaratgan yuksak san'at namunalari jahonni, turli shaharlaridagi amaliy san'at va etnografiya muzeylarida namoyish etib, katta olqishlarga sazovor bo'lgan.

Bezakli amaliy san'at turi tasviriy san'atga yaqinroq turadi. U amaliy san'at maqsadlarga mo'ljallangan bo'ladi. Bezakli amaliy san'at asosan maishiy turmush ehtiyojlariga xizmat qiladigan narsa buyumlar yaratadi. O'zbek amaliy, bezakli

san`ati dastgohli tasvir shakllaridan frq qilib, xalq tarixi bilan bog`liq xolda murakkab va ko`p asrli rivoyatlanish yo`lini bosib o`tgan. Bu san`at turi voqealanuvchi estetik idrok etib yangiliklar, yaratishga qaratilgan san`atdir. Hozir nafis gazlamalar, gilamlar to`qish, sopol idishlarga gul solish, do`ppi tikish, zardo`shlik kashtachilik so`zanaga gul tikish, missharchilik, kulolchilik, zargarlik, musiqa asboblari bejirim do`ppilar, milliy kiyimlar, ajoyib pannolar yaratmoqdalar va bu bilan o`zbek amaliy san`atini dunyoga tanitmoqdalar.

Xalq amaliy san'ati tarixdan juda ko'p rivojlanish davrlarini boshidan kechirgan. Lekin mazmun va mohiyat faqat yangi ijodiy ko`rinishlar bilan boyitilgan. Jumladan istiqloq yillarida ham o`ziga xos rivojlanish davri bo`ldi. Xalq ustalari o`z asarlari bilan jaxon saxnasiga chiqdilar. Masalan Rishton kulolchilik maktabida 1000 dan ortiq kulollar ijod qilmoqdalar. Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg shahrida qator ko`rgazmalarda qatnashdilar. Shulardan 130 tasi «Xunarmand» xalq ustalari birlashmasining a'zolaridir. Zargarlik san'ati so`ngi o`n yillik mobaynida birmuncha jonlandi. Unutilib borayotgan an'analar tiklana boshladi.

Hozirda samarali ijod qilayotgan usta zargarlar qatoriga Dadamuxamedovlar sulolasi, G.Yo`ldasheva R.Muxametshin, M.Nozirxonov, Sh.Nizomov, M. Olimov kabi ustalarni kiritish mumkin. Zamonaviy zargarlik buyumlari-tumorlar, sirg'alardan «Uch ko`zacha», « Oy baldoq », «Qoshqar baldoq» singari buyumlarga zamonaviy shakl berilmoqda. Mustaqillik yillarda O`zbekiston ganchkorlik san'ati azaliy an'analariga suyangan holda rivojlanmoqda. Hozirda ijod qilayotgan ustozlar maxalliy maktablardagi mavjud an'analarni asrab-avaylagan holda ijod qilayotganliklarini alohida ta'kidlab o`tish joyiz. 1990 yillar O`zbekiston yog`och o`ymakorligi va naqqoshlik san'ati tarixida yangi bosqich bo`ldi. Ushbu maktablarni asosan Toshkent, Farg`ona, Buxoro, Xiva maktablari tashkil etmoqda. Toshkent xotira maydoni, Samarqand Imom Buxoriy majmuasi, Oliy majlis binosi, Amir Temur muzeyi binosi, yog`och o`ymakorligi va naqqoshlik san'atining yorqin namunasidir. Umuman olganda xalq amaliy san'atining barcha turlari mustaqillik yillarida yangidan chiroy ochdi va jilolandi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashagan amaliy san'at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashxur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz, O'zbek amaliy bezak san'atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya'ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvoxi bo'lamiz.

O'lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvoxlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib, asrlar o'sha hozirgacha davom etib kelmoqda. Bizgacha ibtidoiy jamoa tuzumida ashyoviy dalillar -mexnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Tuproq ostida qolib ketgan tarixiy yodgorliklar odam va xayvonlar jasadining qoldiqlari, qor va yerto'la devorlariga chizilgan surat va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi. Paleolit davrida amaliy-dekorativ san'at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga extiyoj paydo bo'lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo'lmoqda. Odamlarning o'troq holga o'tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyg'ularini o'sishiga sabab bo'ldi. Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o'ziga xos naqqoshlik san'atini maydonga keltirdi. Naqqoshlik yangi tosh (neolit) asrida keng yoyildi, dekorativ-amaliy san'atning taraqqiy etishga ta'sir ko'rsatdi va yordam berdi. Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus oldi. Parallel, spiralsimon va to'lqinsimon chiziqlar, aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, xayvonlar va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib bordi. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira bordi. Masalan, rozetka-quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziq- harakat, suv ramzi va hokazo. Naqqoshlik san'ati endilikda dekorativ funksiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning g'oyaviy va falsafiy tushunchalarni ham ifodalay

boshladi. Bronza asrida O'rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlandi. Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go'zal bo'lishini ta'minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo'yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlagan sopol buyumlar diqqatga sazovordir. Temir asrida ham dekoartiv-amaliy san'at yetakchi o'rinni egallaydi. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozitsiyalardan foydalanish alohida rivojlangan. O'rta Osiyoning qadimgi davri san'ati va madaniyatini o'rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san'at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o'ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin, kumushdan ishlangan, kishilar extiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan, bo'rtma tasvir va haykallar bilan pardozlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga esa hayotiy voqealar aksi tushirilgan. Ana shu daliliy materiallar o'tmish san'ati va madaniyati, kishilarning estetik, badiiy qarashlarini bilishga xizmat qiladi. O'zbekiston hududida arxeologik qazilmalardan Xorazm, Sug'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqqoshlik san'atining rivojlanganligi ma'lum. Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I-asr) budda ibodatxonalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari buning yaqqol dalilidir. Eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda O'rta Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan "Amudaryo boyligi" (Oke boyligi) muhim o'rinni egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko'za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tangalar, oltindan yasalgan arava va qurollar diqqatga sazovordir. Buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnay (Aleksandr Makedonskiy) eramizdan avvalgi IV asrlarda Axmoniyalar davlatini tormor etib, O'rta Osiyo yerlarining ko'pgina qismini o'ziga qaratib oldi. Faqat Xorazm, Farg'ona va Sirdaryo bo'yidagi ko'chmanchi qabilalargina o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Amaliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizatsiya - ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lgan va hozirda jahonga mashhur me'morchilik

yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, tosh-taroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan va mujassamligidan dalolatdir. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy-axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi. Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, buyrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu soxalarda nom qozongan ustalarning hizmatlari butun jahonga dong'i ketgan. O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz ko'rgan muxtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar hozirgacha bizni hayratga solib kelmoqda. Naqsh arabcha tasvir, gul degan ma'noni bildirib, u qush, xayvonot, o'simlik dunyosi, geometrik va boshqa turli shakllarning ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir.

Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Naqqoshlik xalq-amaliy bezak san'atning bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim bo'lagi hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi va rivojlandi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, milliy an'analarning davomiyligini ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rganish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'gilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqqoshlik san'ati hozirgacha saqlanib kelmoqda. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy

fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof -muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chizgilar uyini musiqadagi ohang singari, qo'shiq va ertak kabi "xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan" tarkib topgandir. Badiiy naqqoshlik ranglarning uyg'unligida va o'ziga xos kompozitsiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh usta o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan va uyg'unligidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishadi. O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador arklarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islimi va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko'proq interyerlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi.

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksi xusn –jamolini dunyo memorchiligida nomoyon etib kelmoqda. Ayniqsa O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi, bilan farq qiladi.

Xozirgi kunda ganch syorquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muxofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalariga ko'rkamlik, go'zallik baxsh etib turibdi. Ganch o'ymakorlik san'ati asirlar davomida o'ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san'atning eng qadimgi o'rta asrlardagi va XX asrda rivojlanishni ko'zdan kechirib, o'rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o'ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. qadimgi ganch o'ymakorligi ham bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Varaxmadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan na'munalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, xayvonlar, baliqlarni, o'simliksimon va geometirik shakllarining o'yma namunalarni ko'rish mumkin. O'rta Osiyoni arablar bosib olgandan keyin islom dini xukmron bo'lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni taqiqladi. Buni O'rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko'rish mumkin. Xususan VII-VIII asrlardagi xukmronliklarning

Varaxmadagi saroylarda bu san`atning xilma-xil namunalari saqlangan. O`zbekistonda ganch o`ymakorlik san`ati ham juda qadimdan rivojlangan bo`lib hozirgi kunda ham o`ziga xos xususiyatlarini yo`qotmagan. O`zbekistonda xunarmandlar bo`limi 1918 yilda tashkil etilgan bo`lib uning asosiy maqsadi xunarmandchilik bo`yicha izlanishlar olib borish, iqtisodiy statistik malumotlarini qayta ishlab chiqish, ishlab chiqarishga tarqatish, maktablarda tashkil qilish o`quv ustaxonalarini tiklash, muzeylar xunarmandlar birlashmasini tashkil etish va boshqalar edi. 1918-1920 yillarda xunarmandlar uyushmasi Toshkentda o`lkashunoslik xunarmandlariga o`quv namunaviy ustaxonalar va xunarmandlar bo`yicha muzey tashkil etildi va ganch o`ymakorlar naqqoshlar, yog`och o`ymakor ustalar ajoyib ishlari bilan qatnashib ko`pchilikka manzur bo`ldilar. O`zbekiston xunarmandlari o`z ishlari bilan 1925 yilda Parijdan keyin Leyptsigda, 1927 yilda jaxon bo`yicha, 1937 yilda Parijda «San`at va texnika hozirgi kunda» degan ko`rgazmalarda «Gran pri», ikkita kumush medal' va bitta oltin medal' bilan mukofotlandilar. O`zbekistonlik ganchkor ustalar arxitektura yodgorliklarini; murakkab muqarnoslarni, nozik ganch o`yma ishlarini qayta tikladilar. Ular Minorai Kalon (XII asr), Magoki Attor masjidini, (XII asr), XVII asrda qurilgan SHerdor, XVII asrda qurilgan Abdulazizxon madrasasini va shunga o`xshash arxitektura yodgorliklariga qayta xayot baxshida etdilar. Bu murakkab ishlarda jumhuriyatimizdagi ganchkor ustalar o`z kuchi, quvvati va bilimini ayamadilar.

Ular Buxorolik ganch o`ymakorlar-Usta SHirin Murodov, SHoir Ibodov, Abduraxim Xayotov, Samarqandlik Rashid Jalilov, SHamsiddin /ofurov, Abdurashid Jalilov, Akram Umarov va bo`shqa ko`pgina kamtarin ganch o`ymakorlar o`z kuch va g`ayratlarini ayamadilar.

Toshkentda 1947 yilda me`mor A.Muxamadamin boshchiligida Kurant binosi qurildi bu qurilmani bezashda usta SHirin Murodov qatnashdi. U naqsh kompozitsiyalarini yuqori badiiylik bilan o`yib bajardi. Ganch o`ymakorlik ishlari butun bino arxitekturalariga juda mos tanlangan. Kurant binosining sharafa, ustunlari, panjaralari o`yma ganch bilan bezaldi. SHarafaning «Muqarnas» va «Iroqi» turlari bajarildi. Har bir panjaraga aloxida kompozitsiya chizilib



atroflariga moslab zanjir holkiya berildi. Hozirgi kunda ham Toshkent kuronti shaxarga aloxida chiroy bag`ishlab turibdi.1940 yilda teatr binosining qurilishi boshlanib 7-yilda bitkazildi. O`zbek mutafakir shoiri Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi atab xuddi shu kuni mutafakkirning nomi berildi. Teatr binosini zamonaviy estetik talablariga asoslanib o`zbek milliy an`analarini saqlagan xolda xalq xunarmand-ustalari bunyod etdilar. Teatrning bezak ishlariga barcha shaxarlardan ustalar, naqqoshlar, rassomlar, ganchkorlar, toshtrushlar va boshqalar kelishdi. Bezak ishlarida Akademik Jusaev eskizi bilan teatrning fasodi, (tashqi ko`rinish) eshikdan kiraverish joyi (foesi)va tomosha qilish zali (mexmoxonasi)ni T.Arlonqulov bajardi. O`zbekistondagi ganchkorlar ustalarini bir joyga yig`ib xar bir viloyatni o`ziga xos milliy uslubi asosida bezash, bezalgan xona teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushishi kerakligidagi haqidagi masalani qo`ydi.

Bu Xiva,Termiz,Samarqand,Buxoro,Farg`ona va Toshkent zallaridir. Bulardan Xiva vaTermiz zallari qadimda ishlatiladigan ganchkorlik uslubida bezatilgan. Buxoro, Toshkent, Farg`ona va Samarqant zallari esa zamonaviy xalq an`anasiga mos bo`lgan ganch o`ymakorligi bilan bezatilgan.

**Xiva zali.** Ganch o`ymakorlik ishlarini Xivalik ustalar S.Xudayberganov,K.Polvonov,B.Bobojonov,R.Masharipov va uning shogirdlari bajargan bo`lib qadimiy uslubda bezatilgan. Bezaklar asosan medal`yoon shaklida qilib o`yilib Xivadagi koshinga o`xshab ketadi. Bu o`yma uncha chuqur bo`lmay juda mayda o`yilgan xuddi yog`ochdan o`yilganga o`xshaydi.

**Termiz zali.** Bu zalning naqsh kompozitsiyalarni Usta SHirin Murodov Termiz usulida mo`njallab chizgan. O`yma ishlarini Usta SHirin Murodov, /. Ne`matov va boshqalar bajargan. XII asr Termiz saroyidagi ganch o`ymakorligini eslatadi.

**Farg`ona zali.** Ganch o`ymakorligi va naqsh kompozitsiyalarni quqonlik Sait Maxmud Norqo`zi bajargan. O`yma ishlariga Jalil Marasulov va ko`pincha Farg`ona ustalari qatnashgan. Farg`ona zalining shifti qovurg`ali qilib ganch o`ymakorligi kampazitsiyalari bilan bezatilgan. Bu Farg`ona vodisidagi an`anaviy badiiy uslubni anglatadi.

Samarqand zali. Ganch o`ymakorligi ishlarikompozitsiyalarini davlat mukofoti laurietiq.Jalilov va boshqalar bajargan.B zal sharafa kompozitsiyalarini,geometrik ornamentlarini,namoyon,ruta zanjira kompozitsiyalarining ajoyib namunalari ishlangan.SHiftga geometrik naqsh grif o`yilib oralariga o`yma ismli naqsh kompozitsiyalari bajarilgan.

**Buxoro zali.** Buzalning naqsh kompozitsiyalarini va o`ymalarini Usta SHirin Murod bajargan.U Buxorocha miliy va zamonaviy usulni qo`llagan. Uning oyna zaminli ganch o`ymakorligi xonani yanada keng qilib ko`rsatadi. Unda ajoyib va murakkab sharafalar,qandillar namoyonlar kishi diqqatini o`ziga tortadi. Keksa Usta SHirin Murod Buxoroliklarga xos «tabaqa pardozi» deb ataladigan murakkab uslubni bizgacha etkazib kelib Buxoro zalida oynai jaxon ko`rdi.U ajoyib qandil ishlab uyning shiftiga qubballi qilib muqarnas ishladi.

**Toshkent zali.** Toshkent zaliga Toshpo`lat Arslonqulov kompozitsiya chizdi. Guldasta, marafa,namoyon,rutalar yuqori rel`efli qilib bajarildi. Toshpo`lat Arslonqulov o`yma naqsh solish texnikasi, «muqarnas», «majnuntol», «choka pardozi», «zanjiri», «shoxbars» kabi uslublarini amalda qo`llab, taraqqiy ettirilishi bilan birga «chor burchak», «quvacha islami», «palak islami» kabi kompozitsiyalar bilan bezadi.1961 yil Alisher Navoiy nomidagi katta Akademik opera va balet teatrning ganch o`ymakorligi bezaklari qayta tiklandi.

Xorazm o`zining qadimiy yodgorliklari bilan joxonga mashxurdir. Xorazmdagi Islomxo`ja minorasi, Faxriddin Rozi maqbarasi, Juma maschiti va boshqa tarixiy obidalar O`rta asr SHarq me`morchilik san`atining go`zal namunalaridan biridir. Ular o`zining sodaligi va naqish motivlarining ulug`vorligi bilan dunyoga don taratgan.

Xivadagi tarixiy obidalarining har bir shaxar me`morchilik ansamblining tarkibiy qismi bo`lsa-da, amomo ularning har qaysisi o`ziga xos takrorlanmas san`at asaridir.

Juma masjidining naqishlari rang-barangligi bilan kishini qoyil qoldiradi, o`yma marmar plitalar,sirlangan g`ishtlardan terilgan naqshin devorlar,terakota

mozamkadan ishlangan shakllar tokchalar, devorlarga solingan tasvirlar o`zoro uyg`unlashib yaxlit badiiylik hosil qiladi.

Xorazmning badiiy arxitektura yodgorliklari XIX-XX asr boshlarida Xiva shaxrida bir joyda yaxlit xolda to`planib qolganini ko`ramiz. Xorazmning badiiy yodgorliklari XIX-XX asr boshlarida Xiva shaxridagi pishirib ishlangan naqshlarni ko`rsak o`ziga xos shakllardan iboratligi, naqshlarning o`ziga xos aylanma spiralsimon kompazision tuzilishiga egaligi hamda novdalarning juda nozik chizilishini, o`yilishi, iziqlarning bir-biri bilan kesib o`tganligi jim-jimadorligi bilan ajralib turadi. Xorazm san`atida gullarni spiralsimon tuzilishi juda qadimda qo`llanib kelganligini ko`rish mumkin. eramizdan oldingi III asrlarda qurilgan Tuproqqal`a saroyi xonalaridagi bezaklarda ko`rish mumkin.

XIX asrda Xorazm spiralsimon tuzilishdagi naqshlar bilan yodgorliklar bezatilgan. Xorazm me`morchilikning manzarali bezaklarida geometrik naqsh keng o`rin olgan bo`lib, O`zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda o`ziga xosligiga ega. Lekin ular juda kam farq qiladi. Ayniqsa, o`simliksimon naqshlar spiral shaklida aylanma harakatchanligi, dinamikligi bilan farq qiladi. Xorazmda «madoxil», «turunj», «qalampir» ,shaklidagi naqsh kompazitsiyalari va boshqalar keng o`rin olgan. Xorazm ganch o`ymakorligining naqsh kompazitsiyasi so`zanani eslatadi. Sirli koshin naqshlariga qaraganda ganch o`ymakorlik, yog`och o`ymakorlik Xorazmda uncha rivoj topmagan bo`lsada lekin o`ziga xos xususiyatlari bilan boshqa shaxarlarda o`yilgan naqishlardan farq qiladi. Ganch o`ymakor ustalar ko`p bo`lsa-da, lekin ba`zilari o`ymaga moslab naqsh kompazitsiyasi chiza olmas edilar. Shuning uchun ular maxsus naqsh chizib beruvchilarga murojat qilar edilar.

Girix kompazitsiyasi chizib beruvchi ustani girixkor usta deb yuritar edilar. Bunday Xorazm ustalaridan Xudaybergan Povlonov, eshmuxamad xudayberdiev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzayevlar, Xojiniyoz Saidniyozov, Matyoqub Joshebekov, Xudaybergan Matchanov va boshqalar bor edi.

Xivalik qadimiy ganch o`ymakor ustalar faqat ganch o`yish, naqish chizishni bilibgina qolmay, balki ular musiqa, shariatni, tarixni yaxshi bilganlar va nixoyat

madrasada o`qiganlar. Bunday ustalarni xaqiyqiy ganch o`ymakor usta xisoblaganlar.

Ular musiqa asboblarida chalishni, talim olgan va ko`p yillab amaliy ishlar qilganlar.

Xorazm ganch o`ymakorligi san`ati tobora yuksalib bormoqda. Hozir Xorazmda qurilayotgan ko`p qavatli salobatli binolar ganch naqishlari bilan bezalmoqda. Ganchkorlik sanatini ajoyib namunalarini muzeylarda, ko`rgazmali xonalarda, maishiy binolarda, kofe, restoran, zavod, fabrika, teatr hattoki turar joylarda ham uchraydi

### **1.2 Amaliy san`atning turlari va o`ziga xosligi**

O`zbekistonning barcha hududlarida xalq san`atining o`ziga xos markazlari bo`lib, ular jahon madaniyatiga buyuk badiiy qadriyatlari bilan hissa ko`shgan. Bu qadriyatlar haqli ravishda xalq, san`atining ramzi bo`lib qoldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg`ona vodiysi, Xorazm va Qoraqalpog`istonda yuzaga kelgan kulolchilik (sirkor va guldor sopol buyumlar), yog`och va ganch o`ymakorligi, naqshinkor bezak va kandakorlik, kashtachilik, gilamdo`zlik, sholchado`zlik va chitgarlik, zargarlik san`ati, charmga bezak tushirish san`ati, lokli miniatyura hamda kitob miniatyurasi hozir ham mavjud. Zangori-lojuvard, cho`g`dek qip-qizil sopol ko`zalar, laganlar, yog`ochdan o`ymakori va naqshinkori qilib yasalgan milliy xontaxtalar, qo`lda to`qilgan gilamlar, miniatyuralar, marg`ilonlik, xivalik va toshkentlik ustalar tomonidan qizil misdan yoki tillarang jezdan yasalgan, qimmatbaho metalldek yarqirab, shaklan nafisligi hamda naqshinkorligi bilan ajralib turuvchi buyumlar va, ayniqsa, kandakori idishlar mehmon bo`lib kelgan xorijiy davlatlar boshliqlariga tortiq qilingan, Ustalarimiz yaratgan nodir buyumlar AQSH davlat kotibi Xillari Klinton xonimga, «Temir xonim» Margaret Tetcherga, Indira va Radjiv Gandilarga, Yaponiya imperatoriga, jahondagi ko`plab mamlakatlar muzeylariga tuhfa qilingan va ular tomonidan ardoqlab saqlanmoqda.

«Musavvir» xalq san`ati ilmiy-ishlab chiqarish markazi, «Nigoriston» Respublika xalq san`ati firmasi mutaxassislarining ko`p yillik g`ayrat-shijoati

natijasida O'zbekiston ko'hna san'atining o'ttizdan ziyod turining siri qayta aniqlandi, mingdan ortiq iste'dodli yoshlarga ushbu ko'hna hunar o'gatildi. Shoyi, paxta, tut po'stlog'idan qadimgi Samarqand shohi qog'ozini tayyorlash, xilma-xil adras, olacha mato va shu kabi shoyi matolarni qo'lda to'qish, qog'ozga, shoyiga, charmga miniatyura chizish, ip-gazlamaga gul bosish usuli qayta tiklandi. Unutilgan kandakorlik san'ati, milliy zargarlik buyumlarini tayyorlash qayta rivojlantirildi. Tukuvchilikda, kulolchilikda, shisha hamda sirkorlik bilan bog'liq sohalarda foydalaniladigan pishiq-puxta bo'yoqlarni mahalliy resurslardan tayyorlash tex- nologiyasi xam aniqlandi.

Amaliy bezak san'atiga bag'ishlangan ushbu va keyingi al'bomlarda O'zbekistondagi barcha asosiy milliy san'at markazlari: G'urumsaroy va Rishtonda, Qo'qon va Andijonda, Samarqand va Shaxrisabzda, Denov va Urgutda, Xonqa va Nukusda, Buxoro va Toshkentda, Zomin va Baxmalda ishlab turgan xalq ustalarining asarlari haqida gap boradi. Mazkur markazlarning barchasida qadimgi ustalarning an'analari avaylab saqlanmoqda va ijodiy rivojlantirilmoqda.

Bu an'analardan yangi vazifalarni hal qilish yo'lida foydalanish O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati rivojlanishining muqarrar shartidir. Ushbu san'atda ham xalq xarakterining nozik xususiyatlari, uning estetik qarashlari, dini, atrof-muhitga munosabati, iste'dodi xuddi afsonalardagi, musiqa, she'riyat va raqsdagi singari o'z aksini topgan.

O'zbekistonda amaliy san'atning juda keng yoyilgan turi kulolchilik san'atidir. Bu san'at ildizi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologlar tomonidan respublika hududida topilgan sopol buyumlar qadimgi ustalarning dahosidan hamda shaklning sarmazmun va lo'ndaligidan dalolat beradi. Bular — sopol laganlar, likopcha va piyola, kosalar, ko'zalar, xumchalar, shaklan xilma-xil idishlar va boshqalar. Aholi va mehmonlarda ularga ehtiyoj avval ham katta bo'lgan, hozir ham katta. Bu buyumlar shaklan go'zal, naqshinkor, bir me'yorda rang berib, yuksak iste'dod va did bilan yasalgan hamda san'at darajasiga etkazilgan.

O'zbek keramikasi ikki turga: sirkor va sopol keramikaga bo'linadi. Hozirgi kunda keramika markazlari respublikaning Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, G'ijduvon, Rishton, Qo'qon, G'urumsaroy, Kasbi, Uba, Denov, Madir, Yangi-ariq kabi shaharlarida joylashgan. Farg'ona vodiysi va Xorazm sopol buyumlari ko'k-oq-yashil ranglarda tovlansa, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent, Buxoro sopoli jigarrang-sariq tusda tovlanadi.

Naqshinkor bezaklarning qo'llanilishi va talqinida an'analarning rang-barangligi namoyon bo'ladi. Kulollar buyum yasashar ekan, naqshinkor rasm, rang va shaklning murakkab nisbatini nozik his etishadi. Buni mashhur kulol ustalardan A. Muzaffarov, M. Obloqulov, R. Matchonov, I. Komilov, X. Sotimov, M. Rahimovning muzey to'plamlarida saqlanayotgan asarlarida yaqqol ko'rish mumkin.

Rishton va G'urumsaroy kulollarining ijodi nozik islmiy naqsh bilan ajralib turadi. Shu naqsh uzra ro'zgor buyumlari va atrof muhit elementlari — ko'za, pichoq, anor va bodom mevalari tasviri tushiriladi. Xorazmning ko'k-oq-yashil rangli sopoli me'moriy qoplama keramika (mayolika) bilan bezatiladi. Unda ko'k yoki yashil fondagi oq chirmoviq tasvirlanadi. Islmiy naqsh handasaviy shakllar bilan hoshiyalanadi.

Toshkent, Buxoro va Samarqand keramikasi alohida ranglari va bezash usullari bilan ajralib turadi. Unda nuqtali va sariq-yashil rangdagi bezak islmiy naqsh bilan yo'g'rilib ketadi. Idishlarda anor mevasi, tovus patisimon gullab turgan shoxchalar tasvirlanadi. Xalq ustalari mo'yqalamda naqsh chizish bilan birga o'yima, kesma hamda bosma naqshdan ham foydalanishgan va hozir ham foydalanib kelishmoqda.

O'zbekistonda mayda dekorativ sopol plastikani Uba, Kasbi, Samarqand kulollari tomonidan ertaklar olamidan olib yasalgan an'anaviy o'yinchoklarda ko'rish mumkin. Hamro Rahimova va Anbar Sattorova yaratgan g'aroyib hushtaklar, fantastik fillar, Abduraim Muxtorov va Vohid Ilhomov yasagan, lirik yumor va mug'ombirona tabassum bilan yo'g'rilgan haykalchalar xalqning yorqin va quvnoq bezakka xamda fantaziyaga mehri balandligidan dalolat

beradi.

O'zbekiston xalq san'atida me'moriy badiiy naqsh san'ati muhim o'rin tutadi. San'atning bu qadimgi turi O'rta Osiyo me'morchiligi xususiyatlari, naqshga mehr va mahalliy qurilish materiallari taqozosi bilan yuzaga kelgan.

Yurtimizda me'morchilik qadim-qadimdan yuqori darajada rivojlangan. Bunga tarixiy obidalarimiz masjidlar, maqbaralarni misol qilishimiz mumkin. Bu imoratlarda ota-bobolarimizning didi, dunyoqarashi, bilim saviyasi, qurilish madaniyati nechog'lik yuksak saviyada ekanligi ko'rinib turibdi. O'zbek diyorida bobokalonlarimiz yaratgan barkamol teran mazmunli va tarixan bebaxo san'at asarlari jahon madaniyati durdonalari qatorida o'rin olgan. Qo'li gul ustalar yaratgan san'at durdonalari kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi. Yodgorliklarda quyosh nurida tovlanayotgan sarkor koshinlar nafis naqsh-nigorlar beixtiyor kishilarni o'ziga maftun etadi. Bu naqsh-nigorlar bir necha asrlar oldin yaratilgan bo'lsa-da hozirgacha o'z nafosatini ko'rkini yuqotgani yo'q. Bunga biz Samarqanddagi me'moriy obidalarni keltirishimiz mumkin. Tosh, sopol, materiallarda o'z aksini topgan oddiy xalq tomonidan kashf etib yaratilgan bu manumental binolar o'zining bejirimligi va mahobatligi bilan kishilarni hayratga solmoqda. Bularni yaratgan ustalar o'z bilimi yuksak mahoratlari evaziga shundan o'lmas asarlarni yaratib toshlarga muhrladilarkim, ular hozirda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q.

V. Gyugo aytganday, "Odamzod ongida paydo bo'lgan eng ahamiyatli fikrlarni toshga bitib ifodalaydi, chunki qog'ozga bitilgan qo'lyozmalarda har qanday buyuk g'oyalar bo'lmasin ular vaqt o'tishi bilan yo'qolishi mumkin, lekin qurilgan bino-bu toshda ifodalangan boshqaga bir kitob bo'lib, u bir umr chidamlidir<sup>1</sup>". Hozirda bu nodir yodgorliklarga hurmat uni avaylab asrash ta'mirta'lab jaylarini ta'mirlab restavratsiya qilishdan iborat. Yodgorliklar davlat qaramida. Mana O'zbekistonimiz mustaqillikka erishgandan beri rassomchilikga, amaliy bezaklarga naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi va boshqa san'at turlariga keng yo'l ochib bermoqda. Bu soha vakillariga turli sharoitlar mukofotlar rag'batlar ta'sis etilmoqda. Prezidentimiz ham hunar

egallagan yoshlarga shu san'at rassomchilik a'zolariga ham yordam berib ularni quvvatlamodalar.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: Badiiy Akademiya tashkil etish munosabati bilan ma'daniy ishlar vazirligi qoshidagi amliy san'at, rassomchilik, dizayn sohadaridagi tashkilot va korxonalar negizida maxsus ishlab chiqarish birlashmasi tuzilsin.”

“Tasviriy va amaliy bezak xalq hunarmandchilik sohasidagi yuksak badiiy asarlar yaratgan ijodkorlar mehnatiga munosib baho berish ularning moddiy va ma'naviy rag'batlantirish maqsadida eng yaxshi asarlar uchun beriladigan Kamoliddin Behzod nomidagi davlat mukofoti ta'sis etilsin”.<sup>2</sup>

Mana shunday yuksak mukofotlar ta'sis etilgan bo'lib ustalar nafaqat qaysi sohada mehnat qilayotgan san'at arboblari e'tibor hurmat ko'rsatilmoqda. Jumladan biz milliy hunarmandchiligimizni necha yillardan beri davom etib kelayotgan avloddan-avoldga ota kasbi sifatida shakllanib kelayotgan hunarmandchilik, ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, g'ishtkorlik va bir qancha turlari bor. Bu kasblar juda qadimdan otabobolarimiz shug'ullangan bu kasblar juda sermashaqqatligiga, nafisligi, juda ko'p vaqt sarf bo'lishi bilan boshqa kasblardan ajralib turadi.

Bunday mayda ishlarni xam xamma bajaravermaydi chunki bu kasb kishidan sabr, chidam va matonatni talab qiladi. Qadimiy san'atlardan yana biri amaliy bezak san'atidir. “Amaliy bezak san'ati juda qadimiy bo'lib kishilarning mehnat faoliyatlari extiyojlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan deb taxmin qilinadi”<sup>3</sup>. Uyg'onish davrigacha u uy hunari shaklida keyin xalq badiiy hunarmandchiligi tariqasida shakllanadi. Amaliy bezak san'ati hozirda ham rivojlanib har xil maktablari bor. Naqqoshlik, ganchkorlik, koshinkorlik, yog'och o'ymakorligi, g'ishtkorlik va boshqalar.

Bu esa o'z davri obidalarning qurilishi va bezalishida foydalanilgan. Unga davrning ustalari o'z ishining fidoyisi va o'z ishini juda bilgan buni biz yodgorliklar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bobokalonlarimiz Amir Temur o'z davrida buyuk madrasalar, xonaqohlar, saroylar, qo'niqlar, bog'u-



rog'lar qurdirgan. Albatta bunda ustalardan, koshinkor naqshkor va o'z ishining fidoyilarini to'plab ish bajarganlar. Bu esa qancha kuch mehnat, vaqtni talab etgan. Amir Temur ustalarni o'zi shaxsan bajarayongan ishlarini nazorat qilib turgan. Bu esa yaxshi natijalarni bergan. Ustalar ham o'z ishlarini sitqidildan bajarganlar. Biz bilamizki bizgacha ko'pgina yodgorliklar etib kelgan. Ulardan, registon ansambili, Shoxizinda, Go'ri Amir makbarasi, Bibixonim masjidi, Hazrati Xizir masjidi, Bixoroda Somoniylar maqbarasi va Shaxrisobzdagi Oqsaroy kompleksi va boshqalar.

Ganch (gips) va yog'och o'ymakorligi hamda bezagi turar joy ichini bezashda doimo qo'llangan. Bu san'at hozirgi kunda ham binolarning zamonaviy me'moriy konstruksiyasi hamda detallari uzviy va funksional jihatdan t to'ldirib kelmoqda, ma'muriy hamda jamoat binolarini bezashda muvaffaqiyat bilan ishga solinmoqda. Ayni mahalda xalq ustalari O'zbekiston dekorativ-naqsh san'ati an'analoriga xos betakror uyg'unlikka erishgan holda, zamonaviy arxitekturaning qat'iy va konstruktiv elementlarini buzishmaydi. Ustalar naqshinkor kompozitsiyaning, bir tekis to'qilgan jimjimador medal'onlar, handasaviy to'r, gullab turgan butoqlar, o'ziga xos milliy ohang to'la vazonlar bilan to'ldirilgan nafis namoyonlarning ko'plab variantlarini tayyorlashadi, biroq bunda me'yorni buzishmaydi.

Qo'qonlik Qodirjon Haydarov, toshkentlik Saidazim Qosimov va Nigmat Ibrohimovlar XX asrda O'zbekistonda yog'och o'ymakorligida dong taratgan naqqoshlar hisoblanadilar. Hozirgi kunda yog'och o'ymakorligi zamonaviy me'morchilikning ommalashib ketgan bezagi va o'zbek amaliy bezak san'atining gurkirab rivojlanayotgan turiga kiradi. Iste'dodli va salohiyatli yosh ustalar Ortiq Fayzullaev rahbarligida inshootlar uchun me'moriy detallarni — shift to'sinlari, muqarnaslar, karnizlar, eshiklar, ustunlarni va shu kabilarni yaratish bilangina chegaralanishmayapti. Ular O'zbekiston aholisi mehmonlari uchun nakqshinkor qutilar, qalamdonlar, lavhdar, turli ko'rinishdagi kursi hamda kursichalar ham yasashmoqda.

XX asrda yog'och va ganchni nakqshinkor bezash bilan ustoz

naqqoshlardan Yoqubjon Raupov, Toir To'xtaxujayev, Jalil Hakimov, Madamin Husanov, Saidmahmud Norqo'ziev shug'ullanishgan. Ular yangi naqshinkor bezak maktabini yaratishgan.

Bu ustalarning shogirdlari Anvar Ilhomov, Sobirjon Shukurov, Baxtiyor Rahmonberdiyev, Nosir Nabiev, Jamolitdin Erkaboev, Abdusamat Mahmudovlar ustozlarining jamoat, ma'muriy va turar joy binolarini bezash bo'yicha an'analarini ham davom ettirib, rivojlantirishdi. Naqshinkor-bezakli buyumlar — ko'p qirrali naqshinkor kursilar, o'rindiqlar, qutilar, pardalar, ko'zalar ko'rgazma, muzey, badiiy salonlar hamda yarmarkalarga kelganlarning ko'zini quvontiradi.

Zamonaviy intererni bezashda milliy uslubdagi ganch o'ymakorligi katta o'rin tutadi. Uning bisotida jimjimador islamiy handasaviy bezaklar ham bor. O'zbek ustalarining ganch o'ymakorligi san'atida hajmdor muqarnasli karnizlar (sharafa)ni murakkab handasaviy uslubda tayyorlash hamda nafis panjara naqshlar alohida soha bo'lib, ular quyma usulda, qo'lda pardozlab tayyorlanadi.

O'zbekistonda Termiz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va Farg'ona ganch o'makorligi maktablari mavjud. Ularning har biri o'z o'ymakorlik uslubi bilan farqdanib turadi. Sovuq oppoq ganchga ustalar iskanasi jon ato etib, uni xayolot, ohang, bezak hamda harakat bilan mujiza yaratadi.

Taniqli ganchkor ustalar Mahmud Usmonov, Ibrohim Shermuhamedov, Anvar Quliev, Jamolitdin Erkaboev, Odamboy Yoqubov, Odamboy Bobojonovlar iste'dodli yosh ustalarga xalq san'atining ushbu ko'hna turini o'rgatishdi. Endilikda bu shogirdlar ganch o'ymakorligi an'analarini davom ettirishmoqda.

O'rta Osiyoda toshqog'oz yoki mag'zi soxta (pape-mashe) tayyorlash va undan tayyorlangan anjomlarga loklangan bezak berish XV asr boshida ravnaq topgan edi. Samarqanddagi Go'ri Amir majmuasi va jome masjidi ichki qoplamasidagi toshqoroqdan ishlangan muqarnas va iroqilar shu san'at namunalaridir. Ushbu materialdan tayyorlangan qalamdonlar, kitob jild (muqova)lari, qutilar, ko'zachalar, shohmotlar hamda zargarona nafis naqsh

bilan ziynatlangan boshqa mayda buyumlar asrlar osha bizgacha etib kelib, hozir respublika muzeylarida avaylab saqdanmoqda.

O'rta Osiyodagi ko'plab xalqlarda qovoq (kadi)ning dekorativ turlaridan xilma-xil buyumlar, idishlar, nosqovoqdar tayyorlab kelingan. Qovoqning dekorativ turlari maxsus yetishtiriladi. Uning sirti o'ziga xos tarzda badiiy bezatiladi. Qovoqni qanday bezatish uning shakliga bog'liq. Qovoqning turfa xil shakllari mavjud bo'lib, ularning naqsh berilgan sirtiga folklor mavzusidagi, fantastik mavjudotlar hamda voqelik elementlaridan iborat har qanday rasm konturi chiziladi. Unda odam, hayvon qiyofasi, uy-ro'zgor buyumi, o'simliklar, parrandalar, samolyotlar, avtomobillar, yulduzlar, sanalar aks ettirilishi mumkin. Nosqovoqdar, ayniqsa, naqshinkor kumush gardish bilan yarimqimmatbaho toshlar qadab bezatiladi. San'atning bu turi mayda qovoq (nosqovoq) yetishtirishga mirishkor hududlarda ko'proq tarqalgan.

Milliy pichoqchilik O'zbekiston amaliy san'atida metallga badiiy ishlov berishning o'ziga xos sohasidir. Pichoq charm applikatsiya va kandakori metall qoplama bilan bezatilgan qinga solinadigan qilib tayyorlanadi. Pichoqdar, tayyorlanadigan joyning mahalliy xususiyati va pichoqchilik maktablari an'alariga ko'ra, shaklan rang-barang bo'ladi. Pichoqchi ustalar pichoqni damidan tortib, yaxlit yoki yig'ma metall, yog'och yoxud suyakdan tayyorlangan sopi (dastasi)gacha qadama, chekma yo bo'yama naqsh bilan bezatishadi.

O'zbekiston milliy kashtachiligi uy-joy ichki ziynatini, me'moriy bezak bilan bir qatorda, o'ziga xos tarzda to'ldiradi. Ko'plab asrlar davomida Buxoro, Urgut, Farg'ona, Qo'qon, Andijon, Samarqand, Toshkent, Namangan, Piskentda kashtachilikning mahalliy badiiy uslubi va yirik markazlari yuzaga kelgan. Kashtachilar katta matoga o'zlari chizgan naqshinkor kompozitsiyani igna bilan tikib chiqish uchun ko'p vaqt va mehnat sarflashadi. Kashtada naqsh tabiat va atrof dunyo go'zalligining poetik in'ikosidir. Yirik dekorativ buyumlar-so'zana, palak, gulko'rpa, joypo'sh (taxmon parda), tokchapo'sh, kirpech, zardevor, joynamoz, ro'yjo va boshqalar doyra, to'pbarggul (naqshi girdob), nozik-nihol gul, yaproqlar, qushlar, hayvonlar tasviri bilan naqshlanadi. Qo'lda tikiladigan

dekorativ kashtachilik an'analari Urgut, Qo'qon, Buxoro, Toshkent va Qoraqalpoq, kashtachilari ijodida yashab, rivojlanib kelmoqda.

O'zbek milliy kashtachiligi amaliy sa'natining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida paydo bo'lib, kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari tomonidan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabi buyumlar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi Xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning barcha viloyatlarida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy eksponatga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan, XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini bilish mumkin.

Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan. «Temur taxti» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan.

XX asrning II yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashta buyumlarining ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar solsak, unda Hind, Xitoy, Rus, Afg'on, Qozoq, Qirg'iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz.

### **Kashta buyumlari.**



So'zana- forscha so'zdan olingan bo'lib, igna bilan tikilgan degan ma'noni bildiradi.

Palak- devorga osiladigan bezak buyumi bo'lib, naqshlari oy ko'rinishida aylanasimon bo'ladi.

Zardevor-uyning tepa qismiga osiladigan kashta buyumi bo'lib, balandligi 60 sm, uzunligi uyning o'lchamiga mos qilib olinadi.


Choyshab- forscha so'z bo'lib ,tun chodiri degan ma'noni bildiradi.

Joynamoz- bir tomoniga mehrob shakli kashtada tikilgan bo'ladi.




Yostiqqosh- eni 30sm ,uzunligi 60sm gazlamaga naqsh tushurilib tikiladigan bezak buyumi.

Qiyiqcha- belbog' erkaklar beliga bog'lanadigan ro'mol.



### Kashta tikishda bosqichlari



Kashta tikish asboblari va moslamalari



Qo`lda kashta tikish uchun o`ziga xos asboblari bo`ladi. Kashtachilikda ignalar, angishvona, qaychi, santimetr lenta, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar hamda chambarak ishlatiladi.

Kashtachilikda oq, kulrang, och sariq, och mallarangli surp, bo`z, shoyi, baxmal, chit yoki satin kabi matolar ishlatiladi. Bunday matolarda naqshlar chizilganda yaxshi ko`rinadi, rangli iplarning aksariyati unga mos tushadi.

Gul, rasm, naqshlar chizish uchun chizg`ichlar, yumshoq va qattiq qalamlar, daftar, al`bom, o`chirg`ich, millimetrlangan qog`oz, nusxa ko`chiradigan qog`oz va shaffof qog`ozlarkerak bo`ladi.

Chambarak gazlamani tarang tortib turish uchun ishlatiladi. 20-40 smli ikkita gardishdan iborat bo`lib, bir- birini ichiga tushib turadi. Agar kichik gardish katta gardish ichiga qiyin tushadigan bo`lsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak.

U juda kichik bo`lib, katta gardishdan tushib ketadigan bo`lsa, atrofiga yupqa gazlama o`rab qo`yish mumkin.



### **Kashta tikish chambaraklari**

Kashta tikish uchun cho`ziqroq ko`zli kalta (1 va 2 tartibli) ignalar tanlanadi. Ignaning ko`zi katta bo`lsa, bir necha qavat ipni o`tkazish oson bo`ladi. Bunday ignalar sanama va oddiy choklarni tikishda, hamda ipni sanash va ajratib olish uchun qulay. Jun ipni ignaga o`tkazish qiyin. Bu ipni o`tkazish uchun ignalar komplektidagi ip o`tkazgichdan foydalanish mumkin. Uni bir qatim ipak yoki ingichka g`altak ip bilan o`tkazsa ham bo`ladi.

Ipakni ikki qavat qilib, hosil bo`lgan petlya ichiga jun ipi uchun kiritiladi, ipakning ikkala uchini igna ko`zidan o`tkazib, jun ip bilan birga tortib olinadi. Zich va yupqa (markizet, shoyi, batis, shifon) gazlamaga kashta tikishda, ko`zi kichik, ingichka igna kerak bo`ladi. Yo`g`on igna sanchilgan joylarda teshik qoladi. Katta ko`zda esa ingichka ipni yaxshi tutib bo`lmaydi. Buyumlarni biriktirib ko`klash uchun 1 va 3 tartibli ignalar ishlatish qulayroq.

Kashtani chambaraksiz tikishda, bir necha qavat gazlamaga igna sanchishda, buyumlar chetini buklab tikishda ignani gazlamadan o`tkazish uchun angishvona kerak bo`ladi. Angishvona- forscha angusht, ya'ni barmoq, vona, bona saqllovchi degan ma'noni bildiradi. Qo`lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa qo`yiladigan metall g`ilof. Angishvonaning usti va yoni ignani qadashda toyib ketmasligi uchun chuqurchalar qilib tayyorlanadi. Angishvona o`ng qo`lning o`rta barmog`iga taqiladi, uni barmoqning yo`g`onligiga qarab tanlanadi, lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qoladigan bo`lmasligi kerak. Naqshlar uchun o`tkir uchi 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Ishlash uchun uch xil uchi ingichka kichkina qaychi gazlamadagi ipni qirqish va tortib olib tashlash uchun; uchi qayrilgan o`rtacha kattalikdagi qaychi-kashta tikayotganda ip uchini qirqish uchun; katta qaychi gazlama kalava iplarini qirqish uchun. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig`larining uchi to`la yopiladigan bo`lishi kerak.

Santimetrli lenta tikish ishlarida buyum o`lchamlarini aniqlash, gazlamaga bezakni rejalash, tikish ishlarini bajarishda foydalaniladi. Kashtachilikda yog`och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli- ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Kashta tikishda ilmoqli bigiz ayrim materiallarga, masalan, charm, kartonga ninani qiynalmay o`tkazish uchun, oldin ilmoqsiz bigiz bilan teshib olinadi, so`ngra kashta tikiladi. Millimetrli qog`oz-naqshlar, ayniqsa geometrik, sanama naqshlar tuzish kerak bo`ladi.

Kashta gulni gazlamaga ko`chirishga tayyorlashda shaffof qog`oz ishlatiladi. Naqsh avval shaffof qog`ozga ko`chiriladi, keyin qog`ozdan gazlamaga ko`chiriladi. Kashta gulni gazlamaga ko`chirish uchun nusxa ko`chiradigan (kopirovka) qog`ozi ishlatiladi.



O`zbek kashtalarida o`simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko`p bo`lsa, rus kashtachiligida geometrik, o`simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko`p tasvirlanadi, qozoq va qirg`iz kashtachiligida esa ko`proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozitsiyaga aylantiriladi. Naqsh bilan amaliy san'at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo`lib, o`sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tikilishiga butunlay bog`liq bo`ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi. O`simlik, qush motivlarini aniq ko`rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlarigina bo`rttirib kontur qilib chiziladi.

Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy yechimini o`ylab ko`rish, bezakning undagi ayrim bo`laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko`proq ritmg-naqshdagi alohida elementlarga bog`liq bo`lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo`lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi.


Kompozitsiya (mujassamot) - lotincha "Kompositio" so`zidan olingan bo`lib, to`qish, tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g`oyasi, xarakteri va vazifasiga muvofiq uyg`un hamda mutanosib joylashtirish degan ma'noni anglatadi. Ritm-naqsh kompozitsiyasining ma'lum bir qismi ma'lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bo`lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go`zal ko`rinishini ta'minlaydi. Simmetriya-grekcha so`zdan olingan bo`lib, o`lchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.

Bezakning simmetrik tuzilishi. Assimetriya-kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini buzilishidir.

Stilizatsiya-tabiatdagi o`simlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va uzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir. Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va hokazolar) dan shuningdek, to`lqinsimon, siniq chiziqlar, spirallardan, o`simliklar (barglar, shoxlar, daraxtlar)

dan, jonivorlar dunyosi (hasharotlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar) tasviridan foydalanish mumkin. Naqshda geometrik shakllar bilan tabiatdagi o`simliklar qo`shilgan bo`ladi.

Kashta bezaklariga simmetrik, ya'ni asosiy chiziqlar, shakllar, ranglarning gorizontal yoki vertikal simmetriya o`qiga nisbatan qonuniy joylanishi xarakterlidir. Gul bitta, shuningdek, ikkita yoki bir necha simmetriya o`qiga nisbatan tuzilishi



.mumkin.  
tuzilishi

Bezakning summetrik

Kashtada gul ko`pincha yopiq yuzada, ya'ni qandaydir geometrik shakl bilan chegaralangan yuzada tuziladi. Bu kvadrat yoki to`g`ri to`rtburchak shaklidagi dasturxon, so`zana, palak, zardevor, kirpech, choyshab, belbog`, yostiqlik ustiga yopiladigan jildi, dastro`mol va hokazolar bo`lishi mumkin. Buyum shakliga va kashtado`zning mo`ljaliga qarab kashta gulning shakli va joy o`zgarishi, masalan, dasturxon, dastro`mollarning burchaklariga yoki o`rtasiga kashta tikilishi mumkin. Burchakdagi kashta gullarining tuzilishi har xil bo`ladi. Bezakda bargli va gulli novdalar burchakdan chap va o`ng tomonga yo`nalgan. Hamma bezaklarda aytilgan o`simliklarga o`xshashlik saqlanib, gul va barglari yangi shaklga kiradi. Kashta uchun xalq orasida tarqalgan bezaklar va rassomlar yaratgan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Rasmlarning ba'zi qismlarini ixtiyoriy ravishda kompozitsiyalash ham mumkin, lekin tabiatni kuzatib, bezaklarni buyum yuzasiga joylashtirishni ham o`ylab topish yanada qiziqarliroqdir.

Gilamdo'zlik va sholchado'zlik O'zbekistonda to'qimachilikning eng qadimgi turlaridan biridir. Ular uch turga — qisqa patli gilam, uzun patli gilam — julxirs va taqir gilam (sholcha)ga bo'linadi. To'qimachilikning bu turida yigirilgan jun, paxta ip va ipak ishlatiladi. Qisqa patli gilam Farg'ona vodiysida, Qashqadaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqalpog'istonda to'qiladi. Bunday gilamda qizil-jigarrang o'zaro uyg'unlikda beriladi, handasaviy va islimiy shakldagi rangdor detallar bilan bezatiladi. Bu gilamlar oddiyligi hamda ranglar tiniqligi bilan ajralib turadi.

Julxirs (tojikcha ayiq juni) gilamlar ko'proq Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida tarqalgan. Ular naqshiga ko'ra juda sodda, ranglar uyg'unligiga ko'ra ko'zga tashlanuvchandir. Ayollar gilam tuo'qishni tugallar ekanlar, ishni oxiriga etkazmay, uning qayerinidir chala qoldiradilar. Bu ko'hna an'ana bizning kunlarga yetib kelgan bo'lib, aytishlaricha, gilamdo'z ayollar keyingi ish avvalgisidan yaxshiroq chiqsin, degan niyatda shunday qilar ekanlar. O'zbekistonda to'qiladigan taqir gilam turi va ijro texnikasiga ko'ra rang-barang. Taqir gilamning ko'xma, terma, gajari, arabi, beshkashta va boshqa turlari mavjud.

Naqsh tarixi insoniyatning badiiy madaniyati bilan bir qatorda nihoyatda qadimiydir. Hali yozuv vujudga kelmasdan burun chizmatasvir yozuv vazifasini bajargan. Madaniyat rivoji jarayonida unda rassomlik bilan naqqoshlik ajralib chiqqan. Arxeologik manbalar ham naqsh dunyoning hamma xalqlarida qadimdan mavjud bolganligidan dalolat beradi. Metal, sopol buyum, idish, qurollar, paleolit, neolit davrlarida geometric (xandasaviy) shakllar bilan, Miken san'atida, Qadimgi Eronda, Xitoy va Hindistonda geometric shakllar qatorida o'simliksimon (islimiy) naqshlar bilan bezatilgan. Naqshlardagi ramziy elementlar turli o'lkalarda, xalqlardagi geografik muhit, o'lkaning o'simlik va hayvonot dunyosi, madaniyati ta'sirida shakllangan va rivoj topgan.

Naqshning eng jozibadorligi va yuksak pog'onaga ko'tarilishi uyg'onish davriga to'g'ri keladi. XIX asrning oxiridan boshlab shu davrda vujudga kelgan

turli oqimlar naqshdan foydalanishni o'ta kamaytirib, hatto keyinchalik butunlay undan voz kechish kuzatildi.

Naqsh chizish, naqsh yaratish – naqqoshlik xalq amaliy bezak san'atining asosiy va qadimiy turlaridan biridir. O'rta osiyo hududidagi me'moriy yodgorliklar, arxeologik topilmalar o'lkamizda bu san'at qadimdan rivojlanganligidan darak beradi. Me'morchilik, kulollik, misgarlik, zargarlik, chilangarlik, kashtado'zlik singari kasblarning taraqqiyoti naqqoshlik san'ati jivojiga borib taqaladi. Ajdodlarimizning yuksak ma'naviyatini Qo'yqirilgan qal'a, Tuproqqal'a, ko'hna Urganj, qadimgi Termiz, Ayritom, Varaxsha, Afrosiyob va boshqa joylardan topilgan naqsh namunalarining jozibadorligidan bilib olish mumkin. Diyorimizning turli viloyatlarida naqsh bilan ziynatlangan me'moriy yodgorliklari, idish, buyum, mehnat qurollarida umumiylik kuzatilsada, Buxoro, Xiva, Farg'ona va boshqa joylarning o'ziga xos naqsh uslublari, keyinchalik maktablari shakllangan. Naqqoshlik avloddan avlodga o'tgan, otalari ustozlaridan o'rgangan naqsh namunalarini shogirdlar tajriba va iste'dodlari orqali rivijlantirganlar.

O'zbek naqqoshlari asosan ko'k (lojuvard) zangori (havo rang, osmoni), yashil, sariq, qizil, oq, qora ranglarda naqsh ishlaydilar. Naqqoshlikning uslublari avloddan-avlodga o'tgan. (masalan, axtadan foydalanish, bo'yoq tayyorlash, oldin naqshning asosiy chiziqlarini chizib, zaminni bo'yab olish va hokazolarni), lekin yozib qoldirmagan. Ustaning naqsh ishlash sirlarini faqat shogirdlarigina yaxshi bilganlar.

Naqsh san'ati O'rta Osiyo madaniyati tarixida eng qadimiy bo'lib, o'ziga xos namunalari bilan diqqatga sazovordir. O'rta Osiyoda keng tarqalgan naqshlar ikki turga: geometric (xandasaviy) chiziqlar va shakllarning murakkab ko'rinishi girix deb nomlanadi. O'simliksimon tasvirdagi naqshlarning keng tarqalgani, islmiy deb ataladi. Namoyon, ruta, munabbat, turunj, zanjira xilidagi naqshlar islmiy kompozitsiyani tashkil etadi. naqqoshning malakasi va yuksak mahorati aniq o'lchamdagi eiementlarning ohangdorligi, did bilan tanlangan ranglarning o'zaro mutanosibligini ta'minlaydi. O'rta Osiyoning eng qadimiy naqsh namunalarini asosan me'moriy obida va inshootlarda ko'rish mumkin. Naqshning

ajoyib ko'rinishlari ganch, yog'och va tosh o'ymakorligi, yog'och(ustun, bolor, vassa va boshqalar)ni bo'yab ishlash orqali amalga oshirilgan. Bizgacha yetib kelgan qadimiy zargarlik va misgarlik san'ati noyob namunalarida ham ajdodlarimizning nozik didi, mohir qo'li va teran zakovati bilan yaratilgan naqsh bezaklarini o'sha turlarga xos bejirim yechimlarda bajarilganligi kishini hayratga soladi. Masalan Dalvarzintepadan topilgan oltin zirak (er. III asri) ixcham aylanma (silindrik) sirt yuzasi oddiy ritmik jihatdan nihoyatda mutanosib joylashtirilgan to'rt bargli gul naqsh bezagi tushirilgan.

Kulolchilik qora loydan mo'jzakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir . Bu qora loy , saxovat , xalollik ezgulik timsolidir . Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik , to'kinlik , rizq ro'z . go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir . Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi . Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi . O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega . Sopol buyumlari sodda bo'lsada uning ko'rinishi qismlarining aniqligi , mutanosibligi saqlanishi , naqshlarining badiiy joylashishi , shakl va mazmuning birligi , uyg'unligi o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda . Kulolchilik xunari loydan , payola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, xurmacha, tog'ora , xum, tandir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan sox abo'lib , u uzoq tarixga ega. Mahsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini , undan xar xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar . Ular avval loydan idish- tovoqlar yasab, gulhanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jahonning xamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'ullanganlar. Kulolchilik charhi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug'ullana boshlaganlar . Keyinchalik loydan yasalgan idish – tovoqlarni mahsus o'choq hamda xumdonlarda pishirganlar . Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo'yilgan . Enoilt davrida esa Sharq mamlakatlarida xamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan

va me'morchilikda sopoldan foydalana boshlagan. VII-XII asrlarda kulolchilik o`rta osiyoda yahshi rivojlangan . Buni Afrosiyobda va O`rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi . O`sha davrda O`rta Osiyo madaniyati tez sur`atlar bilan rivojlandi . Yangi ko`tarilish davri bo`ldi. Ko`pgina olim , yozuvchi va mutafakkirlar , yani Abu Ali Ibn Sino , Beruniy , Firdavsiy, Rudakiylar yeishib chiqdi . Butun dunyoga mashxur bo`lgan me'morchilik yodgorliklari bunyod etildi . Buhoroda Ismoil Somoniy maqbarasi qurildi. XIII asrda mo`g`ullar bosqinciligi oqibatida Buxoro Samarqand Urganch Marv Balh yong`in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san`ati rivojiga putur ketdi. XVI asrdan boshlab O`rta Osiyo teritoriyasida kulolchilik tez sur`atlarda rivojlandi. XIX asrda O`rta Osiyoda tojik va o`zbek xalqlari o`rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G`ijdivon , Panjikent, Samarqand, SHahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo`ladi. Ular spool idishlarini sirlab bezatishning o`ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa , ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatligi, chiroyliligi, naqshlarning na`fis va ta`sirchanligi bilan shuhrat qozondilar. 1930-yilda Toshkent eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustahonalari ochildi. 1932- yilda Toshkentda o`quv–ishlab chiqarish ustahonasi tashkil etilib u yer xalq amaliy san`ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi . Kulolchilik sir-asrorlarini mashxur kulollar yoshlarga sitqidildan o`rgatdilar. Ko`pgina kulolchilik ustahonalari artellari tashkil etildi . 40-yillarda G`ijdivondagi „Namuna” , Rishtonda „ Yangi Hayot” artellari faqat jumhuriyatimizda emas , balki butun dunyoga mashhur edi . Insonning madaniyatiga bo`lgan ilk qadami ibtidoiy davrdan boshlanganligini qiyos etishimiz kerak. Turmush, tirikchilik hamda uy-ro`zg`or taqozosi talablari bilan vujudga kelgan buyumlar, kundalik zarurat uchun kerakli bo`lgan asbob anjomlar yashash hamda ularni har xil ko`rinish va shakllarda ijod ettirish har bir davrning majburiyatiga aylanib qolgan. Bu buyumlar turmushda foydalanishga qulay, sodda hamda katta kichik talab qilmasligiga qaramay yillar o`tishi bilan ularni zamon talablariga moslashtirishi, yangicha nusxa hamda ko`rinishlarida ijod etishi o`z davrini mohir ustalaridan ijodiy izlanish va safarbarlik talab etib kelgan.

O'zbekiston xalq amaliy bezak san'ati muttasil tiklanmoqda, shiddat bilan rivojlanmoqda va yuksalmoqda. Respublikada ishlab turgan xalq ustalari safi kengayib borayotgani, xalq san'atining kashtachilik, gilamdo'zlik, sholcha to'qish, pichoqchilik, savat to'qish, zargarlik, ganch hamda yog'och o'ymakorligi va naqqoshligi, lok va qog'ozda miniatyura, kulolchilik va h.k. turlari ko'payib borayotgani shundan guvohlik beradi. Bu esa mustaqillik davrida mamlakatimizda madaniyat va san'atni rivojlantirish, kishilarni intellektual va axloqiy kamol toptirish uchun qulay sharoit ko'proq yaratilayotganining dalilidir.

## **II-bob . O'zbekiston viloyatlarida amaliy san'atning o'ziga xosligi va yo'nalishlari**

### **2.1 Samarqand viloyati amaliy san'ati .**

Naqqoshlik dekorativ-amaliy san'atning bir turi sifatida qadimdan o'zbek madaniyatining muhim elementar hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida uning badiiy an'analari vujudga keldi. Naqshlarda san'atning boshqa hamma turlaridan farqli ravishda avlodlarning chambarchas bog'liqligini, an'analarning davomiylishni ko'rish mumkin. Naqqoshlik an'analari san'atning ana shu turini o'rgatish metodlari sifatida ham bobodan otaga, otadan o'g'ilga o'tib kelgan. Ana shu davomiylik tufayli naqsh san'ati hozirgacha saqlanib qoldi. Naqshning eng yaxshi namunalari boy ijodiy fantaziya orqali birlashtirilgan shakllarning maqsadga muvofiqligi va go'zalligi bilan farqlanadi. Bunda xalq ustalarining atrof-muhitga qarashlaridagi tafovut aks etadi. Naqshdagi chiziqlar uyini musiqadagi oxang kabi, qo'shiq va ertak kabi «xalq hayotiy tajribasining katta umumlashmasidan» iborat bo'ladi. O'zbek xalq naqqoshligiga doimiy qiziqish, uning tarixiy — madaniy roli shu bilan belgilanadiki, san'atning bu turida ham epos va musiqadagi, she'riyat va raqsdagi kabi xalq xarakterining nozik xususiyatlari, uning estetik qarashlari, didi, hayotni his etishi ifodalangan. Yaqindagina naqqoshlik san'atning unutilayotgan turlaridan biri hisoblanar edi. So'nggi yillarda badiiy naqqoshlikka qiziqish

kuchaydi va u tez tarqala boshladi. Yosh ustalarning ishlari shuhrat qozondi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Fargona, Qo'qon, Andijon, Namangan, Shahrisabz va respublikaning boshqa shaharlari hamda rayonlaridagi turli kasblarda ishlaydigan kishilar bo'sh vaqtlarida naqsh bilan shug'ullanmoqdalar. Usta naqqoshlarni go'zallik ustalari deb atalgan va haqiqatan ham shunday. Badiiy naqqoshlik — ranglarning uyg'unligida va original kompozisiyalarda go'zallik yaratish san'atidir. Naqqosh (usta) o'z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan moxirlik bilan foydalanib yorqin ifodalilikka erishadi.

O'zbekistonning an'anaviy me'morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni: jimjimador araqilarni saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari yog'ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo'llangan. Nozik o'simliksimon-geometrik naqshdagi o'zaro singishib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o'zbek ustalarining ishlaridagi islami va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan. Naqsh ko'proq interyerlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qilgan. Tekis devorlarni bezashda aniq sistema mavjud bo'lgan. Devorlarning vertikal (panel, devor yuzasi, araqi) va gorizontaal (turli panno, tokcha, xoshiya) yo'nalishlarda o'ziga xos tarzda qismlarga bo'linishi o'zbek an'anaviy binokorligining karkasli qurilishidan kelib chiqqan. Ustalar mazkur sistemani buzmaganda holda o'zaro oxista qo'shilib ketgan ajoyib medalonlar, geometrik kataklar yoki gullagan shoxlar, turli guldastalar, gultuvakdagi gullar, daraxtlar, ba'zan xatto peyzajlar bilan to'ldirilgan chiroyli baland pannolarning g'oyat xilmaxil naqsh kompozisiyalarini yaratganlar. Shuningdek, ular turli ko'rinishdagi xoshiyalarni, uchburchakli o'yiqlardan iborat — ensiz, go'yo bir maromda yugurib ketayotgandek tuyuladigan o'simlik novdalaridan iborat enli xoshiya va hokazolarni ishlaganlar. Mahalliy me'morchilikning arxitektura konstruksiyalariga va detallariga tarkibiy bog'langan naqshlar butun inshootga mukammallik va o'ziga xoslik baxsh etgan Hozirgi paytda naqshdan arxitekturada, mebellar, sovg'alar, mayda yog'och o'yinchoqlar, musiqa asboblari va turmushda kerakli



buyumlarni bezashda foydalaniladi. Ko'p yillik tarixiy rivojlanish natijasida badiiy naqqoshlikning moxir ustalari tomonidan badiiy g'oyalarni va keng diapazonli badiiy mazmuni ifodalashning turli texnikasi yaratildi. Bu hol naqsh san'atining hozirgi davr estetik prinsiplarini gavdalantirishdagi katta g'oyaviy-badiiy imkoniyatlarini, uning turar joy va jamoatchilik binolari interyerlarining garmonik hamda estetik boy qiyofasini yaratishda to'la ishtirok etishini ko'rsatadi.

**Naqsh** — arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, xayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, inkurustasiya, panjaralar va hokazolarda xar xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o'yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san'ati tarixi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jaxondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Xitoyda, qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga geografik o'rniga, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil hayvonlar, qirgiz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Yevropada barokko, gotika, roman, klassisizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi. O'zbekistan territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, Sug'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I—II asr), Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI—VII asrlarda

ibodatxonalar. Qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko'rib xayron bo'ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, rasmlar urishi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli maxluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi, yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks etdirish man etildi. «Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharxlar va xodisalar ko'proq murosasiz yo'l tuta borib, qat'iy ravishda shunday der edi; «Tangri yoki odamzod suvratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling, aks holda bu qoidani buzgan kishi gunoxi azim qilgan bo'ladi», deb qo'rqitilgan. Jonli mavjudotlar suvratini chizish man etilishinmng ma'nosi shundaki, xudodan boshqa xech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, xatto Xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qo'lidan kelmaydi, aks xolda musavvir Xudo bilan bas boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo'ladi». Islom talablariga bo'ysunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yuqolib borib naqqoshlik rivoj topdi. Arab yozuvi o'zlashtirildi, Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Xullas tasviriy san'at rivojlanmaydi. Buning hisobiga xalq Amaliy bezak san'ati naqqoshlik xisobiga rivoj topdi. IX—X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g'isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoklar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbiq va boshqalar naqadar mo'lligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi, o'simliksimon naqsh

gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islmiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi.

Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muxabbatini bildiradi. Uning rantlari xos ma'no va harakterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroq bo'lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg'unlik, yusin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yuqotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI—XII asrlarda O'zbekistan territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan. (XVI), Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII asr) va boshqalar bezaldi.

Bu arxitektura binolarida bezalgan naqshlar o'zining badiiyligi, harakatchanligi, o'ziga xos originalligi bilan kishini xayratga soladi. Naqshlarning har biri bir katta asar bo'lib voqelikni naqqosh tili bilan qo'yilayotgandek tuyuladi. Lekin XVII asrning oxiriga kelib, bir necha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning xaddan tashqari sarf etilganligi ko'zga tashlandi. Ayniqsa bu soxada ijodiy izlanishlar kam bo'lganligi sezildi. XVI—XVIII asrlar orasida o'zaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. Bu esa milliy naqqoshchilik san'atining rivojlanishiga ham ta'sir etdi. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari vujudga kelishi bilan san'atkorlar bu shaxarlarga yig'ila boshladi. Shu vaqtdan naqqoshlik xalq amaliy san'at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi Tosh xovli, Qo'qondagi Xudoyorxon urdasi Buxorodagi Sitorai Moxi-xosa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi. Hajmli — planli naqsh kompozisiyalar paydo bo'ldi. Bu bezaklar nixoyatda nafisligi bilan ajralib turar edi. Naqsh san'atining rang-barang rivojlanishi, har bir shahar va vohaning o'ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo'ldi. Chunonchi Farg'ona, Toshkent, Xorazm, Samarqand va boshqalar. Ular o'zining kompozisiyalari, rangi jihatidan va boshqa tomonlari bilan farqlanadi. XIX - XX

asr boshlarida turar joy binolari, maxalla machitlari, saroy va o'quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Ayniqsa devorlar sirtiga daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli bo'toqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. Chunonchi Quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi knyaz N. K. Romanovlar saroyi, A. A. Polovsevning uyi, Marg'ilondagi Saidaxmadxo'ja madrasasi va boshqalar.

Xiva, Qo'qon, Buxoro xonliklari davrida xalq amaliy san'ati ustalari shu shaharlarga yig'ila boshladilar. XIX asr arxitektura yodgorliklarni kuzatsak, ular bir xil uslubda yaratilganligini ko'ramiz. Chunki o'sha vaqtlari naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo'yicha boshqa shaharlarga borib binolarni bezatar edilar. Ko'pincha Farg'ona va Buxoro naqqoshlari Samarqandga, Qo'qon, Marg'ilon ustalari Toshkentga kelib ko'pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga o'ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o'ynadi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o'xshasa-da har bir shahar va har bir ustaning o'ziga xos rang majmuasi, kolorita, uslubi, kompozitsiyasi jihatidan farq qiladi. Agar biz XX asr orasida yaratilgan ishlangan naqshlarni kuzatsak, har bir rayon va viloyatning o'ziga xos naqqoshlik maktablari yaratilganligini ko'ramiz.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi barg va gullarining badiiy xarakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girixlar, Farg'ona naqshlariga o'simliksimon naqshlari bilan aniq bir ritmik takrorlanuvchan naqshlar kompozitsiyasi bilan Toshkent naqshlariga o'xshash. Avval zangori rang gammasida ko'p naqsh bajarilgan bo'lsa. Hozir esa yashil rang gammasida ko'proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini yaratishda «Usta Raxmonxol, usta Jamoliddin (Mirjamol), usta Maxmud, usta Abdujabbor, usta Abduzoxid, usta Sharif, usta Aminjon, usta Bako» keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilovlar kabi naqqoshlar asos soldilar va bebaxo xissalarini qo'shdilar.

Muxammad Murod Samarqandiy 1616 yilda Buxoroda bo'lgan. U Sa'diyning «Buston» asariga miniatyura chizgan. So'ng bu asar Juybor

shayxlaridan Abduraxim Xo`jaga tuxfa qilingan. O`rta asr o`zbek miniatyura san'atining yana bir ko`zga ko`ringan taniqli musavviri Muxammad Murod Samarqandiy o`zining g`oyat kuchli tasviriy qobilyati, asarlarni jonli, ifodali realligi bilan ajralib turadi. «Shoxnoma» asarida uning 115 illyustrasiya miniatyurasi uning o`z davrining yetuk san'atkori ekanligidan dalolat beradi. U g`oyat kuchli dramatik syujetlarni o`z asarlarida ifoda etadi. Asarlarida o`z davrining sosial hayoti to`la-qonli ifoda etib berilgan. Uning «qo`zg`olon» asarini kuzatar ekanmiz asar qaxramonlarini g`oyat aniq tashvishli, g`azabkor va jonli ifoda etganligini kuzatamiz. Asardagi ranglar ham o`ziga xos qo`zg`qlish ruhida beriladi. Murodni rang tanlashi ham o`zidan avvalgi musavvirlardan boshqacharoq kompozisiya syujetlari va ularga tanlangan ranglarda aloxidalik reallik xukm suradi.

Murod Samarqandiy - mashhur naqqosh va mashhur atoqli musavvir. Murod Samarqandiy XVI asrda yashab ijod etgan rassom. Murod Samarqandiyning otasining ismi haqida ham hech qayerda hech nima berilmagan. Murod Samarqandiyi ayrim sharqshunos olimlar uni tug`ilgan va vafot etgan yilini aniq ko`rsatib bermaganlar. Murod Samarqandiy juda yoshligidanoq rasm chizishga kirishadi. U rasm chizishni eng oddiy elementlarini katta zexn bilan o`rganadi. Yosh Murod tabiat elementlaridan o`z rasmlari kompozisiyasida foydalanishga, badiiy asarlar syujeti bo`yicha rasm ishlashga asosiy e'tiborni qaratadi. U birgina rasm chizib qolmay badiiy asarlarni ham mutoala qilib turar edi. Ko`pgina manbalarda ko`rsatilishicha u davrda Xirotda Alisher Navoiy boshchiligida 40 a'zoga ega bo`lgan yetuk rassomlar xattotlar, me'morlar, musiqashunoslardan tashkil topgan «Ilmiy kengash» faoliyat ko`rsatar edi. Shu bilan birga Mirak Naqqosh rahbarligida «Nigoriston» san'at akademiyasi xam bu davr san'ati va madaniyati rivojida muhim o`rin tutgan xolda Murod Samarqandiy ijodining ravnaqida xam katta ta'siri bo`lganligini ham aytib o`tishimiz joizdir. U Xusayn Boyqaro xamda Oqa Mirakdan ta'lim olgan. Uning Xirotda yashagan choqidagi asarlari bizgacha yetib kelmagan. XVI asr 30-40 yillarida chizgan suratlarida 30 yaqini kashf etilgan. U hamma miniatyurachilar kabi shoir va buyuk

mutafakkir Alisher Navoiy suratini ham chizgan. Mir Alisher Navoiy chehrasi to'g'ri tasvir etilgan bo'lib chiqadi. Chunki Murod Samarqandiy ham Bexzod singari shoir mir Alisher Navoiy bilan birga bo'lgan. Mazkur surat 1931 yili Londonda tashkil etilgan Eron san'ati ko'rgazmasida namoyish etilgan edi. Xozir Texronda shoxanshox kutubxonasida saqlanadi. Biz Mir Alisher Navoiy suratini ko'zdan kechirar ekanmiz, u usta san'at egasi tomonidan chizilganligiga shubxa qilmaydi. U shoirning yuksak choqlarini tasvirlab, chexrasi ancha manodor chizilganligini aniq namoyon etib turibdi. Uning ko'zlari risolidek, kimnidir diqqat bilan, bor fikri zikri bilan tinglayotgandek tuyulardi. Surat yuqorisida «Sur'atliy Amiri Kabir Mir Alisher» degan yozuv bor.

O'zbek xalqining qarovsiz yotgan madaniyat durdonalari, tarixiy yodgorliklarini saqlash va madaniy merosini to'plashni davlatimiz o'z zimmasiga oldi. Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyati tuzildi. 1918 yili 5 dekabrda qadimiy arxitektura yodgorliklarini va san'at asarlarini hisobga olish va saqlash haqida dekret chiqarildi. Naqqosh ustalar ham boshqa ustalar qatori machit, madrasa, turar joylarni, saroylarni ta'mirlashni boshlab yubordilar. 30-yillardan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat uylari, saroylarni va boshqa joylarni yog'och naqsh va ganch bilan bezatila boshlandi. 1938 yili Moskvadagi Butunittifoq xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasidagi O'zbekistan restorani va pavilonlarini bezashga naqqoshlarni safarbar qilindi. U yerda ajoyib namoyonlar, qandillar; o'yma eshiklar, o'yma ganchlar va naqshlar bilan bezatildi. 1939 yilda Samarqand va Buxoroning eng yaxshi ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi binosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. Shu yillari «Baxor» kontsert zalini ham naqsh, ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. 40-yillarda qurilgan Muqimiy, Navoiy teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan bezatildi. Naqqoshlik san'atini rivojlantirishda ajoyib xalq ustalari Farg'onalik Saidmaxmud Norquziyev, toshkentlik Toxir To'xtaxo'jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov. Jalil Xakimov, Xivalik Abdulla Boltayev, S. Xudoyberganov, X. Raximov, Samarqandlik Jalol va Bolta Jalilovlar, usta Madaminjon Xusanov va boshqalar

hamda ularning shogirdlari yaratgan asarlar hozir ham xalqqa xizmat qilyapti. Ular avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan naqqoshlik san'atiga katta xissa qo'shdilar. Ular o'zbek naqshlarining elementlariga yangicha elementlar (o'roq va bolta, kabutar, paxta, yulduz va boshqalar) yangicha g'oyalar kiritdilar. Lekin o'zimizning an'anaviy o'zbek xalqining o'ziga xos milliy san'atini saqlab qoldilar. Ular zamonaviy binolarga moslab o'zbek milliy naqsh elementlari bo'lmish nozik majnuntol nixollari, anor bo'togi, guli butalar va boshqa o'simliklarni tasvirladilar. XX asrning urtalarida naqqoshlik san'ati yanada rivoj topdi. Devorlarga manzarali monumental tasvirning mashxur ustasi Chingiz Axmarov Sharq miniatyurasining eng yaxshi namunalaridan hamda O'rta Osiyo xalqlarining badiiy merosidan ilxomlanib ajoyib devoriy rasmlar yaratdi. O'zbek xalqi ikki ming yil davomida xalq amaliy san'atining shunday ajoyib namunalarini yaratdi va yaratib kelmoqda. Naqqoshlar o'zlarining yuksak badiiy maxorati va nazokati bilan bugungi kunda ham kishilarni xayratga solmoqdalar. Naqqoshlik san'ati O'rta Osiyoda juda qadimiy bo'lishi bilan birga, ajib, o'ziga xos, betakror namunalari bilan ajralib turadi. Har bir naqshning tashqi ko'rinishini ifodalovchi ajib bir gullari, yaproq, novda, islami, girixi kabilar bilan birga chuqur ichki ma'nosi bor. Bunda har bir shakl aniq o'lchamda, hamohang bo'lishi, ranglar did bilan o'zaro mutanosib tanlanishi kerak. Ma'lumki, O'rta Osiyoga islom dinini kirib kelishi bilan joriy etilgan jonli mavjudot tasvirini ishlashning man qilinishi tasviriy san'atni rangtasvir, haykaltaroshlik kabi turlarini rivojlanishiga to'sqinlik qilgan, biroq, xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik san'ati keng taraqqiy etishiga ham katta turtki bo'lgan. Binolar, turli idish-tovoqlar, buyumlar, qurol-aslahalar naqsh bilan bezatildi. Shaharlar husniga ko'rk bo'lgan qadimiy obidalar, masjid, madrasalar, xonoqo va maqbaralar naqsh bilan bezatildi, ganch va yog'och o'ymakorligi keng ko'lamda qo'llanildi.

Ana shunday milliy san'atimiz bo'lgan xalq amaliy san'atining bizgacha etib kelishi va rivojlanishida mashhur ustalar Usta Shirin Murodov, Yusufali Musae, Umrzoq Ahmedov, Ota Polvonovlarning hissalarini beqiyosdir. Farg'ona naqqoshlik maktabi nomi bilan tilga olinadigan Xo'jand, Marg'ilon,

Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublarda ijod qilgan ustazoda Saidaxmad Norqo'zievni ham alohida ta'kidlash joizdir. Bugungi kun yoshlari ularning ishlarini sadoqat, ixlos, mehr-muhabbat bilan o'rganmoqdalar.

Samarqand naqshlari Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlari o'ta guldorligi barg va gullarining badiiy xarakatchanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girixlar, Farg'ona naqshlariga o'simliksimon naqshlari bilan aniq bir ritmik takrorlanuvchan naqshlar kompozitsiyasi bilan Toshkent naqshlariga o'xshash. Avval zangori rang gammasida ko'p naqsh bajarilgan bo'lsa. Hozir esa yashil rang gammasida ko'proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini yaratishda «Usta Raxmonxol, usta Jamoliddin (Mirjamol), usta Maxmud, usta Abdujabbor, usta Abduzoxid, usta Sharif, usta Aminjon, usta Bako» keyinchalik usta Jalol va Bolta Jalilovlar kabi naqqoshlar asos soldilar va bebaxo xissalarini qo'shdilar.

Muxammad Murod Samarqandiy 1616 yilda Buxoroda bo'lgan. U Sa'diyning «Buston» asariga miniatyura chizgan. So'ng bu asar Juybor shayxlaridan Abduraxim Xo'jaga tuxfa qilingan. O'rta asr o'zbek miniatyura san'atining yana bir ko'zga ko'ringan taniqli musavviri Muxammad Murod Samarqandiy o'zining g'oyat kuchli tasviriy qobiliyati, asarlarni jonli, ifodali realligi bilan ajralib turadi. «Shoxnoma» asarida uning 115 illyustrasiya miniatyurasi uning o'z davrining yetuk san'atkori ekanligidan dalolat beradi. U qoyat kuchli dramatik syujetlarni o'z asarlarida ifoda etadi. Asarlarida o'z davrining sosial xayoti to'laqonli ifoda etib berilgan. Uning «qo'zg'olon» asarini kuzatar ekanmiz asar qaxramonlarini g'oyat aniq tashvishli, g'azabkor va jonli ifoda etganligini kuzatamiz. Asardagi ranglar ham o'ziga xos qo'zg'olish ruhida beriladi. Murodni rang tanlashi ham o'zidan avvalgi musavvirlardan boshqacharoq kompozitsiya syujetlari va ularga tanlangan ranglarda alohidalik reallik xukm suradi. Murod Samarqandiy - mashxur naqqosh va mashxur atoqli musavvir. Murod Samarqandiy XVI asrda yashab ijod etgan rassom. Murod Samarqandiyning otasining ismi haqida ham hech qayerda hech nima berilmagan.



Murod Samarqandiyini ayrim sharqshunos olimlar uni tug'ilgan va vafot etgan yilini aniq ko'rsatib bermaganlar. Murod Samarqandiy juda yoshligidanoq rasm chizishga kirishadi. U rasm chizishni eng oddiy elementlarini katta zexn bilan o'rganadi. Yosh Murod tabiat elementlaridan o'z rasmlari kompozitsiyasida foydalanishga, badiiy asarlar syujeti bo'yicha rasm ishlashga asosiy e'tiborni qaratadi. U birgina rasm chizib qolmay badiiy asarlarni ham mutoala qilib turar edi. Ko'pgina manbalarda ko'rsatilishicha u davrda Xirotda Alisher Navoiy boshchiligida 40 a'zoga ega bo'lgan yetuk rassomlar xattotlar, me'morlar, musiqashunoslardan tashkil topgan «Ilmiy kengash» faoliyat ko'rsatar edi. Shu bilan birga Mirak Naqqosh rahbarligida «Nigoriston» san'at akademiyasi ham bu davr san'ati va madaniyati rivojida muhim o'rin tutgan holda Murod Samarqandiy ijodining ravnaqida ham katta ta'siri bo'lganligini ham aytib o'tishimiz joizdir. U Xusayn Boyqaro hamda Oqa Mirakdan ta'lim olgan. Uning Xirotda yashagan chog'idagi asarlari bizgacha yetib kelmagan. XVI asr 30-40 yillarida chizgan suratlarida 30 yaqini kashf etilgan. U xamma miniatyurachilar kabi shoir va buyuk mutafakkir Alisher Navoiy suratini ham chizgan. Mir Alisher Navoiy chehrasi to'g'ri tasvir etilgan bo'lib chikadi. Chunki Murod Samarqandiy ham Bexzod singari shoir mir Alisher Navoiy bilan birga bo'lgan. Mazkur surat 1931 yili Londonda tashkil etilgan Eron san'ati ko'rgazmasida namoyish etilgan edi. Xozir Texronda shoxanshox kutubxonasida saqlanadi. Biz Mir Alisher Navoiy suratini ko'zdan kechirar ekanmiz, u usta san'at egasi tomonidan chizilganligiga shubxa qilmaydi. U shoirning yuksak choqlarini tasvirlab, chehrasi ancha manodor chizilganligini aniq namoyon etib turibdi. Uning ko'zlari risolidek, kimnidir diqqat bilan, bor fikri zikri bilan tinglayotgandek tuyulardi. Surat yuqorisida «Sur'atliy Amiri Kabir Mir Alisher» degan yozuv bor.

Arxeologik materiallar kulolchilik mahsulotlarining asrlar davomida takomillashib borganini ko'rsatadi. Davr kulolchilik mahsulotlariga, uning turi va bezaklariga katta o'zgarishlar kiritdi. O'tmishda tayyorlangan shamdon, qorachiroq, sarxona, jomashov, xum singari sopol idishlarga ehtiyoj qolmadi.

Guldon, tovoq, lagan kabi sopol idishlar va buyumlarga ehtiyoj katta. Me'morlikda ham KULOLCHILIK mahsulotlari (koshin, parchin va b.) keng qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va tayyorlanish usullariga ko'ra quyidagi KULOLCHILIK maktablari mavjud: Farg'ova (asosiy markazlari — Rishton, G`urumsaroy), Buxoro-Samarqand (asosiy markazlari — Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Uba), Xorazm (asosiy markazlari — Madir, Kattabog' qishloqlari), Toshkent. Har bir maktab o'zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o'zigagiva xos xususiyatlariga ega bo'lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saq-lagan.

Buxoro-Samarqand KULOLCHILIK MAKTABI – buyumlarining jarangdor nafisligida qo'rg'oshinli sir va sarg'ish-yashil, jigarrang bo'yoqlar muhim o'rin tutadi. "Afrosiyob sopoli" an'alariga asoslanib tayyorlanilgan buyumlar bezagida o'simliksimon naqshlar yetakchilik qiladi, handasiy naqshlar, hayvonlar tasvirlari kam ishlatiladi. Ular, asosan, G'ijduvon KULOLCHILIK MAKTABIDA qo'llaniladi. G'ijduvon, Shaxrisabz ustalari mo'yqalamda ishlasalar, Urgut, Denov ustalari chizma naqshlarni ko'p qo'llaydilar. G'ijduvonlik aka-uka Alisher va Abdulla Narzullayevlar an'analarni saqlash, rivojlantirish va vorislarga yetka-zishda samarali mehnat qilmoqda. Ustalar idishlar tubiga hayvonlarning soddalashtirilgan shakli yoki ayrim qismlarini joylashtiradilar ("dumi burgut", "murg'i safid", "boyqush", "guli tovus" va b.), bu shakllar gulsimon naqshga o'xshab ketishi bilan diqqatga sazovor. Narzullayevlar yaratgan buyumlarda yangilikni his qilish, an'anaviy shakllarga erkin munosabatda bo'lish kabi xususiyatlar aniq ko'zga tashlanadi. Buxoro-Samarqand KULOLCHILIK maktabi boshqa maktablardan sopol xushtak o'yinchoklar ishlanadigan markazining borligi bilan ajralib turadi. H. Raximova an'alarini uning o'g'illari va shogirdi Boboyeva davom ettirmokda.

### SAMARQAND KASHTACHILIGI

“Yorqin va o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyatga ega. Buxoro, Shahriabz, Nurota kashtachiligian'alariga yaqin bo'lishiga qaramay, Samarqand kashtachilik maktabi o'zining badiiy to'xtami mahobatlilik, ranglarning qat'iyiligi

va tozaligi, shakillari harakatlanganligi bilan alohida ajralib turadi”. katta “Palak” shaklidagi soʻzanalar Samarqand kashtachiligida asosiy oʻrin egallaydi. Ularni tayyorlash uchun qoʻlda toʻqilgan paxta, ipak mato yoki fabrikada toqilgan rangli matodan foydalanilgan. Kashta tikish uchun esa qoʻlda yigirilgan fabrika ipi, paxta yoki jun iplar qollanilgan. O.Suxarevaning taʼkidlashicha, Samarqand kashtachiligida qizil jun ip XIX asr oʻrtalarida paydo boʻdi va 1880-yillardan bu rangdagi iplar ishlatilmagan. Bu kashtachilikni davrlashtirishga xizmat qiladigan jihatlaridan hisoblanadi.

Samarqand kashtachilari “bosma”, baʼzan “kandaxayol” choklari bilan tikishgan tavirlarni “yoʻrma” chok asosida hosil qilishgan. Soʻzananing bezak kompozitsiyalari barg halqalari bilan oʻralgan yirik gul bezaklari hamda pul shoxlaridan iborat.

Kashta markaziga tushiriladigan boshqa tasvirlar singari bu tasvirlarning tadriji kashtachilik sanʼatini tadqiq etishning qiziqarli sohasi hisoblanadi va bu ularning negizini yoritib berishga xizmat qiladi. O.Suxareva Samarqand kashtalari tadrijini quyidagi uch davrni belgilaydi:

-XIX asr oʻrtalari – 1880-yillar- bezak va texnologiyada qadimiy xususiyatlarning saqlanishi;

-1890-1905-yillar- yoʻnalishi oʻzgarishi bilan bogʻliq oʻtish avri;

-1905-1917-yillar- yangi yoʻnalish paydo boʻlishi.

Samarqandning qadimdan aqlanib qolgan kashtalari (1880-yillarigacha) ancha aniq ishlangan tasviri, xilma-xil ranglar ijilosi bilan ajralib turadi. Tabiiy tasvir ularga xos boʻlgan asosiy yoʻnalish hisoblanadi. Kashtalar fabrikaa toʻqilgan oq, baʼzan qizil, yashil yoi safsar rangli iplari matolarga tikilgan. Sariq, moviy, kulrang, yashil, safsar, qora rangli iplar qoʻshimcha bezak oʻrnini oʻtagan. Yirik shakilda tasvirlangan “Lola” asosiy bezak mativiga aylangan. Gul naqshlardan iborat tasvirlar mahalliy kashtachilikning asosiy yoʻnalishi boʻlib qoldi. Naqshlar qizil tusda berilgan. Ularni burglar halqasi oʻrab turadi. Burglar asosan, yashil rangning turli tuslari orqali beriladi. Bu halqalarni uzum navdalari tasviri deb xam hisoblanadi.

Samarqand kashtachiligi keyinchalik yanada soddalasha brogan.

XIX-XX asrlar orasida kashtalar hajmi kattalashgan, tasvirlar yiriklashgan. Ayrim hollarda naqsh asos aylanasi bir metrgacha yetib, ularning soni bitta so'zanada 15-20 donagacha bo'lgan.

Bu o'zgarishlar chokning xam yiriklashuviga olib kelgan. Ranglar turi kamaygan, yashil rang qora bilan almashgan. Nihoyat, uchinchi davrda, asosan fabrikada ishlab chiqarilgan mat ova iplardan foydalanilgan. Shakillarning mahobatliliigi saqlab qolingan. Bezak unsurlari zichlashgan. Ranglar grafik tus olgan va keskinlashgan.

Kashtalar hajmining kattalashuvini tadqiqotchilar ularning "Sinfiylik jihati" bilan bog'laydilar. "Rivojlanib ketayotgan boy savdogarlar va amaldorlar kashta orqali o'zining kuch qudrati, boyligini ko'rsatmoqchi bo'ldi". "Ammo kashtalarni bunday yiriklashtirish ularni bezagiga ta'sirqildi tasvirni yiriklashtirish shunga olib keldiki, natijasda bargli halqa "uchbarg" yoki "beshbarg" o'ralgan keng shoxlar bog'lamiga aylanib qoldi. U kashtaningbutun bo'shlig'ini to'ldirib turdi hamda qo'shimcha bezaklarni tasvirlashga imkon bermadi. Natijada kompozitshiya shakli-shamoyili butunlay o'zgardi. Ayrim paytlarda shoxlar bog'lama guldan boshlab turli tomonga tarqalib ketgan".

Samarqand so'zanalaridagi tasvirlarning qisqacha tahlilishuni ko'rsatadiki, mahalliy kashtachilarning bezatish usullari ham, mahalliy sanoat an'analari ham o'simliksimon merosi bilan bog'liqdir.

Tadqiqotchilar bezaklarning arxaik xususiyatga ega ekanligini ta'kiglaydilar. Darhaqiqat, turli bezaklarda arxaik jihatlar ko'zga tashlanadi. Ammo ma'lum kompozitsiyalardagi bezaklar o'rta asrlardagi rivojlanish davriga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda islom san'atiga xos o'simliksimon gulli bezaklar uslubi keng tarqalgan.

Samarqand kashtachilari qadimiy merosdan muayyan jihatlari qabul qilish bilan birga o'zlarining xususiy badiiy yo'nalishini ham hosil qildilar. Ayanan ana shu narsa Samarqand kashtasini o'ziga xos xususiyatini belgilaydi.

O'simliksimongulli bezak asosini burglar, gul butalari va "Chor-chiroq" tashkil

etadi. Ammo boy ijodiy tafakkur natijasid chevarlar siyrak unsurli majmuadan xalqona uslub asosini tashkil etuvchi rang-barang tasvirlar yaratdilar.

XX asr davomida Samarqandda kashtachilik sir-asrorlaridan xabardor ayollar juda kamayib ketishiga qaramay Samarqand kashtachiligi an'analari Urgutda saqlanib qoldi. Hozirgi paytda Urgut kashtachilikning mahalliy markazi bo'lib qoldi. Bu yerda XX asr boshlarida Samarqandda vujudga kelgan kashta kompoitsiyasi, ya'ni keng barglar halqasi bilan o'ralgan yirik kungurasi naqsh saqlanib qolgan.

Ammo "Urgutcha" tasvirlar "Samarqandcha" kashtalarga qaraganda soda, qizil, pushti naqshlar va qora burglar halqasi singari uch rangli xususiyat saqlanib qoldi. Shu bilan birga an'anaviylikni qaramay Urgut kashtalari tasvir taraqqiyotida butunlay yangi bosqich bolib qoldi.

## **2.2 Farg'ona vodiysini amaliy san'ati**

Amaliy san'at ustalarining ish faoliyatlarida erishgan eng muhim, bizningcha barcha voqealar uchun ibratli tomonlari inshootlarni bezashda arxitektor, naqqosh, ganchkor, yog'och o'ymakor, kulol va tasviriy san'at ustalarini hamkorlikda ish yuritishlaridir.

Bugun Farg'ona vodiysida bir necha etuk amaliy san'at vakillari yashab ijod qilmoqda. Yuzlab yillar davom etib kelgan G'urumsaroy kulolchilik maktabida bugunga kelib mashhur ustalar Hokim buva Sotimov, Maxmud Rahimov, Maqsudulla Tropovlar olamdan o'tganlariga qaramay ular bajargan ishlari davomini kulol Boboxon Buvayev davom ettirib kelmoqda.

Hozirga kelib badiiy bezatish uslubi turli vohalarda o'ziga xosligi bilan jilovlanadi. Kulolchilik san'atida alohida yaratilgan Farg'ona kulolchilik maktabi Xorazm maktabini tashkil etadi. Ganchkorlik rivojlanishida o'ziga xos bir davr bo'ladi.

Rishton kulolchilik maktabida ham mingdan ortiq kulollar ijod qilmoqdalar. Toshkent, Moskva, Sank Peterburg shahrida qator ko'rgazmalarda qatnashdilar. SHulardan 130 tasi "Hunarmand" xalq ustalari birlashmasi a'zolari. Zargarlik san'ati so'ngi o'n yillik mobaynida birmuna jonlandi. Unutila borilayotgan

an`analar tiklandi. Hozirda zamonaviy zargarlik buyumlari tumorlar, sirg`alardan “Uch ko`zacha”, “Oy baldoq”, “Qashqar baldoq” singari buyumlarga zamonaviy shakl berilmoqda.

Farg`ona vodiysida turli hil naqshlar bilan bezatilgan inshootlar haqida gap ketganda ming yilgi binolarimizni tarixiga qaraymiz. VII asrda islom dinini Farg`ona vodiysiga kirib kelishi munosabati bilan arxitektura inshootlarini rejalashtirishda, tashqi va ichki ko`rinishda tub o`zgarishlar sodir bo`ldi. Binolar islom dini qonun qoidalariga moslab qurila boshlagan. Bezak ishlariga esa tasvir ifodalanmay qo`yildi. Naqshi nigohlarda oldingi erkin harakatli naqshlar o`rniga simmetrik ritmga to`la bo`ysingan yoki arab kolligrafiyasi bilan etishtirib yuborilgan geometrik echimlar bilan chiqarilgan grix uslubidagi bezaklar ishlatila boshlandi.

Vodiyda bizgacha etib kelgan arxitektura yodgorliklari ichida qadimgilardan Qoraxoniylar davriga oid o`zgan minorasi va Temuriylar davrida qurilgan xoja Alamdori maqbarasidir.

Ushbu binolarda ishlatilgan naqshi-nigohlarni o`rganar ekanmiz mozoika rangli va rangsiz terrakota, ganchkorlik san`ati yuksak darajada bajarilganligini guvohi bo`lamiz.

Ma`lumki san`atimiz va madaniyatimiz tarixini o`rganishda arxeologik topilmalarga asoslaniladi. Asosan 1930 yillardan keyin arxeolog olimlar: A.P.Oxladnikov, YA.G.Gulomov, U.Ismoilov, A.Askarov, P.T.Konoplya, V.A.Rakov, M.R.Kosimov, A.Berdimuradov, M.E.Voronets, V.I.Sprishanskiy, YU.A.Zadneprovskiy, B.X.Matboboev, U.Raxmatovlar tomonidan Farg`ona vodiysi hududida olib borilgan izlanishlar ushbu makonning insoniyat tsivilizatsiyasining markazlaridan biri bo`lganligidan dalolat beradi. Paleolit davriga mansub (I mln.-XIV ming yillik) Selengur g`oridan, Qayrag`och qishlogi atrofida Isfayram va Xo`jahayr soylari sohillaridan topilgan toshdan yasalgan mehnat qurollari hali dag`al va qo`pol bo`lsa, o`rta paleolit must`e davri (150-35 ming yil avval) davriga mansub Kalana va So`x makonlaridan topilgan tosh pichoq, nayza, bigiz kabi toshdan yasalgan qurollarning sayqal berilganligi va

ishla-tish uchun qulay shaklga keltirilganligining guvohi bo`la-miz. Obisher g`orlaridan topilgan mezolit davriga mansub (miloddan avvalgi X-VI-ming yillik) topilmalardan birida toshdan ish va ov qurollari, chaqmoq tosh parraklari yasash uchun moslashgan ustaxona bo`lgan. Ustaxona atrofidagi qoya toshlarga hayvonlar va ov manzaralarini chizganlar. Ushbu rasmlardan odamlarning qanday hayvonlarni ovlaganlik-lari, qanday qurollar bilan qurollanganliklarini bilib olamiz. SHu bilan birgalikda ularning o`zlari kuzatgan voqealikni aks ettira olish qobiliyati vujudga kelgan-ligining guvohi bo`lamiz. Qoyalarga chizilgan rasmlar aynan tasviriy san`atning boshlanishidir. SHu davrga mansub (miloddan avvalgi ikki ming yillik) arxeologik topilmalar aloxida ahamiyatga ega. Ular ichida CHust shahridan shimol-roqda joylashgan Buvanamozor manzilgohidan topilgan buyumlar fanga bergan ma`lumotlarining muhimligi bilan tarixga «CHust madaniyati» nomi bilan kirgan.

1950 yilda arxeolog M.E.Voronets tomonidan kashf qilingan, so`ngra 1951-1961 yillarda arxeolog V.I.Sprishanskiy, 1974 yil va 1982 yilda arxeolog YU.A.Zadneprovskiy tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida xilmahil bronza va toshdan yasalgan mehnat qurollari topildi. Ular orasida don va suyuqliklar saqlash uchun mo`ljallangan katta xumlar, gardishi bukilib sayqal berilgan sopol tovoqlar, qadaqsimon idishlar ja`mi o`ttiz besh xil shakldan iborat buyumlar bor. Ayrimlarining sirtiga qizil rang berilib qora rang bilan geometrik naqshlar chizilgan. Ba`zi idishlarning ichki qismi qora va jigarranga bo`yalgan. Uch burchak, kadak, to`lqinsimon naqshlar-dan tashqari hayvonlar tasviri chizilgan buyumlar ham uchraydi. Buvanamozorliklar har xil shakllar yasash va uzoq muddatga chidaydigan ranglar tayyorlash texnologiyasini yaxshi bilganlar. 1987 yilda Popdan topilgan er osti saganasi vodiy amaliy san`atini o`rganishda yangi sahifa ochdi. Biz hozirgacha ajdodlarimiz qanday kiyimbosh kiyganliklarini faqat topilgan rasmlardangina bilar edik. V-VI-asarlarga oid bu sag`analardan topilgan buyumlar ichida paxta va ipak-dan to`qilgan matolar, kiyim- boshlar alohida ahamiyatga ega. Ularning bichilishi va tikilishi ustalik bilan bajarilgan. Ipak matohlarning rangi asosan to`q yashil, jigarrang va to`q qizil ranglarda. Ayollar

ko`ylaklarining eng va ko`kraklariga may-da marjonlar qadab kashtalar tikilgan. Popliklar qadimdan to`qimachilik, matoga xilma-hil rang berish, gul bosish va kashtachilik, chiroyli bichish va tikish san`atini yaxshi bilishgan. Kiyim-kechaklardan tashkari 10 ming donaga yaqin qimmatbaho toshlardan, hayvon suyaklaridan ishlangan munchoqlar topilgan. Topilmalar ichida metaldan yasalgan uzuklar, isirg`alar yog`och idishlar jimjimador naqshlar, o`yib ishlangan pichoq dastalari, taroqlar va qo`shnay topildiki bular xalq amaliy san`atining bir necha sohalari yaxshi rivojlanganligidan guvohlik beradi. Antik davr sayohatchilari xususan eramizdan avvalgi 126 yilda Xitoy imperatori tomonidan Farg`onaga yuborilgan elchi CHjan-TSzyanning esdaliklaridan qayd etilishiga Davon (Davan`-tog` ortidagi o`lka, ya`ni hozirgi Farg`ona vodiysi) mamalakatda etmishga yaqin katta-kichik shaharlar bo`lgan. Ko`rinib turibdiki shaharsozlik mada niyati ham o`zining chuqur ildiziga ega. Arxeologlarimiz tomonidan o`rganilgan va o`rganish davom ettirilayotgan shaharlar ma`lumotlar berishi shubhasiz. Koson vodiyning keksa shaharlaridan bo`lib uning moddiy madaniyati Mug`tepa yodgorligida mujassam lashgan. Mugqal`a maydoni ikki gektar, shahar plani trapetsiya shaklidagi ko`rinishga ega. Arxeologik kazil-malar shuni kursatadiki kadimgi Koson xarobalaridan 3 bosqichdan iborat madaniyat qoldiqlari mavjud: ya`ni eramizning I-VIII asrlariga oid. IX-XV asrlarga oid. XVI- XVIII asrlarga oid. Qadimgi Koson xarobalarini birinchi bo`lib 1896 yilda N.SHerbin-Kramarenko o`rgangan. 1946-1948-yillarda qazish ishlari olib borgan A.N.Bernshtam uni Xitoy manbalaridagi Koson, Axsikent, Quva, Pop, O`zgan shaharlari kelgusida ham fanimiz va madaniyatimizga ko`plab Davon davlatining poytaxti Guyshuan` shahri xarobasidir deb hisoblaydi. Qadimgi Guyshuan`-Koson eramizning boshlarida shahar-qal`a harbiy istehkom sifatida vujudga kelgan, u ilk o`rta asrlarda harbiy, siyosiy, savdo va madaniyat jihatidan Farg`onaning eng yirik markazlaridan biri bo`lgan. XII asrning yarmidan boshlab Koson Qoroxoniylar davlatidagi bekklik markazi bo`lib qoldi. Markaz esa O`zganga ko`chgan. Axsikent Farg`onaning Afrosiyobi deb nom olganligi bejiz emas. Bu ulkan arxeologik yodgorlik YUNESKO ixtiyoriga olingan, davlat tomonidan muhofaza qilinadi.



Miloddan oldingi III-IV asrda paydo bo`lib, XVII asr boshlarigacha yashagan bu shahar uch qismdan: qal`a, shahriston va rabotdan iborat bo`lgan. IX-XII-asrlarda Farg`ona vodiysining poytaxti bo`lib, gullab yashnagan davrida 1220-yillarda mo`g`ullar hujumi shaharni kultepaga aylantirgan.

Temuriylar davrida yana YAngi Axsikent nomi bilan shuxratini tikladi. 1620-yildagi kuchli zilzila oqibatida shahar yana vayronaga aylandi. Aholisi atrofga tarqalib ketdi. Namangan shahriga ham Axsikentdan ko`chib kelganlar asos solishgan. Arxeologik qazilmalar uning sharqning etuk fan va madaniyat markazlaridan bo`lganligidan dalolat beradi. Ular irrigatsiya qurilmalari (kanallar, ariq lar qurish bilan birganlikda sopol quvurlar orqali 70 km.masofa Kosonsoydan toza suv olib kelganlar va shahar tarmoqlariga tarqatganlar) er osti yullari, qal`a va kazarmalar qurganlar. Shaharda temir erituvchilar, kulollar, oynakchilar mahallalari bo`lgan. Ayniqsa topilmalar ichida hammom qoldiqlari o`zining loyixasining murakkabligi bilan bugungi mutaxasislarni ham lol qoldiradi.

Temuriylar davri arxitekturasini Farg`ona vodiysida faqat Namangandan 60 km. shimolda joylashgan «Xoja –Alamdor» yoki «Safed-Bilol» deb yuritiluvchi maqbara saqla-nib qolgan xolos. Bu maqbara arablar lashkarboshisi SHoja-lilning Karvonbas bilan bo`lgan jangida namoz vaqti shahid bo`lgan jangchilari xotirasiga Soxibkiron Temur buyrug`iga binoan qurilgan. Katta gumbaz va xonakadan iborat maqbarada naqshu-nigorlar saqlanib qolmagan. Arxitektura yodgorligi sifatida qiymatga ega ushbu bino hozirda ta`mir-lash ishlariga muhtoj. Namanganda XV-XIX asrlardan saqla-nib qolgan yodgorliklar «Xo`jamni qabri»dan boshqa deyarli qolmagan. Faqat XVIII-asrning ikkinchi yarmiga kelibgina iqtisodiy jihatdan o`zini o`nglab olgan Qo`qon xonligi shaharlarida me`moriy inshootlar qurila boshladi. Farg`ona vodiysi XIX-asr me`morlik san`atida boshqa birorta obidaga o`xshamagan qurilish va bezash uslubi tubdan farq qiluvchi arxitektura yodgorligi Namangan shahrining Chuqur ko`cha dahasidagi Ko`zagarlik mahallasida joylashgan «Xojamning qabri» maqbarasidir.

Bu bino XV asrdan kegin hozirgacha qurilgan obidalarining birortasiga o`xshamaydi. Shuning uchun ham «Xojamning qabri» maqbarasasini ilmiy

o`rgangan olimlar biroz chalkashliklarga yo`l qo`yishgan bo`lishsa kerak. I.E.Pletnyov-ning (Toshkent. O`zbekiston nashriyoti. «Xo`ja Amin qabri» 1968 yil) kitobida binoning nomi noto`g`ri talqin qilina-di. Tarixiy ma`lumotlarning etishmaganligidan bo`lsa kerak bino tarixiga oid hech narsa berilmay faqat ichki va tashqi bezagiga ta`rif berish bilan kifoyalanadi, maqbara bilan birgalikda masjid va madrasa to`g`risidagi ma`lumot berilmaydi. I.E.Pletnyov aytganiday «Xo`ja Amin kabri» emas «Xojamning qabri» deb aytilishi to`g`ri bo`ladi. Chunki ushbu bino bilan bog`lik tarixiy manbalarda «Amin» iborasi umuman uchramaydi. XVI asr ikkinchi yarmida Shayx Xovandi Taxur avlodidan bo`lmish Toshkentdan Namanganga ko`chib kelib katta er suv, boylik egasi bo`lgan Iminxojaning (Iminxojayu farranda) farzandi Xoldorxo`janing ikki o`g`lil farzandi bo`lib, kattasi YOqubxo`ja Qashqarga ko`chib ketadi, kichigi Ibroximxo`ja Namanganda yashaydi. Ibroxim-xo`janing o`g`il farzandi bo`lmaganligi sababli butun davlati kuyovi Mirxo`ja eshonga qoladi. Me`ros qolgan boylik hisobidan Mirxo`ja eshon qaynotasi xotirasiga XVIII asr oxirida maqbara qurilishini boshlab yuboradi. XIX-asr boshida qurilib bitkazilgan maqbara «Xojamning qabri» nomini olgan. Maqbaraga kirish eshigi oldida «Amali usto Muxammad Ibroxim ibn Abduraxim», maqbara-ning sharqiy tomon eshigi ustida «Xat dar varaqi daxr binomad sad sol, bechora navisona ki dar xaq ravod», ya`ni «Bu yozilgan xatlar olam saxifasida yuz yillar qoladi, bechora yozuvchisi esa tuproq bo`lib ketadi», - degan so`zlarni yozib qoldirilgan. Binoni bezashda o`yma sopol terrakota, mayolika, koshinlardan keng foydalanilgan. Ichki qismi asosan zaminga rang berilib ganchkorlik san`ati bilan bezatilgan. Ko`p erlarida ikki qavatli ganch bo`lib arab harflari bilan: xati kufiy, xati rayxoniy, xati nastali usullarida su`ralar bitilgan. Biz I.E.Pletnyov kitobida bino qurilishi va bezagiga keng o`rin berilganligi uchun to`xtalib o`tirmadik. Qo`shimcha ma`lumot: XIX asrning ikkinchi yarmida YOqubxo`ja o`g`li Azizxo`ja Qashqardan Namanganga kelib maqbara atrofiga madrasa va jo`me masjid qurdirgan. «Azizxo`ja eshon» madrasasi, jom`e masjidi, «Xojamning qabri» maqbarasi birlashib to`la bir ansanblni tashkil qiladi. «Xojamning qabri» maqbarasi bilan bog`liq yana bir kichik anglashilmovchilik haqida fikr bildirib

qo`ymoqchi edik. L.I.Rempel'ning «Arxitekturo`y ornament Uzbekistana» (1961–yil Toshkent. 93 bet. Rez'naya terakota 12 v.) kitobida «Munchoqtepa dahlдор XII asr o`yma terakota» deb berilgan detal aslida «Xo`jamning qabri» ning tashqi fasadiga tegishli bo`lib, XII asr emas XIX asr birinchi yarmiga tegishlidir. Bizningcha XII asr arxitek-turasida: Qoraxoniylar poytaxti O`zgan shahri obidalarida, Buxorodagi «CHor minor», Jambuldagi «Bibioysha» obidalarida XIV asr oxirigacha keng foydalanilib, keyinchalik butunlay unutilib ketgan o`yma sopol terrakotaning hech kutilmaganda to`satdan Namangandagi «Xojamning qabri» maqbarasida ishlatilishi olimlarimizni chalkashtirgan bo`lsa kerak. XIX-asrning birinchi yarmida xonlik markazi Qo`qon shahrida qurilgan obidalar «Madalixon» maqbarasi, «Daxmai-Shoxon» maqbaralarini diqqat bilan kuzatar ekanmiz bu binolarda XIV-XVI asr Samarqand arxitek-turasiga taxlid qilib qurilganligini ko`ramiz. Biroq bu binoalarda Samarqanddagi kabi mukammalikka erisha olinmagan. Fasad qismidagi eni va balandligi mujassamoti buzilishi ulug`vorligiga putur etkazgan. Bezak ishlarida ham tanlangan naqshiy echim, ranglarni ortiqcha xilma–xilligi bir yaxlitlikka erishishga imkon bermagan.

1863 yili boshlanib 1873-yilgacha davom etgan Xudoyorxon o`rdasi XIX-asr ikkinchi yarmidagi eng yirik me`moriy kompleks, bunda ustalarning mahorati ancha takomillashgani, butun bino qurilishi bir rejaga asoslangan holda olib borilgani seziladi. O`rda qurilishida barcha ishlarni Mir Ubaydullo boshqargan. Bezash ishlarini Rishtonlik– Usto Abdullo (Kaliabdullo) va Usto Jalil, Pskentlik Usto Zokirlar bajarishgan. Ichki bezaklariga Andijon, Naman-gan, CHust, Konibodom, O`ratepa kabi shaharlardan Usto Mama-rasul, Usto Masolih, Usto Hakim, Usto So`fi Yuldosh kabi ustalar jalb qilingan. Binoning ichki bezaklari: yog`och ishlari, Kulolchilik, ganchkorlik bezaklari juda mahorat bilan bajarilgan. Lekin tashqi ko`rinishi bezaklarida ustalarning mahorat imkoniyatlari biroz cheklanganligi seziladi. Bizningcha uzoq yillar davomida ya`ni XVII-XVIII-asrlarda yirik hajmdagi me`moriy obidalar qurilishi to`xtab qolganligi o`z ta`sirini ko`rsatgan bo`lsa kerak. (Bundan IVIII asr oxiri, XIX-asrning birinchi yarmida qurilgan «Xojamning qabri» maqbarasi istesno) «Madali-xon» va «Daxmai-

SHoxon» maqbaralariga nisbatan O`rdada anchagina mukammallik bo`lsa ham ko`p holatlarda o`sha kamchi-liklar qaytarilganligini guvohi bo`lamiz. Bezash uchun umumiy kompozitsion echim quruvchi ustalar va bezatuvchi ustalar hamkorligida hal qilinmagan. Bezash ishlari tayyor bo`lgan binoni borligicha bezatilgani sezilib turadi. Satxlar yaxlit bir tekis joylashib qolgan. Hattoki arabcha yozuvlar bitilgan qismlar ham bir tekislikda joylashgan. O`stirilgan qismlar esa yarim g`isht miqdorida xolos. Binoni qurishdagi ayrim kamchiliklarni bezatuvchi ustalar «Ko`z aldash» yuli bilan berkitib ketishlari mumkin edi, biroq ustalardagi faqat kichik buyumlar bezashga o`rganib qolganliklari, katta satxni bezashda qiyinchilik tug`dirgan ko`rinadi. Darvozaning peshtok qismiga yaxlit bir geometrik mozaika berilgan, natijada arabcha yozuv bitilgan qismi naqsh bilan bog`lanmay tasodifan ustidan yopishtirib qo`yilgandek ko`rinadi. Darvozaning ikki tomoni doirasi-mon, umumiy binoning chekka qismlari «Madalixon» maqbarasidagi kabi ko`p burchakli guldasta bilan yakunlangan. Juz`iy kamchiliklariga karamay binoning umumiy ko`rinishi go`zal va ulug`vor. O`rdaning ichki qismi bezaklarida tashqari bezaklarda uchraydigan kamchiliklarning birorta-siga yo`l qo`yilmagan. SHundan ham bilsa bo`ladiki, ushbu davr ustalari katta hajmdagi satxlar echimiga nisbatan kichik satxlar echimiga mahoratlari yuqori bo`lgan.

Farg`ona vodiysi amaliy san`at ustalarining ish faoliyatlarida erishgan eng muhim, bizningcha barcha regionlar uchun ibratli tomonlari–inshootlarni bezashda arxitektor, naqqosh, ganchkor, yog`och o`ymakor, kulol va tasviriy san`at ustalarining hamkorlikda ish yuritishlaridir. Masalan: Qo`qon shahridagi «G`ishtko`prik» choyxonasi arx. R.Axmedov, naqqosh S.Maxmudov, ganchkor A.Abdulhakov, yog`och o`ymakor K.Haydarov hamkorligida, To`raqo`rg`ondagi «Shon-shuhrat» muzeyi arxitektor A.Hikmatov naqqosh va ganchkor M.Xusainov, monumentalist rassom O.Xabibulin hamkorligida, Namangan rayoni «SHon - shuhrat» muzeyi arxitektor N.G`ofurov yog`och o`ymakor K.Haydarov naqqosh va ganchkor A.Akparov, monumentalist rassomlar M.Fatxulin va V.Pereverzevlar hamkorligida, Kuvasoy shahridagi milliy choyxona arxitektor V.Kaptsan, ganchkor va naqqosh J.Jamalov, tashqi devor bezagi monumentalist G.Kaptsanlar

hamkorligida bajarildi. Me`moriy binolarni bezashda arxitektor va musavvirlar hamkorligida ya`ni san`atning bir necha sohasidan unumli foydalanilgan holda bir yaxlitlikka erishilishi me`moriy bezakdagi eng to`g`ri yul ekanligini vodiya O`zbekistonning boshqa regionlariga nisbatan erta anglab etdilar. Xona ichini faqat ganchkorlik san`ati bilan yoki faqat Kulolchilik san`ati bilan to`ldirib quyilganligini deyarli uchratilmaydi. 70-80 yillar oraligida bajarilgan ishlar hammasi yaxshi ishlangan deb xulosa chiqarish noto`g`ri bo`lardi. Bu davrning o`ziga xos muammolari mavjud edi.

1980-yildan so`ng badiiy buyumlar bezash sohasida ham arxitektura inshootlarini bezash sohasida xam ustalarning mahorati ortib bordi. 70-yillar birinchi yarmidagi kabi ganchkorlikda ganchning yirikligi, zaminnig o`ta chuqurligi kabi tajribasizlik oqibatidagi nuksonlarga, bino tashqarisida ganch o`ymakorligi ishlari bajarilishiga yo`l qo`yilmadi. Ustalarning mahorati oshib borishi natijasida yangi qurilgan binolarda oldin faqat tekis satxga bezak berilgan bo`lsa, endi qo`shimcha kosntruktsiyalar yordamida an`anaviy uslubni saqlab qolgan holda bo`rtma formalar chiqarib bir necha qavatli bezaklar bera boshladilar. Bu davrda bajarilgan ishlardagi ganchkorlik san`atida tosh oynak, rangli oynak, rangli zamin, fol`ga kabi materiallardan keng foydalanganligini kuzatamiz. Kulolchilikda esa fondini alebastr bilan burttirib bir necha qavatga ajratgan holda chizish uslublari paydo bo`ldi.

Farg`ona vodiysi ustalarining ijrochilik mahorati ortib borayotganligi ularga qo`shni davlatlardan ko`plab buyurtmalar kelayotganligidan ham bilish mumkin. Masalan: so`ngi yillarda I.Mamadaliyev Sochi, Kislovodsk shahar-laridagi bir necha sanatoriyalarning foesini, A.Akparov Ufa shahridagi TSDUM ning ma`muriy binosi va mehmonxonasi, Nijnekamskiy shahridagi «Madaniy markaz» binosi, Mamadish, To`ymazi, Qozon, Moskva shaharlaridagi bir necha binolarni bezab qaytdilar.

Vodiya ushbu yillar davomida bajarilgan ishlarning barchasiga ijobiy baho berib bo`lmaydi. Kulolchilik va ganchkorlik ishlarini bajaruvchi brigadalarning haddan tashqari ko`payib ketishi oqibatida ko`plab binolarda ushbu san`at turlari

ishlatilishining xojati bor yo`qligidan qattiy nazar inter'eralar shiftdan polgacha to`ldirib tashlanganligini kuzatamiz. Bunday holat vodiyning barcha shaharlarida mavjud, aholining haqiqiy san`at bilan qalba-kilikni ajrata olmay qolayotganidan, bunday «usta buzlar» larga ma`muriy chora ko`rilmayotganligidan mashhur usta Qodirjon Haydarov umrilarining oxiriga qadar nolib yurdilar. Bozor iqtisodiga o`tish munosabati bilan «usta buzlar» faoliyati yanada faollashdi. YAgona chora maktab yoshidan boshlab bolalarni tasviriy va amaliy san`at nazariyasidan xabardor qilib, xakikiy san`at va qalbakilikni ajirata oladigan qilib tarbiyalashdadir.

Respublikamizni mustaqil bo`lishi xalq amaliy san`ati ustalariga yanada o`z kasbiga mas`uliyat bilan yondoshishni taqozo etadi. YOsh davlatimizni jahon ommasiga tanitishda tasviriy va amaliy san`atimizni tutgan o`rni alohida muhimdir. Ming yillar davomida shakllanib, o`zining alohida maktablariga ega bo`lgan san`atimiz go`zalligi va mukammalligi bilan jahonda tengsizdir. Buni Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa tarixiy shaharlarimizdagi asori-atikalar isbotlab turibdi. Bugungi kunda ijod qilayotgan ustalarimizning xalqaro maydondagi yarim obro`sini bobolarimiz tiklab qo`yishgan. Xorijiy davlatlardan bizning ustalarimizga tez-tez murojat qilinishini sababi ham shunda bo`lsa kerak. Hozirda ustalarning vazifasi bobolarimiz san`atini chuqur o`rganib, an`anaviy maktablarimizni davom ettirgan holda uni rivojlantirishdan iboratdir. Tasviriy va amaliy san`atimizni takomillashtirishda mutaxassislarining ijro mahorati saviyasi-ning mukammalligini hisobga olgan holda ish taqsimotiga erishish zaruriyati muhimdir. Ilgari joylarda badiiy fondlar monopoliyasi mavjud bo`lib, musavvir va ustalarning istaklarini, ijodiy ehtiyojlarini qondiradimi yoki yo`qmi mutaxassis ijod qilishni niyat qilgan ekan aynan badiiy fonda ishlashga majbur edilar. San`atda halol raqobat bo`lmas ekan katta olg`a siljishdan umid qilib bo`lmaydi. Ota bobolarimiz yakka tartibda maktablar yaratganlar. Shogirdlari bilan birgalikda san`atning barcha talablariga javob bera oladigan darajada ijod qilayotgan ustalar, aslida o`zlari bir firmadirlar, kelgusida bular yirik bir maktabning asoschilari bo`lib qolishlari mumkin. Ko`plab rassom lar va xalq ustalari xususiy tadbirkor sifatida

mustaqil ish yuritmoqdalar. Bunday harakatlarning ijobiy tomonlari bo`lishligi bilan birgalikda salbiy tomonlari ham ko`zga ko`rina boshladi. Hozirda u qanday yunalishdagi firma bo`lishidan qattiy nazar, juda ko`pchiligida ustavlariga badiiy ishlarni bajarib berishlikni kiritganlar. Buni hech kim man qilmaydi. Biroq oqibatda bilim va tajribaga ega bo`lmagan shaxslar tomonidan bajarilgan mutloq san`at talablariga javob bera olmaydigan past saviyadagi ishlar ko`payib bormoqda. O`zining ko`plab yirik mutaxassislariga ega bo`lgan vodiya bu ko`rinish mutloq yul qo`yib bo`lmay-digan holatdir.

Hech qachon shahar bedarvoza bo`lgan emas. Qadimda ham shaharlarimizda barcha hunarmandlarning hurmatini qozongan, ular tomonidan tan olingan «Ustai kalon» bo`lib qaerdagi ishni qaysi usta qila olish taqsimotidan tortib, ustalar o`rtasida vujudga kelgan ayrim nizolargacha hal qilib bergan.

Namangan, Farg`ona, Andijon viloyatlarida O`zbekiston Badiiy Akademiyasining viloyat bo`limlari faoliyat yuritmoqdalar. Bo`limlarning asosiy vazifasi ko`rgazmalar tashkil qilish, rassomlarning katalog, bukletlarini chiqarish, al`bom va kitoblar chiqarish, ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish, musavvirlarni matbuot, radio, televedinie orqali chiqishlarini tashkil qilish, ilmiy kengash, badiiy kengash o`tkazish, nizoli vaziyatda ekspert kengashini o`tkazib berish bilan shug`ullanadi.

Respublikamizda san`atning barcha turlarini va mualliflarning ish haqini belgilash qo`llanmasi faqat ushbu tashkilotda mavjud bo`lib, tashkilot badiiy kengashi orqali san`atga dahldor ishlarni baholab berish vakolatiga ega. Ko`rinib turibdiki, viloyatlarda san`atga dahldor ishlarni bajarishga jazm qilgan tashkilot bo`ladimi, firma bo`ladimi avval eskizlarini, so`ngra amalda bajargan ishini badiiy kengash nazoratidan o`tkazsa o`z-o`zidan san`at talablariga javob bermaydigan ishlarning viloyatlarimizda paydo bo`lishligining oldi olingan bo`ladi.

Respublikamiz mustaqil bo`lib eski iqtisodiy aloqalar uzilishi munosabati bilan badiiy hom-ashyolar muammosi vujudga keldi. Bir vaqtlar ota-bobolarimiz badiiy ishlar uchun ishlatgan hom-ashyolarning deyarli barchasini shu erning o`zida tayyorlaganlar. Unutilib ketgan bo`yoqlar tayyorlash texnologiyasini qayta

tiklash, zamonaviy texnika yutuqlari-dan foydalangan holda ishlab chiqarishga qo'yish muhimdir. SHu o'rinda bir taklif bildirib ketmoqchimiz. Respublikamiz hududida bir necha keramika korxonalarini bor, hozir barchasida glazur (sir) muammosi ko'ndalang turibdi. Respublikamizga kerak bo'lgan tovarlarni berib ayirboshlash yoki sof valyuta hisobiga olib kelinmoqda. Bu glazurlar qalay kukunidan olingan bo'lib sifati juda pastdir. Tashqarida quyosh, qor yomg'ir ta'sirida 4-5 yilda sifati buzilib, ko'chib ketadi. Ota-bobolarimiz ishlatgan sir esa 400-500 yillardirki me'moriy binolarimizni bezab turibdi. Vodiya Jiydali soy, Qandiyon, Paytuk atroflarida va boshqa manzillarda «Ishqor», «Qirq bo'g'in», «Go'lak» degan o'simlik o'sadi. Gurumsaroy kulollari ushbu o'simliklar kulidan ishqorli sir tayyorlab ishlatib kelishgan. Ma'lumki tabiiy holatda o'sib yotgan bu o'simliklarni o'sha tumanlarda urug'ini olib plantatsiya holatida ham o'stirish mumkin. Birinchi yillari ozroq erda, keyinchalik gektarlab erlarda etishtirib, Respublikamizning sirga bo'lgan ehtiyojini qondirsa bo'ladi. «Qirq bo'g'in», «Go'lak» o'simliklarini sirga aylantirish texnologiyasi juda oddiy bo'lib, hattoki uy sharoitida ham amalga oshirish mumkin. Ishqoriy sirning afzalligi esa ko'z o'ngimizdagi qadimgi me'moriy obidalarimizdagi qoshin, terrakota, mayolika va mozaikalarda ko'rinib turibdi.

Inson tabiatan hayotini yanada go'zallashtirish yangi narsalar bilan boyitish ishtiyoqi bilan yashaydi. Yangilikka intilish amaliy san'atga ham begona emas. Arxitektura inshootlarini bezashda bir necha planli buyurtma forma-lardan foydalanayotganligi, bir necha soha mutaxassis-larining hamkorlikda ish yuritayotganligi, badiiy buyumlar bezash sohalarida yangi–yangi shakllar paydo bo'lib, naqshlar yangi detallar bilan boyib borayotganligini tabriklash mumkin. An'anani buzmaganda yangi ko'rinishlar bilan boyib borishi san'at rivojiga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda noo'rin harakatlar ham mavjud. Evropa naqshu-nigorlarini milliy naqshlar bilan aralashtirib ishlashga harakat qilish hollari ko'p uchraydi. Bunday holatni asrimiz boshida ijod qilgan Andijonlik ustalar ishlarida, Namangandagi «Otalar choyxonasi», Namangan Davlat Universiteti (avtor M.Xusainov) foyesida uchratish mumkin.



Badiiy buyumlar ishlash, kashtachilik, popochilik, gilamchilik sohalarida ko`plab gerb, oy, xumo qushi, mashina, samolyot, har xil sanalar bitilgan kirilcha yoki lotincha yozuvlar, beo`xshov portretlar, tabiiy ko`rinishdagi gullar kabi ko`plab amaliy san`atga begona ko`rinishlar kirib qoldi. Qadimda mashhur bo`lgan maktablarning bugungi vakillari milliy an`anani buzib yuborganliklarini ham guvohi bo`lmoqdamiz. Bir paytlar mashhur bo`lgan Chust pichoqchiligini olib ko`raylik, bugungi Chustda ishlab chiqari-layotgan, ayrimlar tomonidan ko`rgazmalarda rag`batlantirilayotgan pichoqlarning mashhur Chust pichog`iga hech qanday dahli yo`q. Faqat sanoqli ustalargina bobomeros pichoqlarni topib, an`anani tiklashga harakat qilmoqdalar. Yoki Namangan kulolchiligini olib ko`raylik, mashhur maktab bugun ham o`sha avlod vakillari tomonidan davom ettirilmoqda, lekin hozirgilar chiqarayotgan maxsulot bobolarnikidan butunlay farq qiladi. 1930 yillarda artel`ga aylantirilib yakka xo`jalik asosida ishlayotgan ustalar keng iste`mol mollari ishlab chiqarishga majbur bo`lib qolganligi, ularning farzandlari otalaridan ota kasbi sir-asrorlarini o`rgangan bo`lsalar xam, bir umr iste`mol mahsuloti ishlashga majbur bo`lganligi, ular oilasida tug`ilgan xozirgi 3-avlod vakil-lari faqat keng iste`mol mollari ishlashnigina ko`rib katta bo`ldilar. Ular o`sha mashhur kulolchilik maktabi vakillari bo`lgani bilan, umuman bobolari hunaridan bexabar ustalardir. Natijada mashhur maktab vakillari ishlab turgan bo`lishlariga qaramay hali eski maktab an`analari tiklanganicha yo`q. San`atshunoslar ijodkorlarga yo`l ko`rsatib berishi emas ularning qilgan ishlarini ilmiy o`rganishi kerak. Lekin yuqoridagiday holatlarda eski Chust pichog`i namunalaridan, eski Namangan kulollari ishlari namunalaridan muzeylar yordamida topib ustalarni to`g`ri yulga yani bobolari san`atini davom ettirishga va takomillashtirish yuliga solib qo`yishi muhimdir.

Bugun Farg`ona vodiysida bir necha etuk amaliy san`at vakillari yashab ijod qilishmoqda. Biroq ularga shogirdlar biriktirish masalasi hal qilinmagan. Agar qaysi bir etuk san`atkorni olib ko`rsak, hoh tasviriy san`at, yoki amaliy san`at sohasida bo`lmasin albatda mukammal bir ijodkorga shogird bo`lganligiga guvoh bo`lamiz. Yuzlab yillar davom etib kelgan G`urumsaroy kulolchilik maktabida

bugunga kelib mashhur ustalar Hokim buva Sotimov, Mahmud aka Raximov, Maqsudali aka Turopovlar olamdan o`tib ketishdi. Birgina Vohobjon Buvayev kulolchilikni davom ettirmoqda. Mashhur ustalar humdonlari hamon sovuqligicha qolmoqda. Farzandlari davom ettirmayotganligining yagona sababi kulolchilik daromadli ish emas. Agar vaqtinchalik iqtisodiy muammolarni vaj qilib mashhur ustalarning xumdonlari sovib qolishiga yul qo`yilsa kelgusi avlod bizni kechirmaydi. Hozir Namangan, Andijon, Farg`ona Davlat universitetlari qoshida amaliy san`at bo`limlari ochilgan. Afsuski amaliy san`at bilan shug`ullanuvchilar soni qancha ko`p bo`lsa san`at ham rivojlanib ketadi degan tushuncha hamon yuqolmayapti. Bu bilim dargohlariga shu sohaning etuk mutaxassisleri etarlicha taklif qilinishi lozim. Qaysi region bo`lmasin u erning umumiy san`atda tutgan o`rni shug`ullanayotgan odamlarning soni bilan emas, yaratilayotgan asarlarning badiiy saviyasi yuqoriligi bilan o`lchanadi. Badiiy asarlarni esa shaxslar yaratadi. Bir etuk mutaxassis butun bir bilim dargohining qo`lidan kelmagan ishni qilishi mumkin. Mashhur ustalar: Qodirjon Haydarov, Saidaxmad Mahmudov, Ibrohimjon Komilov, Javlonbek Jamalovlar tayyorlagan shogirdlardan yuzga yaqini bugungi kunda O`zbekiston Badiiy Akademiyasi Badiiy Ijodkorlar uyushmasi a`zosi dirlar, ular ko`plab xorijiy ko`rgazmalarda ishtiroki, mamlakatimizda va chet ellarda yirik inshootlarning badiiy bezash ishlariga mualliflik qilishlari bilan, yurtimiz san`ati shuhratiga munosib hissa qo`shib kelmoqdalar. Yuqorida nomlari zikr etilgan to`rt nafar usta etishtirgan etuk ustalar kabi mutaxassislarni hozirgacha bironta vodiydagi oliy yoki o`rta san`at bilim dargohi etishtira olgani yo`q. Demak etuk ustalar etishtirish borasida faqat badiiy bilim dargohlarida tayyorlangan talabalar soni bilangina chegaralanib qolmasdan usta-shogirdlar tayyorlash muammosiga ham katta ahamiyat berish lozimdir.

An`anaviy san`atimiz shuhratini dunyo xalqlariga tanishtirishda ham shaxsning tutgan o`rni muhim ahamiyatga ega. Masalan, Rishtonda keramika zavodi ishlab kelmokda, yuzlab kishilar kulolchilik bilan shug`ullanadi. Biroq Rishton kulolchiligi shuhratini so`ngi 40 yil ichida faqat ikki nafar: usta Ibrohimjon Komilov va usta Sharofiddin Yusupovlar xalqaro maydonda tanitib

keldilar. Gurumsaroyda uch nafar kulol: X.Sotimov, M.Rahimov, M.Turopovlar ijod qilishgan bo`lsa ham ular Gurumsaroy kulolchiligi maktabini yarata oldilar. Ularning asarlari Italiyaning Feanse shahridagi butunjaxon keramikasi muzeyidan o`rin olgan. Gurumsaroy maktabini butun dunyo tan oladi. Xorijiy ko`rgazmalarda namoyish qilishga arzigulik badiiy asarlar yarata oladigan ustalarga ijod qilish uchun sharoit yaratib berish, O`zbekiston Badiiy Akademiyasi Badiiy Ijodkorlar uyushmasi, yerlik hokimiyat tomonidan moddiy va ma`naviy rag`batlantirilib turishlik dolzarb masaladir.

Farg`ona naqqoshlik maktabining uslubi tojik namunalariga o`xshab ketadi.Naqsh kompozitsiyalarida ortiqcha shakl yasovchilarisiz zamin bo`shliqlari islmiy gul vaq novda shakllari bilan mohirona to`ldiriladi. Farg`ona naqshlariga to`qroq, qarama-qarshi ranglar jilvasi ulug`vorlik bag`ishlaydi. Farg`ona naqqoshlik maktabihaqida gap ketganda Qo`qonlik naqqosh ustazodalar nomlarini faxr bilan tilga olish mumkin. Ular Norqo`zi Nurmatov,Saidmahmud Norqo`ziyev, Saidahmad Mahmudovlardir. Mustaqilligimizning ilk yillarida o`zining 80-yoshlik to`ylarini nishonlab, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi unvonini olgan Saidahmad Mahmudovning ko`plab shogirdlari bor.

Shuningdek Farg`ona naqqoshlik maktabi nomi bilan tilga olinadigan Xo`jand, Marg`ilon, Qo`qon, Farg`ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq, va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublarda ijod qilgan ustazoda Saidahmad Norqo`ziyevni ham alohida takidlash lozimdir.Bugungi kun yoshlar ularning ishlarini sadoqat, ixlos, mehr-muxabbat bilan organmoqdalar. Bu yo`lda ularga bajonidil ustozlik qilib keayotgan Namangan naqqoshlik maktabini asoschilaridan biri xalq ustasi, yetuk mutaxassis rassom va naqqosh Asqarbek Akparov shular jumlasidandir. O`sh yiloyatida 1951-yilda tug`ilgan , yuksak mahoratli qilqalam sohibi. Asqarbekning ota avlodi 1917-yidagi o`zgarishlardan keyingi alg`ov-dalg`ov yillari borib qolishgan. Aslida esa bo`g`usi xalq ustasining ota jihat avlodlari Yangiqo`rg`on tumanidagi Iskovot qishlog`idanu, ona taraf qarindoshlari Namangan

shahrining Langa Buvasida istiqomat qilganlar. Asqarbek 12yoshga kirganida ota-onasi bilan qadimiy shaharlardan biri bo'lgan Qo'qonga avtomobil yo'llari texnikumida tahsil olayotgan ikki akalarini ko'rgani boradyu, aylanib Xudoyorxon saroyiga , jom'e masjidiga xalq amaliy san'ati yodgorliklarini ko'rgani kiradi. U yerdagi naqshlar, buyumlarga ishlangan badiiy bezaklar yosh Asqarbekka qattiq tasir qiladi.

U Qo'qondagi ta'ssurotlarisabab halovatini yo'qotadi, endi uni qo'lidan qog'oz, qalam tushmaydigan bo'lib qoladi . Ona tabiatdan jo'shgan qalbni, Moniy va Kamoliddin Behzodlar san'atiga, milliy san'atimiz farzandidagi qiziqishni sezgan volidai muxtaramasi Buvixon aya Asqarbekni Yangiqo'rg'on tumaninigIskovot qishlog'idagi qo'li gul , mohir naqqosh Javlonbek Jamalovga shogirdlikka olib boradi.

Asqarbrk juda tez fursatda ustasidan amaliy san'atning ilk saboqlarini olib, boshqa shogirdlaridan tubdan farq qilib qoladi. Javlon aka chizgan naqshlarga pardozi berib, siyohqalam bilan bajariladigan ishlarini binoyidek uddalaydiganbo'ldi. Shogirdidagi didni , ihtiyorni ko'rgan ustoz Asqarbekni Toshkentga borib o'qishni davom ettirish kerakligini ta'kidlaydi. 1969-yili Toshkentga keldi va P.P Benkov (hozirgi Behzod ) nomidagi san'at bilim yurtiga kirdi. Bu yerda xilma-xil rang turlariniva ularning sexrli dunyosini o'rgana boshladi. U atoqli naqqosh , san'at arbobi Yoqubjon Raufov , va ukishining shogirdi Toir To'xtaxo'jayev , O'zbekiston xalq rassomi Jalil Xakimovlar naqqoshlik , ganch o'ymakorligi , amaliy san'atning eng nozik qirralarini shogirdlari qalbiga joylaganlar. Asqarbek naqqoshlik san'atinito'la ilmiy asosda o'rganib boradi va uni oxiriga yetkazadi. Ustozlar esa o'z vaqtida uning iste'dodini unib - o'sishiga g'amxo'rlik qildilar.

Naqqoshlik ilmini to'la ilmiy asosda o'rganib boradi va uni oxiriga yetkaza oldi. U1975-yildan Qo'qon badiiy ishlab chiqarish ustaxonasida, 1982-yildan Namangan rassomchilik ustaxonasida faoliyat ko'rsatib keldi.

1977-79-yillarda Farg'ona badiiy kengashi raisi sifatida ishlay boshladi.U amaliy san'atini katta ijodiy yo'lini bosib o'tdi. Shuningdek ustaning

asarlari Shvetsariya, Mongoliya, Olmoniya, Hindiston, Makedoniya, Misr Arab respublikasi kabi mamlakatlarda ham ko'rgazmalarda ham ishtirok etgan. O'zbek milliy san'atini, xususan Namangan amaliy san'at maktabini dunyoga tanitish baxtiga muyassar bo'ldi. O'zbekiston istiqlolga erishgach davlat tomonidan tasviriy san'at xalq amaliy san'at ijodkor ustalarining qadimiy va navqiron an'analariga munosib ravishda ijod qilishlari, ularning asarlari ham xalqaro miqyaslarida obro'-e'tibor qozonishi, avvalgi hurmat e'tiborini topishi, boy berila boshlagan yuksakliklarni qayta egallash uchun hayrli tadbirlar o'tkazila boshlandi. Muhim tarixiy qarorlar qabul qilindi va prezident qarorlari qabul qilindi va prezident farmonlari chiqdi.

Yurtboshimizning 1997-yilning 23-yanvaridagi maxsus qarori bilan ish boshlagan O'zbekiston Badiiy Akademiyasi va uni qoshidagi maxsus jamg'armaning tashkil etishni, hunarmandlar uyushmasining faoliyat ko'rsatishi ham ana shunday xayrli ishlar sirasiga kiradi. O'z navbatida ana shu tashkilotning Namangan viloyat bo'limi ham ochildi, Badiiy Akademiyaning viloyat ijodkorlar uyushmasi va maxsus jamg'arman viloyat bo'limlari ham o'z faoliyatini boshladi. 1999-yildan sermahsul ijodkor, fidoiyinson, jonkuyar tashkilotchi bo'lgan Asqarbek Akparov O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Namangan viloyat badiiy ijodkorlar uyushmasi boshqaruv raisi etib tayinlandi. Shunday qilib Namangan naqqoshlik maktabi shakllandi.

### **2.3 Xorazm viloyatida amaliy san'at.**

Amaliy san'at rivojlangan davlatlardan biri Xorazm davlati hisoblanadi. Miloddan avvalgi IV asrd a ahamoniylar zulmidan ozod bo'lgan Xorazm makedoniyalik Iskandar (Aleksandr Demetriy portretiMakedonskiy) bilan aloqalarini yaxshiladi. Xorazm shohi Farasnmn Iskandarga sovg'a- salomlar yuborib o'z o'rnini mustahkamladi. Shu davrdan boshlab Xorazm o'zining rivojlangan davrini boshidan kechirdi va bu taraqqiyot yangi eraning IV asrigacha davom etdi. Shu davrda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatidan rivojlanib O'rta sharqdagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Shu davrda Xorazmning o'zga xalq va elatlar bilan aloqasi Xorazm tangasi kuchaydi, savdo-

sotiq rivojlandi. Nisbatan tinch hayot davlatning madaniy rivojiga zamin yaratdi. Me'morlik, tasviriy va amaliy san'at, uning tarkibiy qismi bo'lgan hunarmandchilik taraqqiy etdi. Shu davrda sun'iy sug'orishga e'tibor berilib katta kanallar barpo etildi, ular tarmoqlashib katta maydonlarni suv bilan ta'minladi. Ayni shu davrdan Xorazmda ko'plab manzilgohlar, harbiy istehkomlar vujudga keldi. Bu qal'a istehkomlar atrofi pishiq qalin devor bilan o'ralib, darvozalari oldida chalkashtiruvchi yo'llar barpo etildi. Bizgacha vayronalarda yetib kelgan bu davming me'moriy arxeologik yodgorliklari, tasviriy va amaliy san'atning ayrim namuna va ularning bo'laklari shu davming boy estetik qarashlaridan dalolat beradi. Shu davrga oid yodgorliklardan biri Qo'yqirilgan qal'a hisoblanadi. Qal'a qalin devor bilan o'ralib, atrofi esa suv to'ldirilgan zovur bilan aylantirilgan. Arxeologik qazish ishlari olib borilganda bu yerdan har xil xumlar, haykallar topilgan. Qal'a xonalarining devorlari esa rasmlar bilan bezatilgan bo'lganligi shu davrdan saqlanib qolgan devor parchalarida ko'rinadi. Bu yerdan ko'plab sopoldan yasalgan turli idish va haykallar topilgan. Bular ichida sher boshi haykali ishlangan idish dastagi, sharob ichishga mo'ljallangan ritonlar, yuzasiga turli tasvirlar ishlangan maishiy buyumlar, afsonaviy mavjudotlar, erkak va ayol haykallari bor. Ayniqsa kvadrat, ba'zida dumaloq qilib ishlangan qutilar qopqog'ida yarim beligacha, ba'zida bo'y-basti bilan ishlangan o'tirgan odam (ayol, erkak) haykali bo'lgan topilmalar betakror. Ular zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan va marhumlarning suyagini saqlash uchun ishlatilgan. Xorazmning bu davr me'morligi xususida fikr yuritganda shu davrdan saqlanib qolgan Jonbos, Burgutqal'a me'moriy majmualarini eslash kerak. Xorazm davlatining muhim qo'rg'onlaridan hisoblangan bu manzillar me'morlikning davr mafkurasi, uning asosiy dini bo'lgan zardushtiylik bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu yerda ham muqaddas olov saqlanadigan uylar bo'lganligi shundan dalolat beradi. Xorazmning Ko'zaliqo'rg'onni qalin devor bilan o'ralgan, devor minoralar bilan mustahkamlangan. Qo'rg'on markazida katta inshoot - hukmdor saroyi qarorgohi qad

ko'targan. Olimlar fikriga ko'ra bu qo'rg'on qadimgi Xorazm davlatining dastlabki poytaxti bo'lgan.

O'rta Osiyodagi nodir yodgorliklardan biri Tuproqgal'a hisoblanadi. 12 m balandlikka ega bo'lgan sun'iy tepalik ustiga qurilgan bu qal'a to'rtburchak shaklida bo'lib, 500x350 m maydonni egallaydi. Maydon atrofi mustahkam devor bilan o'rab chiqilgan. Qal'aning shimoli-g'arbidagi burchak tomonda Xorazm shohlarining saroylari joylashgan. Saroyning mahobatli uch minorasi esa butun qal'a ko'rinishiga mustahkamlik baxsh etgan, uning jiddiy bo'lib ko'rinishini ta'minlagan. TuproqqaPa xonalari bir xil emas. Tor yo'lakchalar egri ravoqlar bilan yopilgan, aksincha, katta xonalar nur-quduqlarga ega bo'lgan, mustahkam ustunlar esa xona kengligini oshirish uchun, uzun to'sinlarga mustahkamlik berish yoki ularni uzaytirish uchun ishlatilgan. Saroy xonalari haykaltaroshlik va rangtasvir bilan bezatilgan. Qabulxona (mehmonxona) serbezak bo'lgan. Devoriy surat va bo'rtma tasvirlar xonaning ko'rkam va go'zalligini oshirgan. Loydan yasalgan haykallar devor bo'ylab qilingan supachalarga o'matilgan. Supachalar jimjimador panjaralar bilan alohida seksiyalarga ajratilgan. Har bir seksiyada mustaqil haykaltaroshlik kompozitsiyasi bo'lgan. Bu haykallar bizgacha qisman saqlanib qolgan. O'tirgan holda tasvirlangan podshohlar (natural o'lchamdan ikki marta katta), yon tomondan turgan holda tasvirlangan erkak, ayol va bolalarning haykali qo'yilgan. «Suvoriylar (jangchilar) zali» deb nomlangan xona devorida qoldirilgan tokchalarda podshohlar haykali qo'yilgan. Devor oldida esa qo'lida qurol ushlab turgan jangchilar haykali bo'lgan. «Qayiqlar zali» deb nomlangan xonada o'simliklar, pastroq tomonda natural kattalikda kiyiklarning bo'rtma tasviri — barelyefi ishlangan. Tuproqgal'adagi kichik xonalar faqat devoriy suratlar bilan bezatilgan. Shunday xonalardan birining devoriga ishlangan arfa chaluvchi qiz surati bizgacha birmuncha yaxshi saqlangan.

Madaniy meros, madaniy boyliklar, koʻhna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan boʻlib xizmat qiladi. Gilam toʻqish sanʼati ham xalq amaliy bezak sanʼatining keng tarqalgan turlari hisoblanib, u koʻp asrlik milliy anʼana va uzoq tarixga ega. Uning tarixiy ahamiyatini dunyo xalqlari muzeylarida saqlanuvchi gilamdoʻzlik yodgorliklari, turli kolleksiyalar, 4 badiiy fondlar, shuningdek tarixiy qoʻlyozmalar hamtasdiqlab turadi. Barcha xalqlarda gilamdoʻzlik sanʼati qadim zamonlardan beri rivoj topganligini arxeologik topilmalar ham tasdiqlab turadi. Gilamdoʻzlik yurtimizda qadimdan rivojlangan. Ushbumaktab oʻziga xos yorqin va takrorlanmas ranglari, koʻrkam naqshlari, toʻqish uslubi bilan ajralib turadi. Jahonning turli mamlakatlaridagi qadimiy shaxristonlar, arxeologik yodgorliklardan zaminimizda yaratilgan gilamlarning namunalari topilgani, koʻplab davlatlarning etakchi muzeylarida oʻzbek gilamdoʻzligining noyob namunalari saqlanayotgani milliy hunarmandchilikning ushbu turiga dunyo miqiyosida eʼtibor va qiziqish katta ekanidan dalolatdir. Oʻzbekiston hududida amaliy bezak sanʼati neolit davri (mil. av. 5–2 ming yillikalar) dayoq yuzaga kelgan. Kundalik roʻzgʻorda ishlatiladigan buyumlarni tayyorlash shuningdek turar joylarni jihozlash bilan bogʻliq holda paydo boʻlgan.

XIX asrgacha yaratilgan amaliy sanʼati namunalariining oz qismi bizgacha etib kelgan. Saqlanib qolgan materiallar bu sanʼatning ayrim turlari, ularning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, anʼana va uslub xususiyatlarini belgilash imkonini beradi. Maʼlumotlarga qaraganda eng qadimgi (eramizdan avvvalgi 5 asrlarga mansub) qoʻlda toʻqilgan gilamlardan biri 1949 yilda arxeologik olim S. N. Rudenko tomonidan sobiq ittifoq hududining Pazariq vohasidan 5 km uzoqlikda Oltoy togʻi muzliklaridan topilgan. Gilamning 2500 yil muzliklarda qolib ketishiga qaramay, deyarli shikastlanmay saqlanganligi qadimgi gilamdoʻzlarning ulkan mahoratidan dalolat beradi. Hozirda gilam davlat ermitajida saqlanib kelinmoqda. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha qadimdan Ossuriya, Bobil keyinchalik Eron, Hindiston, Turkiya gilamlari mashhur boʻlgan. Eronda gilamdoʻzlik ayniqsa shoh Tammasha (1524–1576 yillar)



va shoh Abbos davrlari (1586–1623 yillar)da keng rivoj topdi. Ustaxonlarda gilamlar jun, ipak va zar iplardan tayyorlangan. XII asr qo‘lyozmalarida o‘sha davrlarda gilam to‘qish san‘ati O‘rta Osiyoda ham rivoj topganligini tasdiqlaydi. Turli xorijiy mamlakatlardan kelgan ustalar gilam to‘qish ustaxonalarida ishlaganlar. Gilamlar o‘tmishda er bag‘irlab yotiq holatda o‘rnatilgan pastak, sodda dastgohda to‘qilar edi. Keyinchalik to‘quv dastgohlari ancha mukamallashdi. Bu dastgohlarda to‘quvchi ayollar yonma-yon o‘tirib, birdaniga to‘qiydigan keng g‘altakli xillari yasaldi. XI–XII asrlarda O‘rta Osiyoda shu jumladan, O‘zbekiston hududida gilam to‘qish san‘ati juda rivojlangan. XIV asrning 2-yarmida O‘rta Osiyoda gilamchilik san‘ati rivojlanib ketdi. Turli xorijiy mamlakatlardan kelgan ustalar gilam to‘qish ustaxonalarida ishlaganlar. XIV–XV asrlarda X–XIII asrlarda shakllangan naqsh uslubi yanada taraqqiy etdi. Buyumlar shakli, unga uyg‘un holda bo‘linishi va berk xandasiy maydon, hoshiya, yo‘l, turunjarga bo‘ysindirilgan o‘simlik va yozuvli naqsh mujassamoti ularga uzluksiz harakat, kuch, cheksizlik, barqaror sokinlik hissini baxsh etish bilan birga hayot jo‘shqinligi, abadiyligi va go‘zalligini yaratdi.

XVIII asrdagi murakkab tarixiy sharoitlarda amaliy san‘ati sekin-sekin rivojlandi, biroq u o‘zining asosiy hayotiylik mazmunini va ip matolar ishlab chiqarish, ipakchilik, gilamchilik, palos to‘qish, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yog‘och, metallga badiiy ishlov berish kabi barcha turlarini saqlab qoldi. Qadimgi an‘anaviy vorislik xususiyatlari ham saqlandi. Ommaviy buyumlar shakli ixcham va nafis bo‘lib, ularning bezagida alohida egiluvchan chiziqlarning oquvchanligi bilan berilgan gullagan bog‘ mavzulari etakchi o‘rin tutdi. Ular ko‘pincha xandasiy, osmon jismlari, narsalar, yozuvlar va hayvon shakllari bilan uyg‘unlashtirildi. Hayvon shoxlari yoki qushlarning panja, tirnoqlari, qosh-ko‘zlari butunning bir bo‘lagi sifatida ifoda etildi. Andijon, Samarqand, Buxoro, Marg‘ilon, Xiva, Toshkent to‘qimachilik markazlarida gulsiz va murakkab gulli ip, jun matolar, gilamlar tayyorlangan. Bu iplardan tayyorlangan buyumlar taqsimli va markaziy mujassamotlarga

joylashtirilgan chiroyli serhasham gulli mavzular etakchi o‘rin tutgan. Ularning sho‘xchan ranglardagi ajoyib guli orasidan daraxtlar, shox-butoqlar, gullar mevalarning tasvirlarini ilg‘ab olish mumkin, bo‘yash usuli tufayli nayza shakli va mayin oquvchan titroq chiziqli rang dog‘larining ta‘sirchan o‘yini yaratilgan. XIX asrning oxirigacha gilam to‘qishda o‘simliklardan tayyorlangan bo‘yoqlar ishlatilgan keyin esa anilin bo‘yoqlaridan foydalanila boshlandi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida xalq amaliy san‘ati taraqqiyoti juda murakkab va qarama-qarshiliklarda kechdi. Unda yangi uslubiy belgilar yangi obrazlar echimlari kuzatildi. Bu davrga yana uslubiy yangiliklar-to‘qimachilik, kashtachilik, gilamchilikda chidamsiz va o‘ta yorqin anilin bo‘yoqlarini ishlatilishi avj oldi. Anilin bo‘yoqlarining keltirilishi kashtachilik va gilamchilikka o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi, mayin tuslarga ega bo‘lgan o‘simlik bo‘yoqlari o‘rnini anilin bo‘yoqlari egalladi. Faqat arbandi ustalargina g‘aroyib sezgirlik bilan ularni qabul qildilar, qarama-qarshi kuchli yonib turgan ranglardan to ularning nafis tuslarigacha bo‘lgan ifodali mutanosib uyg‘unligini topa oldilar. XIX asrning eng yaxshi an‘analari patli gilam buyumlar va an‘anaviy xandasiy gulli paloslar ishlab chiqarildi. Ilk bor portretligilam (usta G‘. Abdullaev) yaratildi. 60–70 yillarning oxirida gilamchilik va palos to‘qish, kigizchilik rivojlanib bordi. O‘zbekistonning turli tumanlarida gilamchilik korxonalarini tuzildi ,avvallari xonadonlarda ishlab chiqarish bilan chegaralangan gilamchilikning mahalliy an‘analari va to‘quvchilarning mahorati keng omma mulkiga aylandi. Samarqand viloyatida ajoyib uzun patli julxirslar tayyorlandi. Ularning guli va ranglari qizil jagarrangdan quyuk va to‘yingan to‘q qizil ranglargacha cheksiz turlandi turli xil handisiy gulli (“arabi”, “gajari”, “terma” va b) paloslar yorqin kontrast ranglarni uyg‘unlashtirib to‘qildi. Gilamlar o‘tmishda er bag‘irlab yotiq holatda o‘rnatilgan pastak, sodda dastgohda to‘qilar edi. Keyinchalik to‘quv dastgohlari ancha mukamallashti. Bu dastgohlarda to‘quvchi ayollar yonma-yon o‘tirib, birdaniga to‘qiydigan keng g‘altakli xillari yasaldi. Gilam ustida ishlagan rassomlar XIX

asrning birinchi yarmida yuksalgan Xorazm amaliy bezagi va mahobatli san'ati an'analariga tayandilar.

XIX asrning oxirigacha gilam to'qishda o'simliklardan tayyorlangan bo'yoqlar ishlatilgan, keyin esa anilin bo'yoqlaridan foydalanila boshlandi. Keyinchalik pat gilamlar maxsus dastgohli korxonalarda to'qiladiganbo'ldi.

Xorazmda gilamchilik bilan turkman va qoraqalpoqlarshug'ullangan. turkman va qoraqalpoq to'quvchi xotin-qizlarning ishlari o'ziga xos bo'lib, ular ayollar kiyimlaribosh kiyimi, yopinchiq, to'nlarini bezagan. Kashta gullarida o'sha naqsh mavzulari etakchilik qiladi. Kashta gullarida o'sha naqsh mavzulari etakchilik qiladi. Rasmlari rang-barang, biroq tuslari cheklangan, nozik va nafosati bilan ajralib turadi. XX asarning 50-yillari o'rtalaridan o'zbek gilamining yangi shakllari ustida ijodiy izlanishlar boshlandi. Avvalgi asrlarda gilamchilik an'anasiga ega bo'lmagan Xorazm rassomlari bu sohada muvaffaqiyatli ish olib bordilar. Turkman gilam to'quvchilari yordamida to'qish jarayonini o'zlashtirgan xivalik va xonqalik ustalar turkman nusxalaridan gilam to'qish bilan cheklanib qolmadilar, izlanishlar dastlabki xorazm gilamining to'qilishi bilan yakunlandi.

Gilamlar naqsh bezaklari, to'qilish uslubi, bo'yalish texnikasi va sifat darajasiga qarab bir-biridan farqlanib turadi. Gilamlarning to'qima, tikma va bosma xillar mavjud. Gilamlar kalta patli 3–7 mm va uzun patli 8–17 mm qilib to'qiladi. Gilamlar to'qilgan joyi yoki to'qilgan korxonaning nomi bilan yuritiladi. Turkman gilamlari yovmut, tekin, beshir gilamlar deb yuritiladi. Turkman gilamlari geometrik naqshli bo'ladi. Kavkaz gilamlarning mashhur shirvoni, ahti, darbandi turlari bo'lib, pushti, qizil, ko'k, sariq va boshqa ranglarda barg, gul, qush tasvirlari ishlanadi. Eron gilamlari o'ziga xos bo'lib, gul, o'simlik, qush, hayvon tasvirlangan doirasimon shakllarda ishlanadi. Xitoy gilamlari dunyoga mashhur bo'lib, patlarining patlarining naqshi har-xil me'yorda qirqilib, rel'f hosil qilingan, tasvir zamini esa qisqaroq patli qilib ishlanadi.

Fransuz gilamlarida syujetli naqshlar, manzaralar, gullar ishlangan bo'lib, kishini o'ziga jalb etadi.

Xiva, Andijon, Urgut, Qarshi va boshqa joylarda to'qima gilamlar tayyorlanadi. Ular o'zining o'simliksimon, geometrik naqshi, bejirimligi, tabiiyligi va sifati bilan mashhurdir. Gilamlarni saqlashda ham alohida e'tibor qaratilishi kerak. Chunki tabiiy jun mahsulotlariga tezda kuya tushib qoladi. Gilamlarniyig'ib qo'yganda yoki to'shalganda kuyaga qarshi dori vositalari, yong'oq barglari solib qo'yish kerak. Gilam mahsulotlarini shikast etkazmasdan tozalash ham muhimdir.

Milliy naqshlarimiz g'oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg'u asboblari, uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o'ylantiradi. Bu go'zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo'lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog'langan holda takomillashib bordi. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitga: geografik o'ringa, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa har xil hayvonlar, qirg'iz va qozoqlarda mol shoxi, tojiklarda va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Evropada berokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi.

Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI-VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o'yama naqshlar hamda tavsirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko'rib hayron bo'ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, rasmlar urushi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli mahluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan. VII asrning oxiri VII asrning boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g'oya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks ettirish man etildi.

**Xiva naqshlari** umuman madoxili naqshlar asosida tuziladi. Keyin esa islamiy naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshchilik maktabining namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro‘-zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev hisoblanadi

### **III BOB XULOSA**

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining barcha sohalarida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar manaviy, marifiy, mafkuraviy, kasbiy jihatdan mutloqo yangi zamon kishisini shakllantirishni talab etadi. Hozirgi zamon yoshlarini milliy, sharqona, tarixiy qadriyatlarni hisobga olgan holda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan kasb soxiblarni tayorlash muommasi davlat miqiyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda respublika hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama andozalari talablari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga talim-tarbiya berishda madaniyat, qadryat, milliy san‘at namunalaridan, ota - bobolar tomonidan yaratgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san‘at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmogda. Ta‘lim va tarbiyani maqsadga muvofiq amalga oshirishning eng samarali yo‘l va uslublar yig‘indisi o‘qitish metodikasi deyiladi. Darslarni to‘g‘ri tashkil etish o‘gituvchini o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ham bog‘liq. Shu bilan birga darslarni nazariy ham amaliy qoidalariga asosan o‘tilsa, o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi. Amaliy san‘at fani naqqoshlik asosida xalqimizning milliy ma‘naviyati sifatida bunyodkorlik ayniqsa, milliy me‘morchilikning ajralmas qismidir. Qadimiy va boy an‘analarga suyangan holda xalq san‘atini rivojlantirish va yangi zamonaviy binolarni milliy ruhda bunyod etishda san‘at maktablarini o‘rganish, mashhur xalq ustalari ijodlarini davom ettirish va hayotga tadbiiq etish bilan badiiy asarlarni ishlab chiqarishni tashkil etadi. Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarish tizimining ajralmas bo‘g‘inidir. Amaliy san‘at fani darslarida fanga oid turli adabiyotlar, ko‘rgazmali qurollar, zamonaviy texnika vositalardan keng foydalanish va yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash katta ahamiyatga ega.

Amaliy san'at darslari yanada samarali o'tishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- ta'limning zamonaviy texnikaviy vositalarini qullash;
- darslarda yangi pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish;
- darslarda xalq og'zaki ijodi namunalari, usta-shogird an'analaridan keng foydalanish;
- talabalar ishlaridan ko'rgazmalar qilish;
- ko'rgazmali qo'rollardan foydalanish;
- talabalarni o'z kasbiga qiziqtirish yo'llaridan umumli foydalanish;
- talabalarining individual xususiyatlarini, universitetning moddiy bazasini hisobga olish;
- naqqoshlikda ishlatiladigan atamalarning lug'aviy ma'nosini atroflicha o'rganish va boshqalar

Mavjud ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risidagi farmon va «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturning negizini tashkil qiladi. Amaliy san'at fani tasviriy san'at, chizmachilik va amaliy san'at o'qituvchilarni tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Qadim zamonlardan yurtimizda xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik rivojlanib kelgan. Bu boy me'rosni rivojlantirishda xalq ustalari, naqqoshlar, me'morlar, kulollar, toshkaroshlar va boshqa san'at ustalari ijod qilib kelishgan. Ular qoldirgan me'rosni o'rganish va uni rivojlantirishda amaliy san'at fanining o'rni kattadir. O'lkamizning shahar va qishloqlari turmush hayotimizni yanada chiroyli va qulay buyumlari, yashash sharoitlari yaratishimiz uchun hamda jahon andozalari darajasida ishlab chiqarish salohiyatini oshirishimizda fanning o'z o'rni bor. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi o'z sohasida chuqur ma'lumotli mutaxassis bo'lmog'i, zamonaviy san'at jarayoni yo'nalishlarini yaxshi anglab tushunishi, o'tmish madaniy me'rosimizga esa to'g'ri baho bera olishi, tasviriy san'at va amaliy san'at terminlarini chuqur bilishi va har xil turli badiiy materiallar

vositada amaliy ishlarni puxta bajara olish zarur. Amaliy san`at fani nazariy va amaliy mashg`ulotlardan iborat. Naqqoshlik mahoratini puxta egallashda talabalar bilan olib boriladigan amaliy mashg`ulotlar o`rni beqiyosdir. Amaliy mashg`ulotlarda naqshlarning mohiyati, xususiyati, nafis tasvirlash, vazifalarni metodik ketma-ketlikda bajarish uslubiyoti to`g`risida to`liq ma`lumot va tavsiyalar beriladi. Har bir naqsh ishlari metodik jihatdan puxta o`ylab tuzilishi kerak. Nazariy va amaliy mashg`ulotlarda olingan bilimlar talabalarning mustaqil mashg`ulotlari jarayonida yanada mustahkamlanadi.

Amaliy san`at haqida gap borar ekan biz o`rgangan manbalar, kuzatgan va o`tkazilgan darslar, mashg`ulotlarda naqqoshlik san`ati bo`yicha kasb-hunar kolleji o`quvchilarining bilimi, faolligini oshirishni maqsad qilib olgan edik. Shuning samaradorligi o`tilayotgan darslarga bog`liqligi uning asosiy shartlaridan biridir. O`tkaziladigan naqqoshlikka oid darslarning ishlanmalarini tayyorlashda har bir o`qituvchi o`quvchilarning o`rnini, aniq vazifasini belgilab bera olishi, ular mahoratiga bog`liq bo`lgan shartlardan biridir.

-Kollejlarda amaliy san`atga oid o`tkaziladigan mashg`ulotlarning asosiy xususiyatlaridan biri ko`proq darslarning ijodiy mazmunda ekanligi hamdir. Chunki, mazkur fanda o`quv mashg`ulotlarini tashkil etishda o`quvchilarning psixologik xotira, ko`rish, eshitish, sezish kabi xususiyatlariga va shu kabi o`quvchilarning qobiliyatlariga ham tayaniladi. Har bir mashg`ulotda mavzularni chuqur anglash va uning ma`nosiga etish doimiy vazifa qilib qo`yiladi.

-Kasb –hunar kollejarining amaliy san`at darslarida Samarqand naqqoshlik maktabini o`rgatish ko`p vaqt asrlardan buyon davom etib kelayotgan ustoz-shogird an`analari ishini o`rganish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

-O`quvchilarni amaliy san`at bilan tanishtirish, o`rgatish jarayonida Samarqand shahrining me`moriy binolaridagi turli naqshlar, amaliy san`at buyumlaridagi naqsh kompozitsiyalari o`ziga xosdir. Ularni kasb-hunar maktablarida o`rgatish bugungi kunda tarbiyaviy, ma`naviy jihatlardan ham muhim o`rin tutadi. Shuningdek, o`quvchilarning bilimlarini, kasbga qiziqishlarini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

- Amaliy san'atni kasb-hunar kollejlarda o'rgatish bilan doimiy amaliy ishlarini rivojlantirishga ham imkon yaratadi. Chunki, amaliy san'at Samarqand naqqoshligi rivojining ham asosini egallaydi. Samarqand naqqoshlari, hunarmandlarini ijodini o'rganish masalasi ham keyingi avlodning uni uzluksiz davom ettirishida asosiy makondir.

-Samarqand naqqoshligi uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgani va uning rivojida ko'p usto hunarmandlarning bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham Samarqand naqqoshlik maktablarining ishini o'rganish ehtiyoji bor bo'lib uni yoshlarga doimo o'qtirib borish kerak.

-San'atga va pedagogika kasb-hunar kollejlarning amaliy san'at yo'nalishlarini o'rganadigan o'quvchilariga Samarqand naqqoshlik maktablari sirlarini o'zlashtirib olishlarida yordam berish kerak. Bunga asosan u bilim maskanlaridagi amaliy san'atga doir fanlarning o'qitilish soatlarini ko'paytirish lozim bo'ladi. Shunda amaliy san'atda naqqoshlik an'analari doimiy davom ettirilib, rivojlanadi.

-Amaliy san'atga ixtisoslashgan o'quv yurtlarida shu naqqoshlikni rivojlantirishga doir tomonlari Samarqand usta naqqoshlari yo'lini, tarixini, element va turli qochirimlarini tadqiq qilish lozim bo'ladi. Bunda ularni chuqur o'rganish, izlanish orqali erishish mumkin. Kollejlarda dars bilangina chegaralanmay turli uchrashuvlar, sayohatlar, kechalar, tadbirlarni ham reja asosida tez-tez o'tkazib turilishi lozim.

- Samarqand naqqosh ustalarining yutuqlari bilan o'quvchilarni tanishtirib borish uchun harakat qilish lozim bo'ladi. Asosan bu amaliy san'at yo'nalishiga doir kollejlarda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shularni maktab o'quvchilari davridanoq tayyorlab borish kun talabidir.

Tadqiqotimizning borishida o'rgangan va tahlil qilgan ishlarimizdan iborat bo'lgan yangiliklarni, dars ishlanmalarini noan'anaviy tarzda o'tkazib, fanni chuqurlashtirish amaliy san'atni o'qitishni rivojlantirishning asosiy sharti deb hisoblaymiz. Agar Samarqand naqqoshlik an'analari davom ettirib kasb-hunar kollejlarda chuqur o'rganilsa uning rivojlanishiga samarali ta'sir etgan bo'lar edi.



Xulosa qilib aytganimizda usta bobokalonlarimizning xayotiy hamda ijodiy yo`lini o`rganish, ularni sermahsul an`analarini bilish, ular yaratgan uslub va yo`llarini yanada takomillashtirish, go`zallikka bo`lgan intilishlarini chuqur xis etish davrimiz talabi taqozosi bo`lib qolmoqda. Shuni ham aytish joizki amaliy san`at buyumlari yashash, naqqoshlik san`atini o`rganish, diyorimizda ustoz va shogird an`analariga borib taqalish, avloddan avlodga o`tib kelmoqda. Avvallari bu yo`nalishlar bo`yicha maxsus o`quv muassasalari kamligi sabab bu san`at turlariga qiziqqan yoshlarimiz bu kasbni ustalariga shogirdlikka tushib bilim olib, hunar o`rgandilar. Bunga bir misol dunyoga dong taratgan chust pichoqlari misolida ko`rishimiz mumkin.

Necha yillardan beri bu amaliy san`at turi ham ajdodlarimizdan qolgan ana`naviy merosimiz sifatida avlodlar davomiyligi misolida e`zozlanib, davom ettirib kelinmoqda. Xozirga kelib esa amaliy san`at buyumlari, naqqoshlik san`atiga oshno qalbli yoshlarimiz uchun bu san`atni o`rganish yaxshi o`zlashtirish uchun imkoniyatlar bisyor. Oliy va o`rta ta`lim muassasalarida bu yo`nalish bo`yicha guruhlar ochilgan.

Biz oldimizda turgan dolzarb masalalardan biri bu san`at turlarini amaliy ham ilmiy o`rganishda o`quvchilarimizga barcha shart sharoitlarni yaratib berish sohaga oid ilmiy o`quv materiallarini ko`paytirish, darslar davomida o`quvchilar nafaqat nazariy balki amaliy mashg`ulotlarni olib borishlari uchun barcha shart sharoitlarni yaratilganligi ya`ni ustaxonalar, tsexlar mavjudligi undagi materiallarni etarililigi, bu sohani yaxshi o`rganishlari uchun asos bo`ladi.

Mustaqillik davrida milliy hunarmandchilik ba amaliy san`atni rivojlantirish chora tadbirlari davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Prezidentimiz shu sohadagi say-harakatlari Davlatimiz tomonidan chiqarilgan qaror farmonlar orqali amalgam oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga moslashuv mexanizmi amaliy san`at sohasida ham turli xil tanlovlar, yarmarkalar va sotuv ko`rgazmalar orqali ustalar mahsulotlarini moliyalashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o`z navbatida barcha amaliy san`at ustalarini ruhlantirib, sermazmun, o`ziga xos, rang-barang asarlar yaratishga chorlamoqda.

Meni ham bitiruv malakaviy ishim orqali amaliy san`at va naqqoshlik san`atini rivojlantirishi uchun va fandagi ba`zi bir kamchiliklarni bartaraf etishga oid o`z fikrlarimni bildirdim. Bu aytilgan fikrlarim kelajakda o`z samarasini bersa, o`ylagan fikrlarim va bitiruv malakaviy ishim mazmuni, maqsadi o`z tasdig`ini topgan bo`ladi deb hisoblayman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. I.A.Karimov «Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.: O`zbekiston. 1999. 62 bet.
2. I.A.Karimov Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O`zbekiston. 1996. 300 bet.
3. I.A.Karimov Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma`naviyat. 2008, 171 bet.
4. I.A.Karimov O`zbekiston mustaqillikka erishish ostanasida. -T.: O`zbekiston 2011. 440 bet.
5. O`zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». -T.: Sharq, 1997.
6. A.Erkayev Ma`naviyat – millat nishoni. -T.: Ma`naviyat, 1997. 27 bet.
7. S.S.Bulatov va M.Ashirov Amaliy san`at atamalar lug`ati. -Toshkent: Ensklopediya bosh red., 1991. 86 bet.
8. S.S.Bulatov, L.Dadashev Naqsh alifbosi. –T.: Cho`lpon, 1999. 58 bet.
9. S.S.Bulatov Ganchkorlik va naqqoshlik yog`och o`ymakorligi atamalariga izohli lug`at. -Toshkent: Mehnat, 1991. 89 bet.
10. S.S.Bulatov, M.Xaydarov Hunarmandchilik duolari. -Toshkent: 1994. 60 bet.

11. Djo'raev R.X., Taylaqov N.I., Rasulova G. A.. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun elektron o'quv qo'llanmalar yaratishga oid ilmiy-metodik talablar.

**Internet ma'lumotlari**

1. [Www.ART.ru](http://Www.ART.ru)
2. [Www.Google.ru](http://Www.Google.ru)
3. [Www.Ziyonet.ru](http://Www.Ziyonet.ru)
4. [Www.referat.uz](http://Www.referat.uz)
5. [Www.Yandex.ru](http://Www.Yandex.ru)
6. [Www.yahoo.com](http://Www.yahoo.com)
7. [www.n.b.g.t.intal.uz.](http://www.n.b.g.t.intal.uz)